

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA  
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

**TIBBIYOT QURILMALARI, USKUNALARI,  
TIZIMLARI VA KOMPLEKSLARI**

**USLUBIY KO'RSATMALAR**

**Toshkent -2021**

Tuzuvchilar: Abdixalikov S.P., Kamolova Y.M. “Tibbiyot qurilmalari, uskunalar, tizimlari va komplekslari” fanidan amaliyot ishlari uchun uslubiy ko‘rsatmalar –Toshkent: ToshDTU, 2021. 108 b.

Ushbu uslubiy ko‘rsatmalar “Tibbiyot qurilmalari, uskunalar, tizimlari va komplekslari”ning asosiy qismining tuzilishi va tibbiyotda davolovchi va tashxis qo‘yishda qo‘llanishi to‘g‘risida asosiy ma’lumotlar berilgan. Shu bilan birgalikda biotibbiyot qurilmalarining ishlash prinsiplari va ishlatish usullari to‘g‘risida tushunchalar berilgan.

Ushbu uslubiy ko‘rsatma bakalavr va magistrler tayyorlash uchun “Tibbiyot qurilmalari, uskunalar, tizimlari va komplekslari”, yo‘nalishi bo‘yicha o‘qitiladigan maxsus fanlar qatoriga kiradi.

*Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti ilmiy-uslubiy kengashi qaroriga binoan chop etildi.*

Taqrizchilar: Begmatova D.A. - O‘zMU “Umumiy fizika” kafedrasi dotsenti.  
Xaydarov A.X. - ToshDTU, “EAICHT” kafedrasi dotsenti.

## KIRISH

Hozirgi zamonaviy tibbiyotning yutuqlari ko‘p jihatdan fizika, texnika va yangi texnologiyalardagi muvaffaqiyatlarga asoslangan. Inson organizmidagi barcha kasalliklarning tabiati, kelib chiqish sabablari va davolanish mexanizmlari asosan biofizikaviy tushunchalar asosida tushuntiriladi. Yuqorida ko‘rsatilgan ma`lumotlarga ilmiy asoslangan va zamonaviy tibbiyotning keskin rivojlanishiga tayangan holda oliy talim tizimining islohoti, fan ta`lim-ishlab chiqarish sifatini jahon standartlari talabi asosida yaxshilash, xususan tibbiyot institutlarida o‘quv jarayonini tubdan o‘zgartirishga, tayyorlanayotgan mutaxassislarining nazariy bilimlarini, kasbiy mahoratini, ko‘nikma va malakalarini mustahkamlashga yo‘naltirilgan. Tibbiyot instituti talabalari inson organizmini tibbiy texnika jihozlari: asbob-uskunalar, pribor va apparatlar yordamida a`zo va turli sistemalarining tashxis usullarini amalga oshirishga, davolashga va olingan tibbiy ma`lumotlarni klinik nuqtayi nazardan to‘g‘ri va ilmiy asoslangan holda talqin qilishga tayyor bo‘lishi shart.

Tibbiy texnika va yangi texnologiyalar kursining asosiy maqsadi- bo‘lajak mutaxassislarda organizmdagi a`zo va sistemalarning faoliyatidagi fiziologik jarayonlarni to‘g‘ri talqin qilish uchun zarur bo‘lgan tashxis usullarida foydalaniladigan tibbiy asbob, uskuna va qurilmalarning tuzilishi, ishlash prinsipi va foydalanish sohalari bo‘yicha nazariy hamda amaliy bilimlarni singdirish. Kursning asosiy maqsadi bo‘lajak mutaxassislarga qayd qiluvchi, tashxis qo‘yish va davolovchi ta`sir ko‘rsatuvchi tibbiy asbob-uskunalar, priborlar va apparatlarda ishlash, tashqi muhit faktorlari ta`sirini o‘lchovchi (dozimetrik) va muhofaza qiluvchi asbob va qurilmalardan foydalanishni o‘rgatishdir.

Mamlakatlarning xalqaro kelishuviga asosan barcha tibbiy texnika jihozlari 16 ta asosiy guruhga bo‘linadi:

1. Tibbiy asboblar
2. Barcha turdagи shprislar va ignalar.
3. Diagnostika va terapiya uchun mexanik apparatlar.
4. Endoskopik pribor va apparatlar.
5. Sterilizatsiya, dezenfeksiya va distillyatsion jihozlar.
6. Narkoz, sun‘iy nafas va kislородли terapiya uchun apparatlar.
7. Shifokorlar xonalari va operatsion zallarning jihozlanishi.
8. Tish shifokori xonalarining jihozlari.
9. Elektromeditsina priborlari va apparatlari.
10. Rentgen apparatlari va jihozlari.
11. Oftalmologik apparatlar, priborlar va ko‘zoynakli optika.
12. Tibbiy laboratoriyalarni jihozlash uchun pribor va apparatlar.
13. Radiologik, diagnostik va terapeutik texnika.
14. Ortopedik mahsulotlar.
15. Rentgenologik trubkalar
16. Ko‘chma tibbiy ambulatoriya va laboratoriylar.

## **1 –AMALIY MASHG‘ULOT**

### **Zamonaviy meditsina yutuqlarida yuqori texnologiyali tibbiyot texnikalarining o‘rnii va roli**

Odamzod paydo bo‘lgan kundan boshlab evolyutsiya jarayonida kasalliklar bilan kurashish zarurati tug‘ilgan. Insoniyat rivoji bilan birga fan-texnika ham rivojlanib borgan. Demak tibbiyot texnikasi ham o‘z tarixiga ega bo‘lib, davrlar osha tibbiyot amaliyoti uchun zarur bo‘lgan tibbiy asbob uskunalar ilm-fan taraqqiyoti bilan birga murakkablashib bormoqda. Qadimda antropoidlar ham tug‘ayotgan ayolga yordam berishni, tug‘ilgan chaqaloq kindigini kesish va bog‘lashni, jarohatlangan joyni bog‘lashni, undan oqayotgan qonni to‘xtatishni bilganlar. Bola kindigini kesishda avval o‘tkir qirrali toshdan foydalangan bo‘lsalar, keyinchalik metallardan foydalanishgan. Neantroplar esa qurol-asbob yasashda yangilik qilib, asboblarni sinib ketmaydigan jinslardan (nefrit, yashmadan) yasashgan. O‘tkir, silliq va uchli asboblar yasab muolajalarda foydalanishgan. Tosh davrida olov kashf etilgan. Bronza davrida asboblar bronzadan ishlangan. Jarrohlik pichoqlari, qaychilar, kateterlar, ninalar, suyak qiradigan uskunalar yasalgan. Shu davrda murakkab jarrohlik operatsiyalar bajarilgan, bunga bosh suyagi trepanatsiyasi, ayol qornini yorib bolani olishgan, kuchli jarohatlangan a’zoni amputatsiya qilishgani misol bo‘la oladi.

Moksa - kasal a’zoni qoplاب turgan terini quritilgan shifobaxsh o‘simliklarni tutatib, bir oz kuydirishdir. Bu usulga hozirgi zamon nuqtayi nazardan qaralsa, bu teridagi ekstraretseptorlarga (asab tolalariga) ta’sir qilish printsipiga asoslanadi. Fiziologiya fanida ekstraretseptorlar orqali ichki a’zolarga ta’sir qilish mumkinligi ma'lum. Massaj - bu usulda odam tanasini, qo‘l-oyoqlarini xushbo‘y moysimon moddalar bilan uqlashdir.

Xitoyliklar bu usuldan miozit, nevritni davolash uchun foydalanishgan. Qadimgi Xitoya keng tarqalgan usullardan bu igna sanchib muolaja qilishdir. Ularning fikricha odam tanasida 360 ta og‘riq sezmaydigan nuqta bor. Shu nuqtalardan igna sanchiladi. Ignaga sanchib davolash usullari hozirgi kunda ham klinikalarda akupunktura nomi bilan qo‘llanilmokda.

Hindistonda qadimgi zamon tibbiyotini o‘rganishda Ayur-Veda nomli kitob turadi. Shushruta Ayur-Vedasida 1500 dan ortiq kasalliklar belgilari bayon etilgan. Shushruta birinchi bo‘lib yallig‘lanish jarayoniga ta’rif berib, shish paydo bo‘lishi, yallig‘langan joyning qizarishi, og‘riq paydo bo‘lishi, yallig‘langan a’zoning ishdan chiqishini aytgan. Qadimgi hind tibbiyotida jarrohlik yaxshi rivojlangan edi. Ayniqsa Shushruta mohir jarroh bo‘lgan. Ular qovuqdagi toshni chiqarib olish, churrani operatsiya qilish, ko‘z kataraktasini operatsiya qilishni bilishgan. Jarrohlikda erishgan eng katta yutuqlari plastik operatsiyadir. Qulqoq, lab, burun kabi a’zolarni plastik operatsiya usuli bilan tiklaganlar. Plastik operatsiyalarda ishlatiladigan asbob va qurollar soni 200 dan ortiq bo‘lgan.

Qadimgi Yunoniston tibbiyotida Gippokrat muhim o‘rin egallaydi. Gippokrat eramizdan oldingi 460-yilda Kos orolida tug‘ilgan. Gippokrat bemorlarni tekshirishda a’zoni paypaslab ko‘rish (palpatsiya), qulqoq qo‘yib eshitish (auskultatsiya), barmoq bilan tuqillatib ko‘rish (perkussiya) dan foydalangan. U

bemorning siyidigi va axlatini tekshirishib, siydikni parlatib undan qolgan cho'kmani ko'zdan kechirgan. Gippokrat «Kasallik tarixi» to'ldirish usulini joriy qilib, tibbiyat ilmiga katta xizmat qildi. Kasallik tarixiga yozib olingan ma'lumotlarni umumlashtirib, har xil kasalliklar klinikasi kechishi va asoratlari haqida xulosalar chiqardi va davolash usullarini ishlab chiqdi. Masalan: peritonit kasalligidan o'layotgan bemorning qiyofasini tasvirlagan "Bemor rangi kulrang tusda, ko'zlar ichiga botib ketgan, peshonasi ter bosgan, bemor atrofdagi voqealarga befarq yotadi, ko'zlar bir nuqtaga tikilgan" bo'ladi. Gippokrat juda mohir jarroh bo'lgan, u chiqqan singanlarni davolashda ishlatadigan har-xil moslamalar va richaklarni kashf etgan. Singan suyakni tortib o'z joyiga tushiradigan g'altaklar, qiyshiq bo'lib qolgan umurtqa ustunini to'g'rilaydigan taxtakachlar yasagan. Bosh jarohatlanganda uni bint bilan maxsus bog'lash usuli "Gippokrat qalpog'i" deb nomlanadi.

**O'rta Osiyo davlatlaridagi tibbiyat.** Abu Ali Ibn Sino 980 yilda Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog'ida tavallud topgan. Abu Ali Ibn Sino tibbiyat, uning mohiyati va vazifalari haqida so'zlab avvalo tibbiyotning o'ziga ta'rif bergan: «Tibbiyat shunday bir ilmki, u bilan inson gavdasining ahvoli sog'liq va kasallik jihatidan o'rganilib, uning sog'ligi saqlanadi va yo'qotilgani tiklanadi». Kasallarga tashxis qo'yishda odam tomir urishini tekshirib tomir urishiga quyidagicha ta'rif bergan «tomir urishida siqilish va har kengayishining oxirida tinish (pauza) bo'ladi». Tomir urishini uch o'lchovga bo'lgan: bular tomir urishining kengligi, uzunligi va chuqurligi. U quyidagi kasallikkarda (har xil isitmalar, yomon xiltlarning ko'payib ketishi, me'dada yomon xilt paydo bo'lishi, ozib ketish, uyqusizlik, mushaklarning taranglashishi, ovqatning yomon hazm bo'lishi, quvvatning sustlashishi, asab buzilishi va boshqalar) har xil tomir urishini aytgan.

O'rta Osiyoda turli arxeologik tekshirishlarga asosan XI-XII asrlarda tabiblar turli moslama va instrumentlardan foydalanganliklari aniqlangan.

XX- asrgacha bemorlarga diagnoz qo'yishda kuzatish va fizik tekshirishlardan: palpatsiya, perkussiya va auskultatsiyadan, tana haroratini o'lchashdan foydalanishgan.

Keyingi 100 yillikda ko'pgina yangiliklar kiritilgan. Marey tomonidan 1860 yilda - sfigmograf, Bash tomonidan 1881 yilda - sfigmamonometr, 1891 yilda esa - Riva - Rochchi apparati ishlab chiqildi.

1905 yilda Korotkov usulida arterial qon bosimni o'lhash usuli fanga kiritildi. Kussmaul tomonidan 1867-1868 yillar ezofagoskopiyaga va oshqozon zondi yaratildi. 1881 yil Mikulich gastroskopiyani, Nittse 1879 yilda sistoskopiyaga va rektoskopiyani, bronxoskopiyani 1897 yilda Killian, oftalmoskopiyani 1851 yilda Gelmgolts, laringoskopiyani 1855 yilda Garsiya ishlab chiqdi. Pettenkofer 1861 yilda siydikdagi oqsil miqdorini aniqlash usullarini ishlab chiqdi. Keyin Eyntxoven galvanometri ishlab chiqib, elektro va fonokardiografiyaga asos soldi. Pirke 1907 yilda tuberkulyozga tashxis qo'yishda teri-allergik reaksiyasini ishlab chiqdi. 1904 yilda Rider oshqozon-ichak traktini tekshirishda rentgenologik usulni ishlab chiqdi. Qorin tifiga diagnoz qo'yish uchun Vidal va Sikard 1896 yil agglyutinatsiya reaksiyasini taklif qilishgan. 1912 yilda Shilling leykositlarni differensiallashgan hisoblash usulini ishlab chiqdi. 1894 yilda Bernatsskiy eritrositlar cho'kish tezligi diagnostik muhim ahamiyatga ega ekanini isbotlab berdi. 1927 yilda Arinkin sternal

punksiyasi usulini ishlab chiqdi. 1923 yilda Zimnitskiy buyraklar ishini tashxislashda funksional diagnostik usulni ishlab chiqdi. Frank 1914 yilda yurak tonlarini yozib oldi. 1937 yilda Kastelyanos angioskopiyani, Kalk esa laparoskopiyani kiritdi.

XIX-XX asrlarda diagnostika sohasida fizikaviy, kimyoviy va biologik vositalardan foydalanila boshlandi. Bular yordamida auskultatsiya, perkussiya, elektrokardiografiya, rentgenoskopiya, mikroskopiya va fiziologik hamda bioximik tekshirish usullari amalga oshirildi.

**Auskultatsiya** - bu usulni fransuz olimi Rene Laennec (1781-1826) ishlab chiqdi. Laennek ham boshqa olimlar singari o'pka va yurakni eshitishda shu a'zolarga qulog'ini qo'yib tekshirgan. Bir kuni duradgorga stetoskop yasattirib eshitib ko'radi, bu usul orqali nisbatan yaxshi eshitiladi, chunki to'g'ridan-to'g'ri qulog' qo'yib eshitishda tana bilan vrach qulog'inining bir-biriga ishqalanishi natijasida qo'shimcha shovqinlar paydo bo'ladi. Perkussiya - bu usulni venalik mashhur olim Leopold Avenbruger (1722-1809) ishlab chiqdi. U 1761 yilda maxsus kitob yozib, unda perkussiyani qanday amalga oshirish, undan qanday foydalanish kerakligini ko'rsatib berdi. Lekin bu usul unchalik mashhur bo'la olmadi. Keyinchalik fransuz olimi Jan Nikol Konvizar (1755-1821) Avenbruger perkussiya usulini o'rganib takomillashtirdi. 1818 yilda asar yozdi, shundan keyin bu asar keng tarqaldi. Bu usul asosan ko'krak qafasi a'zolari (o'pka, yurak) tekshirishda ishlatila boshlandi.

**Elektrokardiografiya** - yurak harakati vaqtida unda paydo bo'ladigan elektrik jarayonlarni yozib oladigan usul. Bu usul gollandiyalik olim Eyntxoven (1860-1927) tomonidan ishlab chiqilgan. Bu usul yordamida yurakning turli patologik holatlari aniqlanadi. Yurak kasalliklarini aniqlashda bu usul juda qulaydir.

**Rentgenoskopiya** - bu usulga fizik olim V. K. Rentgen asos solgan. U 1895 yilda tasodifan ko'zga ko'rinas nurni kashf qildi. Bu nur Rentgen nuri deb ataladi. Bu kashfiyot uchun birinchi Nobel mukofoti Rentgenga (1901y.) taqdim etilgan.

Rentgen nurlanishining tibbiyotdagi eng asosiy qo'llanilishlaridan biri – diagnostika maqsadida ichki organlarni yoritish (rentgenodiagnostika)dir. Diagnostika uchun energiyasi 60-120 keV bo'lgan fotonlardan foydalанилди. Nur tekshirib ko'rilmaga u tananing yumshoq qismlaridan o'tib keta olishini, qattiq qismlarda ushlanib qolishi ma'lum bo'lgan. Bu nur turli a'zolarda turlicha ushlanib qolar ekan. Yurak va o'pkaning holatini tekshirishda bu usul juda qulay edi. Keyinchalik boshqa a'zolarni me'da - ichaklar, buyraklar ham rentgenologik usulda tekshirila boshlandi. Rentgenoskopiya a'zolarni rentgen nurlari yordamida ko'zdan kechirishdan so'ng rentgenografiya ichki a'zolarni rentgen nurlari bilan suratga olish usuliga o'tildi.

XX asrga kelib tibbiyotning hamma sohalari juda tez rivojiana boshlandi. Jarrohlik sohasida yechilmay qolgan muammolar hal etildi. Zamonaviy jarrohlikda eng yangi yo'naliishlardan biri giperbarik kislorodning yaratilishi bo'lib, yangilik gollandiyalik Voerataga tegishlidir.

Tibbiyot texnikasining rivojlanishida tabiiy fanlar ham muhim rol o'ynaydi. Tabiiy fanlarning har biri tibbiyotni boyitib, rivojlantirib boradi. Masalan, fizika, kimyo, biologiya, botanika fanlarining rivojlanishi turli tarkibdagi dori-darmonlarning ko'payiishiga hissa qo'shadi. Biologiya, parazitiologiya, mikrobiologiya fanlarining

rivojlanishi tufayli ko‘pgina kasalliklarning sababchilari (mikroblar, parazitlar) aniqlandi. Fizika fanining rivojlanishi natijasida yangi-yangi tashxis va davolash usullari (mikroskop usuli bilan tekshirish, rentgen nurlaridan foydalanish, elektrokardiografiya va h.k.) ishlab chiqildi.

### **Takrorlash uchun savollar:**

1. Tibbiyot texnikasi rivojlanishining ilk davrlari qaysi asrga borib taqaladi?
2. Tibbiyot texnikasining rivojlanishida qaysi fanlar ahamiyatga ega?
3. Elektrokardiografiya va rentgenoskopiya asos solgan olimlar kimlar?

## **2 - AMALIY MASHG‘ULOT**

### **Tibbiyot asbob-uskunalarida qo‘llaniladigan asosiy muhandislik ishlari**

Diagnostika, davolash va tibbiy reabilitatsiya, shuningdek, profilaktik, sanitar – gigiyenik va epidemiyaga qarshi chora – tadbirlarni o‘tkazish maqsadida priborlar, apparatlar va barcha texnik vositalarning majmuasidan foydalanish ahmiyati katta bo‘lib, bu jarayonlarni ularsiz tasavvur qilish qiyin. Tibbiyot texnikasining asosan, turli asbob uskunalarining paydo bo‘lishi va takomillashishi tarixan xirurgiya, akusherlik va ginekologiya, oftalmologiya, klinik tibbiyotning boshqa sohalarining rivojlanishi bilan bog‘liq.

XIX asrda sanoat ishlab chiqarishi yutuqlari, fan va texnika yangiliklari bilan bog‘liq holda fizioterapiya, operativ jarrohlik, shuningdek, sterilizatsiya, dezinfeksiya uchun mo‘ljallangan vositalar hamda juda katta miqdorda tibbiyot texnikasi, asbob-uskunalari paydo bo‘la boshladi. XX- asrning 2-yarmida tibbiyot texnikasining takomillashishida elektronika, optika, yadro fizikasi, robot texnikasi muvafaqiyatlari muhim rol o‘ynaydi. Ilmiy texnika yutuqlari tibbiyot texnikasining tamoman yangi namunalarining ishlatilishi esa davolash va diagnostika imkoniyatlarini kengaytirdi. Optika yutuqlari tufayli qo‘l bilan, elektr toki bilan va ovoz bilan boshqariladigan operatsion mikroskoplar yaratildi, ularning qo‘llanilishi operativ oftalmologiya va otorinolaringologiya, rekonstruktiv xirurgiya (shikastlanish natijasida ommatitsiya qilingan qo‘l-oyoqlarning bitishi), kardiaxirurgiya va neyroxiturgiya imkoniyatlarini ancha kengaytirdi.

Biologik mikroskoplar ham ancha takomillashdi. Tola optikasining ishlatilishi tamoman yangi diagnostik endoskopik priborlarning yaratilishiga zamin yaratdi. O‘tgan asrning 50-yillari oxirida texnik lazerlar paydo bo‘ldi va ular o‘sha paytdan boshlab tatbiq etila boshlandi. Ulardan ko‘z to‘r pardasini yaratishda, glaukomani davolashda, abdominal xirurgiyada, qon-tomirlari operatsiyalarida foydalilanadi va u qonsiz pichoq sifatida xizmat qilmoqda. Ultratovush qurilmalari akusherlik amaliyotida, ichki organlar, yurak tomir tizimi, bosh miya tekshiruvlari diagnostikasini mukammallashtirdi. Klinik amaliyotda teplovizorlar qo‘llanilishi tufayli kuyishlar va sovqotishdagi to‘qimalar neykrozi chegaralarini aniqlash mumkin bo‘ldi. Tana (teri) harorati o‘zgarishi bilan bog‘liq turli kasalliklar diagnostikasini amalga oshirish osonlashtirildi. Mavjud bo‘lgan va qayta ishlab chiqarilayotgan tibbiyot texnikasiga elektron texnikasi, ayniqsa mikroprotsessorlar jadallik bilan tatbiq etilmoqda. Ular diagnostikasini tezlashtirishga va davolash

profilaktik chora-tadbirlarni o'tkazishga, fundamental va amaliy ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishga imkon beradi. Zamонавиу elektron hisoblash mashinalaridan tez tibbiy yordamni tashkil qilishda aholini dispanserizatsiya qilishda, qabul bo'limi ishini optimizatsiyalashda, butun davolash jarayoni, laborator diagnostika, shifoxona ichidagi simli va radioaloqani tashkil qilishda foydalanilmoqda, biotexnik sistemadan esa qo'l-oyoqlar protezini tayyorlashda foydalaniladi. Turli xildagi endoprotezlar yurak klapanlari va bo'g'im protezlari, sun`iy yurak va kardiostimulyatorlar, keratoprotezlar ishlab chiqish va ularni klinikada tatbiq etishda juda katta yutuqlarga erishildi. Davolash amaliyotida magnitli qurilmalar keng tarqalmoqda. XX- asrning 20-yillaridayoq tibbiy magnitlar oftalmologiyada ko'zdan yet metall jismlarni chiqarib olishda qo'llanilgan. 50-yillarda xirurgiyada tatbiq etilgan (masalan, suyaklarni renonetruktib operatsiya qilinganda), turli xildagi magnit qurilmalari fizioterapiyada qo'llanilmoqda, bu yutuqlar magnitoterapiya usullarni yaratishga imkon yaratdi.

Turli kategoriyadagi tibbiyot xodimlarining ishini yengillashtiradigan va kasallarning statsionardagi sharoitini yaxshilaydigan qurilmalar ishlab chiqilmoqda va keng tatbiq etilmoqda (ular kichik mexanizatsiya vositalari deb ataladi). Ularga turli tipdag'i kataloglar (jumladan, ko'tariladigan panelli), avtomatlashgan bog'lov va operatsion stollar, yotoqdagi kasallarni ko'tarish va qayta joylashtirish, ularning hojatini, kuygan kasallarni davolash uchun moslamalar va boshqa tibbiy jihozlar yaratildi. Kimyoviy va biologik fanlarning yutuqlari davolash amaliyotida gemodializ, gemosorbsiya, plazmatsitaferuz uchun apparatlarni yaratish hamda tatbiq qilish imkonini berdi. Bu esa buyrak, jigar va yurak yetishmovchiligini, travmatik toksikoz bilan og'rigan kasallarda tibbiy yordam ko'rsatish imkoniyatlarini kengaytirdi. Hamma joyda giperbarik oksigenatsiya uchun qurilmalar qo'llanila boshlandi. Kompyuter tomografiyaning, yadro magnit rezonansidan iborat masalalarning tibbiyot amaliyotida ishlab chiqilishi va tatbiq etilishi ilmiy-texnikaviy progress bilan bog'liq. Rentgen apparatlari, ayniqsa, flyuorograflarning sifati ancha yaxshilandi.

Radionuklidlar asosidagi tibbiyot texnikasining namunalari diagnostika va davolashda keng qo'llanilmoqda. Tibbiyot texnikasi asbob-uskunalarini ishlab chiqish ishi bilan mamlakatda bir necha ilmiy tadqiqot institutlari shug'ullanadi. ularning eng nufuzlisi jahon tibbiy-texnik jamiyatiga a'zo bo'lib, tibbiy texnika rivojiga faol ishtirok etib kelmoqdalar.

### **Takrorlash uchun savollar:**

1. Tibbiyot texnikasining asosan, turli asbob uskunalarining paydo bo'lishi qaysi sohalarning rivojlanishiga bog'liq?
2. Kimyoviy va biologik fanlarning yutuqlari davolash amaliyotida qaysi apparatlarni yaratish hamda tatbiq qilish imkonini berdi?

### 3 - AMALIY MASHG'ULOT


#### Biotibbiyot o'lchashlardagi amaliy elektrodlarning qo'llanilishi

Elektrodlar – bu o'lchash zanjirini biologik sistema bilan birlashtiruvchi maxsus shakldagi o'tkazgichlardir. Diagnostikada elektrodlardan elektr signallarini olish uchun emas, balki tashqi elektromagnit ta'sirlarni keltirib berish uchun foydalilanildi, masalan reografiyada. Tibbiyotda elektrodlardan davolash maqsadida elektromagnit ta'sir ko'rsatishda va elektr qo'zg'atishda foydalilanildi.

Elektrodlarga alohida talablar qo'yiladi: ular tez mahkamlanishi va olinishi, elektr kattaliklari yuqori darajada barqaror bo'lish, mustahkam, xalaqit bermaydigan, biologik to'qimalarni qo'zg'atmasligi kerak va hokazo. Bioelektrik signallarni olish uchun elektrodlarga tegishli muhim fizik masala, u ham bo'lmasa foydali ma'lumotning yo'qotilishini ayniqsa, elektrod – teri o'tish qarshiligini minimumga yetkazish qo'yiladi. Biologik sistema va elektrodlarni o'z ichiga olgan elektr zanjirining ekvivalent elektr sxemasi 2.9 - rasmida tasvirlangan.  $\epsilon_{bp}$  – biopotensiallar manbaining E.Yu.K., r – biologik sistema ichki to'qimalarining qarshiligi; R – teri va elektrodlarning qarshiligi;  $R_{kir}$  – biopotensiallar kuchaytirgichining kirish qarshiligi. Om qonuniga asosan kuchaytirgichning

$$\epsilon_{bp} = I_r + IR_{kir} = IR_i + IR_{kir}$$


chiqishidagi kuchlanish tushushini shartli ravishda «foydali» deyish mumkin, chunki kuchaytirgich manbai E. Yu. K.ning mana shu qismigina kattalashtirib beradi. Bu ma'noda biologik sistemaning ichidagi va elektrod – teri sistemasidagi kuchlanish tushishlarni «foydasiz» deyish mumkin.  $\epsilon_{bp}$  berilganligi uchun  $I_r$  - ni kamaytirish uchun ta'sir ko'rsatib bo'lmaydi, u holda  $IR_{kir}$  ni oshirishni R ni kamaytirish bilan va eng avval elektrod – teri kontaktining qarshiligini kamaytirish bilan amalga oshiriladi.



1 - rasm. Biologik sistema va elektrodlarni o'z ichiga olgan elektr zanjirining ekvivalent elektr sxemasi

Elektrod – teri o'tish qarshiligini kamaytirish uchun elektrod va teri orasidagi muhitning elektr o'tkazuvchanligini oshirishga urinadilar, buning uchun fiziologik eritmaga qo'llangan marli sochiqdan yoki elektr o'tkazuvchi pastadan foydalilanildi. Bu qarshilikni elektrod – teri kontaktining yuzasini kattalashtirish yo'li bilan ham kamaytirish mumkin, ya'ni elektrodning o'lchamini kattalashtirib, lekin bunda elektrod bir qancha ekvipotentsial sirtlarni egallaydi (masalan 1- rasmga qarang) va

bunda elektr maydonining haqiqiy manzarasi buziladi. Vazifasiga ko‘ra bioelektrik signalni olish uchun elektrodlar quyidagi gruppalarga bo‘linadi: 1) funksional diagnostika xonalarda qisqa muddat ichida, ya`ni masalan, elektrokardiogrammalarni bir marta olish uchun; 2) uzoq muddatda qo‘llaniladigan, masalan, uzluksiz terapiya palatalari sharoitlarida og‘ir bemorlarni doimiy kuzatib turishda; 3) harakatdagi tekshiruvlarda qo‘llaniladigan, masalan, sport yoki kosmik meditsinada; 4) tezlik bilan qo‘llashda, masalan, tez yordam berish sharoitlarida qo‘llaniladigan elektrodlar.




2 -rasm. Yurak dipol momenti  $R_{yu}$  vektorining vaziyati va dipolmomenti maksimal bo‘lgandagi vaqt momenti uchun ekvipotentsial chiziqlarning hosil bo‘lishi


Barcha hollarda elektrodlar qo‘llanishining o‘ziga xos xususiyatini namoyon bo‘lishi tushunarli. Agar bioelektrik signallarni kuzatish uzoq davom etsa, fiziologik eritma qurib qolishi mumkin va bunda qarshilik o‘zgaradi. Bemor hushidan ketgan paytda ignasimon elektrodlarni ishlatish qulaydir va hokazo. Elektrofiziologik tekshirishlarda elektrodlardan foydalanishda ikkita o‘ziga xos masala vujudga keladi: ulardan biri – elektrodlarni biologik to‘qima bilan kontaktida galvanik E.Yu.K.ning hosil bo‘lishi hisoblanadi. Boshqasi, elektrodlarning elektrolitik qutblanishi yoki tok o‘tganda elektrodlardan reaksiya mahsulotlarini ajralishida namoyon bo‘ladi. Natijada asosiyga nisbatan qarshi kelgan E.Yu.K. vujudga keladi. Ikkala holda vujudga kelgan E.Yu.K. elektrodlar yordamida olinadigan foydali bioelektrik signalni buzadi. Shunday usullar mavjudki, ular shu singari ta`sirlarni kamaytiradi yoki yo‘qotadi, biroq bunday usullar elektroximiyaga aloqador bo‘lib, bu kursda uni ko‘rib chiqilmaydi. Nihoyat, ayrim elektrodlarning tuzilishini ko‘rib chiqamiz. Elektrokardiogrammani olish uchun elektrodlar, ya`ni tarmoqlar kabellarining uchlari qo‘yiladigan va mahkamlanadigan 1-qisqichli metall plastinkalar (3 - rasmda) maxsus rezina lentalar bilan oyoq-qo‘llarga mahkamlanadi. Kabellar elektrodlarni elektrokardiograf bilan ulaydi. Bemorning ko‘krigiga 2-ko‘krak elektrod o‘rnataladi. U rezina surgich bilan ushlab turiladi. Bu elektrod ham tarmoq kabeli kabi klemmaga ega.

Mikroelektrodlar praktikada shishali mikroelektrodlar ishlatiladi. Bunday elektrodnning profili (yon tomondan ko‘rinishi) 4-rasmida tasvirlangan, uning uchi 0,5 mkm diametrga ega. Elektrodnning korpusi izolyator bo‘lib, ichida elektrolitga o‘xhash o‘tkazgichi bor. Mikroelektrodlarni tayyorlash va ular bilan ishslash

ma'lum qiyinchiliklar tug'diradi, biroq bunday mikroelektrod membrana hujayrasiga sanchilib, hujayralar ichida tekshirishlar olib borishga imkon beradi.



3 - rasm. Elektrokardiogrammani olish uchun elektrodlar: 1- qisqichli metall plastinkalar, 2- ko'krak elektrodi, 3- tarmoq kabellari uchlarini ulaydigan vintlar



4 – rasm. Shishali mikroelektrodlarning yon tomondan ko‘rinishi

**Tibbiy – biologik axborot datchiklari.** Ko‘pgina tibbiy-biologik sistemaning xarakteristikasini elektrodlar bilan «olib» bo‘lmaydi, chunki ular bioelektrik signallarda aks ettirilmaydi: qon bosimi, temperatura, yurak tovushlari va hokazo. Ayrim hollarda tibbiy-biologik axborot elektr signal bilan bog‘langan bo‘ladi, biroq unga noelektrik kattalik sifatida yondoshish qulayroqdir, masalan, pulsler. Bu hollarda datchiklardan foydalanishadi (o‘lchov o‘zgartiruvchilar).

O‘lchanuvchi yoki tekshiriluvchi kattalikni uzatish bundan keyin o‘zgartirish yoki qayd qilish uchun qulay bo‘lgan signalga aylantiruvchi tuzilma **datchik** deb aytiladi. O‘lchanuvchi kattalik keltirib ulangan, yani o‘lchov zanjiridagi birinchi datchik-birlamchi deyiladi. Tibbiyot elektronikasi uchun faqat o‘lchanuvchi yoki tekshiluvchi noelektrik kattaliklarni elektr signalga aylantiruvchi datchiklar ko‘rib chiqiladi. Boshqa turdagи signallarga qaraganda elektr signaldan foydalanish eng qulaydir, chunki elektron tuzilmalar uni nisbatan murakkab bo‘lmagan holda kuchaytirib berish, masofaga uzatish va qayd qilish imkonini beradi.

Generatorli va parametrik datchiklar mavjud. O‘lchanuvchi signal ta`sirida bevosita kuchlanishni yoki tokni generatsiyalaydigan datchiklar-generatorli datchiklar deyiladi. Bunday datchiklarning bazi turlarini va ular asosidagi hodisalarni ko‘rsatamiz. 1) pyezoelektrik datchiklar – pyezoelektr effekti; 2) termoelektrik datchiklar – termoelektr hodisasi; 3) induksion datchiklar – elektrnomagnit induktsiya 4) fotoelektrik datchiklar – fotoeffekt hodisalarga asoslangandir.

Parametrik datchiklar – shunday datchiklarki, ularda o‘lchanuvchi signal ta’sirida birorta parametr o‘zgaradi. Bunday datchiklarning ba`zilarini va ular yordamida o‘lchanuvchi parametrni ko‘rsatamiz:

- 1) sig‘imli datchik-sig‘im;
- 2) reostatli datchik – omik qarshilik;
- 3) induktivli datchik – induktivlik yoki o‘zaro induktivlikni o‘lchaydi.

Axborotni tashuvchi energiyaga ko‘ra datchiklar: mexanik, akustik, temperatura, elektrik, optik va boshqa datchiklarga bo‘linadi. Ba`zi hollarda datchiklarga o‘lchanuvchi kattalik bo‘yicha nom beriladi, masalan, bosim datchigi, tenzometrik datchik (tenzodatchik) ko‘chishni yoki deformatsiyani o‘lchaydi va hokazo. Ko‘rsatib o‘tilgan datchiklarning mumkin bo‘lgan tibbiy-biologik qo‘llanishlarini keltiramiz (1- jadval).

1-jadval

Datchik	Mexanik	Akustik	Optik	Temperaturali
Pye’zoelektrik	AB	FKG	-	-
Termoelektrik	-	-	-	T
Induksion	BKG	FKG	-	-
Fotoelektrik	-	-	OGG	-
Sig‘imli	FKG	-	-	-
Reostatli	AB, BKG	-	-	T
Induktiv	MIB	-	-	-
<b>Belgilar:</b> AB-qonning arterial	bosimi, BKG		–ballistokardiogramma, FKG-	

fonokardiogramma, OGG-oksigemografiya, T-temperatura, MIB-me`da-ichak yo‘lidagi bosim.

Datchik chiqish kattaligi U ni kirish kattaligi X ga funksional bog‘lanishini ifodalaydigan o‘zgartiruvchi funksiya bilan xarakterlanadi, u analitik ifoda  $U = f(X)$  bilan yoki grafikda tasvirlanadi.

Eng sodda va qulay hol,  $Y = kX$  to‘g‘ri proporsionallik bog‘lanish hisoblanadi.

Kirish kattaligining o‘zgarishi chiqish kattaligiga qanchalik ta`sir etishini – datchikning sezgirligi ko‘rsatadi.

$$Z = Y/X$$

U datchikning turiga qarab mm ga Om bilan ( $\text{Om}/\text{mm}$ ), Kelvinga millivolt ( $\text{mV}/\text{K}$ ) bilan o‘lchanadi va hokazo.

Datchiklar ketma-ket to‘plamining sezgirligi barcha datchiklar sezgirliklarining ko‘paytmasiga teng. Datchiklarning vaqtiy xaracteristikalarini ham ahamiyatga egadir. Analitik ravishda, bunday xususiyat datchik sezgirligining – kirish kattaligi tezligiga  $dx/dt$  yoki X garmonik qonun bo‘yicha o‘zgarganda, chastotaga bog‘liq bo‘lishiga olib keladi.

Datchiklar bilan ishlashda ularning o‘ziga xos bo‘lgan xatoliklarini hisobga olish lozim. Xatoliklarga olib keluvchi sabablar: 1) o‘zgartiruvchi funksiyaning temperaturaga bog‘liqligi; 2) gisterizis – datchikda qaytmas protsesslar natijasida ro‘y beradigan kirish kattaligining sekin o‘zgarishlari, hamda U va X dan kechikishi;


3) o‘zgartiruvchi funksiyaning vaqt bo‘yicha doimiy bo‘lmasligi; 4) ko‘rsatishni o‘zgarishiga olib keladigan datchikning biologik sistemaga teskari ta’siri; 5) datchikning inertligi (uning vaqtiy xarakteristikalarini hisobga olmaslik) va boshqalar.

Tibbiyotda ishlatiladigan datchiklarning konstruksiyasi juda xilma-xildir, oddiylardan (termojuft tipidagi), to murakkab datchiklarigachadir. Misol sifatida eng oddiy-nafas olish datchigi-reostatli (rezistivli) datchikni bayon etamiz.

Bu datchik (5-rasm) rezina naycha – 1 ko‘rinishida qilingan bo‘lib, u ko‘mir kukuni – 2 bilan to‘ldirilgan. Trubkaning kesilgan joylariga elektrodlar – 3 biriktirilgan. Ko‘mir orqali tashqi manba 4 dan tok o‘tkazish mumkin. Trubka cho‘zilganida uzunligi ortadi va ko‘mir ustunining ko‘ndalang kesimi quyidagi formula bo‘yicha kamayadi:

$$R = \rho l / S$$

bu yerda  $\rho$  – ko‘mir kukunining solishtirma qarshiligi.



5 - rasm. Rezistivli oddiy – nafas olish datchigining sxematik ko‘rinishi

Shunday qilib, agar trubka bilan ko‘krak qafasi bog‘lansa yoki odatda qilinadigandek trubkaning uchlariga tasmani birlashtirilsa va ko‘krak qafasini o‘rab olinsa, nafas olishda trubka cho‘ziladi, nafas chiqarishda siqiladi. Zanjirda tok kuchi nafas olish chastotasiga ko‘ra o‘zgaradi, buni esa mo‘ljallangan o‘lchov sxemasini qo‘llab yozib borish mumkin.

#### **Takrorlash uchun savollar:**

1. Tibbiyot texnikalari va qurilmalarida qanday datchiklar idhlatiladi?
2. Elektrod va sensorlarning qanday turlarini bilasiz?
3. Axborotni tashuvchi energiyaga ko‘ra datchiklar qanday turlarga bo‘linadi?

#### **4- AMALIY MASHG‘ULOT** **Qonni tozalovchi va filtrlovchi qurilmalar**

**Suniy qon aylanish apparati.** Ekstrakorporal qon aylanish, sun`iy perfuziya, sun`iy qon aylanish – bu sun`iy yo‘l bilan organizmda, uning alohida organlarida yoki alohida qismlarida qon aylanishini ta`minlaydigan usuldir. Bryuxonenko va uning xodimlarining tadqiqotlari bu usulga asos soldi. Ular «yurak – o‘pka» apparatini yaratdilar. 1930 yilda birinchi marta ochiq yurak operatsiyasida sun`iy

qon aylanishni tajribada Terebinskiy tatbiq qildi va AQSh ning Gibben shahri klinikasida 1953 yilda yo‘lga qo‘yildi. 1957 yilda sobiq SSSR ning Vishnevskiy nomidagi ITI da operatsiya sun`iy qon aylanish yordamida muvaffaqiyatli o‘tkazildi. Klinik sharoitda sun`iy qon aylanishini tajribada tadbiq qilishning uch xil usuli mavjud: umumiy qon aylanishi, regional sun`iy qon aylanishi va turli variantdagi yordamchi qon aylanishlar.

1. Umumiy sun`iy qon aylanish – birmuncha ko‘p tarqalgan usuldir. Bu usul qisqa vaqt ichida yurakning nasos funksiyasi va o‘pkaning gaz almashtirish funktsiyalari muayyan mexanik moslamalar bilan almashtirishdan iborat. Bu usul asosan kardioxirurgiyada qo‘llaniladi.

2. Regionar sun`iy qon aylanishi – organizmning alohida organi yoki muayyan qismini vaqtincha qolgan tomirlar sistemasidan izolyatsiya qilgan holdagi perfuziyasidir. Bu usul dori moddalarining bevosita jarohat joyida yuborish maqsadida onkologiya va yiringli xirurgiyada qo‘llaniladi.

Kardioxirurgiya maqsadlari uchun regionar sun`iy qon aylanishning – koronar – korotadli perfuziya varianti qo‘llaniladi. Sun`iy qon aylanish usuli kardioxirurgiyada keng qo‘llanilib, deyarli barcha operatsiyalar shu usul yordamida amalga oshiriladi.

**Sun`iy qon aylanish apparati (SQA).** Sun`iy qon aylanish perfuzion apparat yordamida amalga oshiriladi.

Umumiy sun`iy qon aylanishi uchun qo‘llaniladigan SQA ga quyidagi talablar mavjud:

1. Apparat butun perfuziya davomida organizmda qon aylanishning berilgan daqiqali hajmini ishonchli ta`minlanishi (katta yoshli mijoz uchun  $4\div5$  l) va aylanadigan qonning haroratini normal me`yorda ta`minlanishi kerak;

2. Oksigenerator qonning adekvat arterializatsiyasini ta`minlanishi zarur: 95 % dan kam bo‘limgan kislород bilan to‘yintirish va bosimni  $35\div45$  mm. sim. ust. darajasida CO<sub>2</sub> ni qo‘llash;

3. SQA ning to‘ldirish hajmi katta bo‘lmasligi kerak (katta yoshdagи mijozlarning perfuziyasida 3 l dan ko‘p bo‘lmasligi);

4. Apparat yurakning va zararlangan to‘qimaning yorilgan bo‘shliqlaridan oqadigan qonning aylanish konturiga qaytishi uchun maxsus moslama bilan ta`minlanishi kerak;

5. Apparatda qonning jarohati minimal bo‘lishi kerak (perfuziyaning birinchi soatida plazmaning erkin gomoglobini 40 MG % ko‘p emas);

6. SQA fiziologik bloki zararsiz materialdan, qonga nisbatan kimyoviy harakatsiz munosabatida tayyorlanishi kerak, uning konstruksiyasi klinik sharoitda tozalash va sterilizatsiya qilishi ta`minlashi kerak.

Har qanday SQA ikkita blokdan iborat: fiziologik va mexanik. Qonga tegishli barcha detallar fiziologik blokka kiradi. Bu blokning asosiy tarmoqlari oksigenerator yoki «sun’iy o‘pka» va tomirli nasos yoki «sun’iy yurak» hisoblanadi. Bunga barcha fiziologik blokning detallari o‘zaro bog‘lanadigan turli ko‘rinishdagi rezervuar va shlanglar mavjud bo‘lib – ular ekstrakorporal sistemasini tashkil qiladi – bu sistema apparatning sirkulyatorli konturi deyiladiki, bu orqali sun`iy qon aylanish vaqtida qon harakat qiladi.

Kardioxirurgiyada foydalaniladigan umumiy SQA quyidagi qismlardan iborat: 1-koronarli otsos; 2- monometr; 3-filtr tutqich; 4-issiqlik almashtirgich; 5-arterial nasos; 6-oksigenerator; 7- qabul qiluvchi tomir.

Mijoz tomiridan qon o‘z harorati bilan operatsion stol sathidan pastga joylashgan oksigeneratorga qo‘yiladi va u yerda kislorod bilan to‘yintiriladi, ortiqcha zararli karbon kislotalaridan tozalanadi va so‘ruvchi nasoslar yordamida mijoz qon tomirlariga yuboriladi. Qon mijozning qon aylanish sistemasiga tushishdan oldin u issiqlik almashtiruvchi moslama orqali (qoniga kerakli normal temperatura berish uchun) va mijoz qon aylanish sistemasiga tushuvchi emboliyalar (tromb massalar, kalsiy qismlari va gaz pufakchalari) dan tozalovchi filtr – tutqichdan o‘tadi.

Oksigeneratorlar ikkita asosiy sinfga bo‘linadi: qon bilan kislorodning bevosita aloqasida amalga oshiriladigan gaz almashinuvidagi oksigeneratorlar, gaz o‘tadigan membranalar tomonidan qon va kislorod bo‘lingan joydagи oksigenatorlar. Birinchi sinf oksigeneratorlari ikki tipga bo‘linadi: pufakli va plyonkali. Ikkinci sinf membranali oksigenatorlar bo‘lib hisoblanadi.

**Nasoslar.** SQA ga ikki asosiy sinfda ajratilgan nasoslar tatbiq qilinadi: klapanli va klapansiz. Klapanli nasoslar, klapanlari ichkarida va klapanlari tashqaridagi nasoslarga bo‘linadi.

Klapanli nasoslarning ko‘proq xarakterli namoyandalari bo‘lib, membranali va kamerali nasoslar hisoblanadi.

Klapansiz nasoslar undan roliklarni yogurtirish yoki uning mexanik «barmoqlar» bilan (rolikli va barmoqli) ko‘ndalang qayta bosish yo‘li bilan elastik trubkadan qonni sitish negizi bo‘yicha ishlaydilar. Qon hujayralari shikastlanishini minimumga yetkazish maqsadida SQA apparatlarni konstruksiyalashda qonning reologik xossalari (qovushqoqlik, apparatning magistrallari bo‘yicha qonning oqish tezligi ya`ni Reynolds soni kattaliklari va h.k) hisobga olinadi.

Qo‘srimcha tarmoqlar – bu issiqlik almashtirgich va koronar otsosi bo‘lib hisoblanadi. Sun‘iy qon aylanish jarayoni uchun birinchi holatda qon va mijoz tanasi temperaturasini normal holda ta`minlash zarur. SQA da issiqlik almashtirgichlarning ikki turi qo‘llaniladi: trubkali va teshikli. Issiqlik almashtirgichni yuvadigan suvning issiqligi hisobidan qonning normal temperaturasi saqlanadi. Qonni apparatning sirkulyatsion konturiga koronarli otsos (so‘ruvchi moslama) sistemasi orqali qaytariladi. Bu jarayon vakuumli nasos yoki rolikli nasoslar yordamida amalga oshiriladi. Fiziologik blokining yordamchi qismlariga qonning qo‘srimchalari va chiqarib tashlash otsosi uchun turli ko‘rinishdagi tomirlar, havo pufakchalari uchun filtr tutkichlar va h.k. bo‘lib hisoblanadi. SQA ning mexanik blokiga oksigenatorning harakatlantiruvchi qismlar va apparatning korpusi nasoslar privodlari bilan birga hamda nasoslarning ish unumдорligini ishlatilgan gazlar, qon temperaturasi va h.k.larni o‘lchaydigan apparatlar. Energiya manbai sifatida elektr toki yoki siqilgan gaz foydalaniladi. Mexanik blokining asosiy elementlaridan biri halokat qo‘l privodidir. Apparat takomillashuvining odatiy holi bu fiziologik bloklarining bir martali foydalanishidir.

**SQA namunalari.** AIK-5M, ISL-4 koronar perfuziya uchun apparatlar bo‘lib, ular alohida oksigenatorga ega emas va u umumiy perfuziya uchun apparatga qo‘srimcha moslamadir. Bular uchun arterial nasosning ishlash unumдорligi 6 va 8

l.daq. bo‘lib, to‘ldirish hajmi 2,0 va 2,5 l. Perfuzionli apparatdan foydalanishga bo‘lgan asosiy talab, qancha tegib turgan yuzi qismlarining absolyut tozaligi. Bu holatga erishish uchun fiziologik blokning barcha elementlari detergentlar yoki muayyan konsentratsiyali ishqorli eritmalar yordamida yuviladi. So‘ngra apparat yig‘iladi va sterilizatsiya qilinadi. SQA larining konstruktiv materiallariga bog‘liq holda avtoklavirovanlash yoki sovuq holda bakteritsidli gaz (etilen oksidi) va diotsid yoki beta – propiolakton aralashmalari bilan amalga oshiriladi.

SQA qon yoki qon o‘rnini bosuvchi eritma bilan to‘ldirilib, keyingi etapdagи operatsiya uchun mijoz bilan ulanadi. Sun‘iy qon aylanishni boshlash uchun arterial nasoslarni kichik ishslash unumdorligiga qo‘yish bilan bir vaqtida apparatning qon yurish yo‘nalishlardagi qisqichlar olinadi. Biroq, mijoz organizmidan to‘liq qon o‘tishiga yo‘l qo‘yilmaydi. 1÷2 daqiqa ichida nasosning ishslash unumdorligi va qonning oqish miqdoriy kattaligi sinxron oshiriladi, perfuziyaning hajmiy tezligi belgilangan normada, ya`ni tananing  $1\text{ m}^2$  yuzasi  $2,2\div2,4\text{ m}.\text{daq}.\text{ni}$  tashkil qilishi kerak. Sun`iy qon aylanishning davomiyligi organizmning patologik xarakteriga bog‘liq bo‘lib, bir vaqtning o‘zida yurakning bir necha klapanlarini protezlash bilan birga bir necha daqiqadan uch va undan ko‘p soatgacha davom etishi mumkin. Biroq, perfuziya vaqtini doimiy minimumga yetkazishga harakat qilish kerak. Arterial nasosning ish unumdorligini kamaytirish bilan bir vaqtning o‘zida apparatga qon o‘tishini to‘xtatib, tabiiy qon aylanishiga o‘tiladi.

**«Sun`iy buyrak»** apparati – organizmdan zaharli mahsulotlarni ayirboshlash va ekzogen zaharlarni chiqarish uchun hamda qonning dualizi va ultrafiltratsiya vositasida elektritolitli – suvli balansini va kislota – ishqorli muvozanatni tartidga soluvchi apparatdir.

Sun`iy buyrak buyrakning funksiyasini vaqtincha gemostazni qo‘llash bo‘yicha o‘rnini bosadi, lekin buyrakli jarayonlarni (dumaloqli filtratsiya, kanalli reabsorbsiya va sekretsiya va b.) va inkretorli funksiyasini modellashtirmaydi.

Gemodializ - ((haemodialysis) grekcha so‘zdan olingan bo‘lib, haemo - qon, dialysis - ayirmaq ma’nolarini bildiradi) bu yarim o‘tkazgichli membrana orqali qonni buyrakdan tashqari ultrafiltratsiya va diffuziya yo‘li orqali kichik va o‘rtal molekulali moddalardan tozalash usulidir.

Gemodializ o‘tkir va surunkali buyrak yetishmovchiligi, turli dori moddalari ta’sirida yuzaga kelgan intoksikatsiyalarda va yana qon elektrolit tarkibining og‘ir buzilishlarida, dializlovchi zaharlardan zaharlanishda qo‘llaniladi.

Buyrakning surunkali kasalliklarida gemodializni buyrak yetishmovchiligidagi konservativ davo samarasi bo‘lgan vaqtidan boshlanadi. Terminal bosqichga o‘tganda ham, gemostaz boshqarilishining butunlay ishdan chiqqanida, uremik intoksikatsiyaning og‘ir simptomlari yuzaga kelganda, dispeptik buzilishlar, anemiya, olinayotgan havodan siydirik hidi anqib turishi, qontalashlar, terining quruqshashi va sarg‘ayishi, qichishishlar, uyquning buzilishi va boshqalar. Surunkali buyrak yetishmovchiligidagi gemodializga absolyut ko‘rsatma perikardit belgilarining yuzaga kelishi hisoblanadi. Buyrakning vaqtinchalik yetishmovchiligi yuzaga kelganda gemodializni qo‘llash mumkin.

Sun`iy buyrakda yarimo‘tkazuvchi membrana dializlovchi eritmani o‘tkazishida sterilli qono‘tkazuvchi sistemani nosterilli sistemadan ajratadi. Membrananing

o'tkazuvchanligi, uning yuzasi, apparatning konstruksiyasi, eritmaning temperaturasi, membrananing ikki tomonida moddalar konsentratsiyasining farqi, uning molekulalarining andozasi va formasi va boshqalarga bog'liq holda turli tipdag'i sun'iy buyrakda turli moddalarning dualizi turli tezlikda (birxil bo'limgan) o'tadi.

Ultrafiltratsiya uchun zarur bo'lgan, sun'iy buyrakka bosim gradiyentiga erishilishi asosan qon o'tkazuvchi sistemaga ijobiy (musbat) bosim va dializirlashtirilgan eritma sistemasiga salbiy (manfiy) bosim hisobidandir.

Osmotik aktiv moddalarni qo'shish hisobidan (glyukoza, mannitol) dializirlashtiriladigan eritmaning osmotik bosimini oshirib, suvni chiqarib yuborish jarayonini kuchaytirish mumkin.

Sun`iy buyrakni yaratish bo'yicha ishlar amerikalik olim Djon Abel va uning xodimlari (1913y.) tadqiqotlaridan boshlandi. Uzoq vaqt sun'iy buyrakni yaratishda jiddiy qiyinchiliklar, gemodializ talablariga javob beradigan yarimo'tkazgichli membrananing yo'qligida bo'ldi (uning fiziko – kimyoviy xossalari o'r ganilmaganligi sabab bo'ldi).

Bunday membranalarning ko'p sonli variantlari (kollodiy, baliqlarning suzish pufagi, buzoqning qorni va b.) uchun mexanik mustahkamlik kuchining nihoyatda kichikligi sababli ulardan keng foydalanish imkon bo'lmadi. Bu masalani Talxaymer hal qildi (W. Thalheimer, 1938y.), u maqsad uchun birinchi marotiba sellofanni taklif etdi va tajribada sinab ko'rdi.

Gollandiyalik olim Vilyam Kolf birinchi marta 1944 yilda «Sun`iy buyrak» ni amalda muvaffaqiyatli tadbiq etdi. Bunda uremik intoksikatsiyaning og'ir simptomlari 67 yoshli ayolga yuzaga kelgandagi muvaffaqiyatli operatsiya paytida qo'llanilgan.

Sobiq SSSRda akademik V. V. Parin taklifi bilan «Sun'iy buyrak» apparatini yaratish 1955 yilda boshlangan edi.

A. Ya. Po'tel va N. A. Lopatkinlar tomonidan birinchi marta buyrak yetishmovchiligi bilan kasallangan bemorni davolashda 1958 yil «Sun'iy buyrak» apparati tatbiq qilingan edi, lekin birinchi sovet apparati esa 1960 yilda shifokorlar va injenerlar guruhi tomonidan yaratilgan.

Konstruktiv tuzilishlarining har xilligiga qaramasdan barcha apparatlar bir xil prinsipial sxemaga ega va ular quyidagi asosiy elementlardan iborat: 1-dializator; 2 – apparat orqali qonni yuritish uchun perfuzzion konstruksiya; 3 – dializirlovchi eritmani tayyorlash va dializatorga uzatish konstruksiyasi; 4 – gemodializning (monitor) asosiy tibbiy – texnik parametrlarini nazorat va boshqarish konstruksiyasi. Dializatorlar quyidagi asosiy guruhlarga bo'linadi: harakatli va harakatsiz barabanlar shaklidagi dializatorlar; g'altak shaklida; plastinka tipidagi dializatorlar; kapillyarli dializatorlar.


Sobiq sovet apparatlarida plastinkali tipdag'i apparatlar (AIP-140, Diaxron - 80, SGD-6, Diatsentr-1 va b.) foydalanilgan. Kapillyarli dializatorlar keng tatbiq qilindi. Uning asosi yupqa devorli ( $11 \div 30$  mkm) ichki diametri  $200 \div 260$  mkm bo'lgan kapillyarlar yarimo'tkazuvchi membranadan iborat. Minglab shunday kapillyarlar bog'lamchalarga birlashtirilgan bo'lib, ular tiniq plastikdan qilingan silindrik g'ilofga joylashtiriladi.

Bunday silindrning boshidan oxirigacha barcha kapillyarlar orasidagi masofa, silindr yon tomoni shtutseri orqali kiradigan dializirlovchi eritmaning sirkulyatsiya sistemasiдан qon o'tkazuvchi sistemanı ajratish uchun maxsus birikma bilan germetizatsiya qilinadi. Yarimo'tkazuvchi membrana apparatning zarur funksional elementi bo'lib hisoblanadi. «Sun'iy buyrak» ning effektivligi va bemor uchun xavfsizligi uning xususiyatlariiga bog'liq. Membranalarga quyidagi talablar mavjud: 1- qonga salbiy ta'sir ko'rsatmaslik va u bilan kontaktda bo'lganda zaharli moddalar ajratmaslik (chetki yuzalarning kamida 95% yarimo'tkazuvchi membranaga to'g'ri keladi, shuning uchun «Sun'iy buyrak» dan qon o'tganda bevosita bunday yuzalar bilan kontaktda bo'ladi); 2- ekzogenden paydo bo'lgan metabolit va zaharli mahsulotlarni effektiv chiqarib tashlashni ta'minlash; 3- zaruriy ultrafiltratsiya tezligini ta'minlash; 4-oqsilni o'tkazmaslik; 5- yuqori mustahkamlikka ega bo'lish, mexanik nagruzka va temperatura rejimida membrana yorilishining oldini olish. Selofandan tayyorlangan membranadagi mayda teshiklap – 1,5 ÷ 2,5 nm, membrananing qalinligi– 10 ÷ 20 mkm.

Modomiki uremik sindromning rivojlanishida kimyoiy tabiat rasshifirovka qilinmagan o'rta molekulali metabolit muayyan rol o'ynar ekan, u holda gemodializ uchun poliakrilnitril va boshqa polimer materiallardan o'rtamolekulali moddalarni odatdagи membranaga nisbatan yuqori ko'rsatkich bilan tayyorlangan membranalar ishlab chiqildi. Dializ tekisligiga nisbatan dializatorlar har xil yuzaga ega (0,24 ÷ 2,5 m<sup>2</sup>). Eng zarur parametrlardan (andozalar, sterilizatsiya usuli, ishga tayyorlash vaqt, birlamchi to'ldirish hajmi, qoldiq hajm, ultrafiltratsiya, ichki qarshilik, membrana chastotasining uzilishlari) takroriy foydalanish imkoniyati mavjud. Kapillyarli va katushka tipidagi va plastinka tipidagi qator dializatorlarning barchasi – bir martali foydalanishga ega. Bunday dializatorlar to'liq yig'ilgan holatda chiqariladi, ular sterilizatsiya qilingan va tez foydalanishga tayyor. Muayyan ehtiyyotlikka rioya qilingan holda ayrimlaridan takroran foydalanish mumkin. «Sun'iy buyrak» effektivligining asosiy ko'rsatkichi klirens va dializans bo'lib hisoblanadi, u dializirlangan suyuqlikning qaysi hajmi perfuziyaning tanlangan tezligida muayyan vaqt birligida (daq.) berilgan moddalardan tozalanganligini ko'rsatadi.

**Perfuzionli qurilma** nasoslar yordamida apparat orqali qonni yuritish uchun xizmat qiladi: membranali, rolikli va sigma – nasoslar. Dializirlovchi eritmani tayyorlash va uzatish va «Sun'iy buyrak» apparatining ishlashini nazorat qiluvchi qurilma ham priborning asosiy uzeli hisoblanadi. Sterilizatsiya bir martalik foydalaniladigan qurilma yoki mexanizm va moslamalarda birmuncha ishonchlidir. Ularning mavjud bo'lgan kamchiligi – qimmatligidir. Shuning uchun takroriy foydalanish dializatorlari tez – tez ishlatiladi. Sterilizatsiya uchun 2% - li formalin eritmasi qo'llaniladi. Operatsiyani (jarayonni) boshlashdan oldin sistema sterillangan fiziologik rastvor – heparin (2 l fizeritma) bilan yuviladi. Apparatni ishga tayyorlash vaqt 30 ÷ 40 daqiqa. «Sun'iy buyrak» sovet modelining sxemasi 2.80 - rasmda ko'rsatilgan bo'lib, unda nasos 2 yordamida qon bemordan kateter 1 orqali dializator 3 ga keladi. U oxirgi sellofanli plastinka orasidan o'tib (uning har birida 11 sektsiya mavjud), bemor qoni unga ro'para oqayotgan dializirlovchi eritma bilan tutashadi. Uning tarkibi odatdagи standart bo'yicha qonning barcha asosiy ionlari va glyukozadan iborat (K; Na; Ca; Mg; Cl; HCO<sub>3</sub>), bu bemor qonining elektrolit sostavini korreksiya


qilishga zarurdir. Qon dializatordan so‘ng unumdorlikni qayd qiluvchi o‘lchagich 4 ga keladi, u yerda quyulgan qon va havodan tozalanadi. So‘ngra qon kateter orqali bemorning tomirlar sistemasiga qaytadi. Dializirlangan eritma avtomatik isitgich 8 yordamida temperaturasi  $38^{\circ}\text{C}$  gacha ko‘tariladi va karbogen bilan shunday to‘ldiriladiki, u uchun rN 7,4 ga teng bo‘lsin. Nasos 9 yordamida dializirlangan eritma dializatorga uzatiladi.




6- rasm. «Sun`iy buyrak» apparatining sxematik ko‘rinishi:

- 1 - kateter, 2 - qon uchun nasos, 3 – dializator, 4 – unumdorlik o‘lchagichi, 5 – filtr, 6 – havoushlagich, 7 – bemorga qonni qaytarish kateteri,
- 8 – isitgich, 9 - dializirlangan suyuqlik nasosi, 10 – dializirlovchi eritma uchun bak, 11 – kislород uchun rotametr, 12 – karbonat kislotasi uchun rotametr, 13 – gidroprovod perfuzzion nasosi

Dializatorda qonning oqish tezligi  $250 \div 300$  ml/daq. Apparatning klirensi siydik bo'yicha  $140$  ml/daq. Hozirgi vaqtida «Sun`iy buyrak» apparatlarining yangi avlodlari ultrazamonaviy texnologiyalar asosida yaratilgan bo'lib, quyida ularning bir necha ko'rinishdagi modellari bilan tanishish maqsadga muvofiqdir (64,65,66 - rasmlar).



7 - rasm. Inson buyuragini normal holatdagi model shakli



8 – rasm. Zamonaviy ultra texnologiya asosida yaratilgan «Sun`iy buyrak» ning umumiy ko'rinishi




9–rasm. Zamonaviy yangi texnologiya asosida yaratilgan gemodializ apparatinig umumiy ko‘rinishi

**Takrorlash uchun savollar:**

1. Sun`iy qon aylanish uchun mo‘ljallangan qurilmalarning ishlash prinsipi nimalardan iborat?
2. Perfuzionli qurilmaning vazifasi nimada?
3. Oksigeneratorlar nechta asosiy sinfga bo‘linadi?

**5 - AMALIY MASHG‘ULOT**  
**Stomatologiyada qo‘llaniladigan qurilma va asboblar**


Stomatologiyada ishlatiladigan tibbiyot texnikalarining turi unchalik ko‘p emas. Ularning tarkibiga stomatologiya qurilmalari, bormashinalar, davolovchi vrach kreslosi va tish texniklari ishlatadigan yuqori harorat hosil qiluvchi vositalar kiradi. Stomatologiyada ishlatiladigan qurilmalarning ko‘pchiligi chet davlatlarida ishlab chiqariladi. Yugoslaviyaning «Yugodent» firmasi ishlab chiqargan «Elektra 2000 G» markali stomatologiya qurilmasi misolida stomatologiya qurilmalariga texnik xizmat ko‘rsatish tartiblarini ko‘rib chiqamiz.



10 – rasm. «Sprayvit 2» ga texnik xizmat ko‘rsatish tartibi


Mikromotor va bosim ostidagi havo bilan ishlaydigan charxlash vositalaridan foydalilanadi. Mikromotorga texnik xizmat ko‘rstatish ko‘rsatilgan tartibda amalga oshiriladi.

Bunda «Sirona» markali mikromotorning grafit shyotkalarini almashtirish tartibi ko‘rsatilgan. Dvigatelni moylash tavsiya etilmaydi. Og‘izni chayqash uchun suyuqlik va tozalash uchun havo beruvchi qurilma «Sprayvit 2» ga texnik xizmat ko‘rsatish tartibi 10 – rasmda ko‘rsatilgan tartibda amalga oshiriladi.



11 – rasm. Bu elektr isitgichga texnik xizmat ko‘rsatish


Og‘iz chayqash uchun zarur bo‘lgan suyuqlikni isitish uchun «Elektra 2000G» apparatidagi qo‘srimcha qurilma, elektr isitgichdan foydalilanadi. Bu elektr isitgichga texnik xizmat ko‘rsatish 11-rasmda ko‘rsatilgan tartibda amalga oshiriladi.




12 – rasm. Tishni bosim ostidagi havo bilan charxlovchi turbinali nakonechnik.

Bunda vaqtı-vaqtı bilan suvni filtrlovchi vosita almashtirib turiladi, transformatorning past kuchlanishli tomonidagi saqlagich tekshiriladi. Apparat komplektidagi 3000L, 3000M, 3000C va 3000 K markali tishni bosim ostidagi havo bilan charxlovchi turbinali nakonechnik 12-rasmida, uning qismlari va unga texnik xizmat ko'rsatish tartibi 13-rasmida ko'rsatilgan.


Stomatologiya qurilmasidagi yoritgich lampaga texnik xizmat ko'rsatish 12-rasmida ko'rsatilgan. Stomatologiya qurilmasining kompressoriga texnik xizmat ko'rsatishda undagi yog' nazorat qilinadi, haftasiga bir marta yog' va suv to'kib yangilanadi, saqlagich klapan ishi tekshiriladi. Kompressor remeni taranglashtiriladi va filtrdagи paxta har 6 oyda almashtirib turiladi. Kompressor podshipniklari har 5000 soat ishlagandan so'ng SIS—2 markali yoj bilan moylab turiladi.




13 – rasm. Tishni bosim ostidagi havo bilan charxlovchi turbinali nakonechnik qismlariga va unga texnik xizmat ko'rsatish tartibi



14 – rasm. 808, 508 markali nakonechniklar bilan ta'minlangan bo‘lib, ularga texnik xizmat ko‘rsatish tartibi



## 15– rasm. Bolgariyaning Medapparatura zavodi ishlab chiqaradigan YuS— 5 markali stomatologiya qurilmasi




16 – rasm. YuS—5 stomatologiya qurilmasi

808, 508 markali nakonechniklar bilan ta'minlangan bo'lib, ularga texnik xizmat ko'rsatish tartibi 14-rasmda ko'rsatilgan.

Bu nakonechniklar mikromotordan «Sirona» chiqarib olinib sovitilishi, har oyda moylab turilishi kerak. Uning qismlarini (borlarini) 140°C dan katta bo'limgan haroratda sterillash lozim.

Bolgariyaning Medapparatura zavodi ishlab chiqaradigan YuS—5 markali stomatologiya qurilmasi (14 - rasm) Yugoslaviyaning «Elektra 2000 G» apparati singari tuzilishga ega bo'lib, tishni mikromotor va bosirrij ostidagi havo bilan charxlashga mo'ljallangan. Shuningdek koagulyatsiyani amalga oshirish imkoniyati hamda og'izni yoritish qo'shimcha vositasi ham mavjud. Ularning tuzilishi bilan amaliy mahsulotlarda tanishiladi.

YuS—5 stomatologiya qurilmasida Chexiyaning «Xirana» firmasida ishlab chiqarilgan 300000 ayl/min tezlikgacha ishlaydigan turbinali nakonechnik ishlatilgan. Unga havo berish, qizib ketganda sovutish uchun SUV berish sistemalarining strukturaviy sxemasi 16 - rasmda ko'rsatilgan. Bunda 1-havo reduktor ventili, 2-elektronnit ventil, 3-havo filtri, 4-yog' qo'shish sistemasi, 5-



7-rasm.

1

distillangan SUV, 6-suvni sovutish ventili, 7-havoni sovutish ventili, 8-SUV uchun drosselli ventil, 9-turbinali nakonechniklar ko'rsatilgan

17 - rasmda turbinali nakonechnikka xizmat ko'rsatuvchi asboblar — 1-borni

chiqarish, 2-buragich, 3-igna, 4-burab kiritish qopchasi, 5-tortish (gaykani) kaliti ko‘rsatilgan.

Ular nakonechnik komplektida bo‘ladi. Stomatologiya qurilmalarida uchraydigan asosiy nosozliklarni aniqlashda elektr va montaj sxemalaridan foydalaniladi. Bu sxemalarda qurilmaning turli nuqtalaridagi kuchlanish qiymatlari ko‘rsatilgan bo‘ladi. Ularni tekshirib sozlash uchun multimetrik va boshqa asboblar zarur bo‘ladi. Kreslo va kompressorlardagi asosiy parametrlar bosim va gidrosistemalarning germetikligini ta’minlanishi kerak. Shu sababli zarur moslamalar, kran prokladkalar tekshirib turiladi. Elektromotorlarning moylanuvchi qismlari moylanib, grafit shchyotkalari tekshirilib, tozalanib va almashtirilib turilishi lozim. Stomatologiya qurilmalari albatta yerga ulanib ishlatilishi zarur.

### **Takrorlash uchun savollar:**

1. Stomatologiyada qanday tibbiyot texnikalaridan foydalaniladi?
2. «Elektra 2000 G» stomatologiya qurilmasiga texnik xizmat ko‘rsatish qanday amalga oshiriladi?
3. «Elektra 2000 G» stomatologiya qurilmasining charxlovchi mikromotorli nakonechnigiga xizmat qanday ko‘rsatiladi?
4. YuS—5 markali stomatologiya qurilmasi qanday imkoniyatlarga ega?

## **6 - AMALIY MASHG‘ULOT** **Sterilizatsiya va dezinfeksiya qurilma hamda asboblari**

Sterilizatsiya va dezinfeksiya – kasallik keltirib chiqaradigan mikroorganizmlarni bartaraf qilish, muhitni zararsizlantirish, zarurat tug‘ilganda organizmni ikkilamchi infeksiyalardan himoya qilish usulidir.

Muhit va barcha predmetlar organizm to‘qimalariga tegishli yo‘l bilan ta’sir ko‘rsatadi, shuning uchun ular bakterial floralardan mumkin qadar toza bo‘lishi, kasallanish ehtimolligini kamaytiradi. Bu esa asosan xirurgik operatsiyalarda zarurdir. Barcha instrumentlar, materiallar, choyshablar, xirurg va uning assistentlari qo‘lqoplari sterillangan bo‘lishi shart.

Sterilizatsiya – barcha mikroorganizmlarni, hattoki sporalar orqali ko‘payadigan formalarini ham o‘ldirish (yo‘qotish) ni bildiruvchi tushunchadir.

Dezinfeksiya – zararsizlantirish, ya’ni kasalliklarni keltirib chiqaradigan patogenli mikroorganizmlarni yo‘q qilish, biroq shu bilan mikroorganizmlarning ba’zi shakllari to‘liq yo‘qolmaydi. Sterilizatsiyani turli usullar bilan (termik, kimyoviy va radiatsion) amalga oshirish mumkin. Radiatsion sterilizatsiya bir necha million elektron – volt (eV) energiyaga ega bo‘lgan gamma – nurlanish yordamida faqatgina sterilizatsiya qilingan upakovkali tibbiyot jihozlarini chiqaradigan zavodlarda tatbiq etiladi. Bu usulning afzalligi shundaki, tibbiyot mahsulotlari sterilizatsiya qilingan holda tayyor upakovkada bo‘ladi.

Davolash muassasalarida asosan sterilizatsiyaning termik usuli qo‘llaniladi. 100° C dan yuqori temperaturali sterilizatsiyaga bardosh bermaydigan mahsulotlar (termolabil materiallar) uchun kimyoviy sterilizatsiya usulidan foydalaniladi.

Ximiyaviy sterilizatsiya suyuq yoki gazsimon kimyoviy moddalar aralashmasi bilan amalga oshiriladi. Antiseptik suyuqlikka saqlanadigan sterilizatsiyasi ko‘pincha ko‘tsidagi tarkibdagi eritmalar bilan o‘tkaziladi:

1. uchbaravarlik eritma (karetnikova); fenol – 3 qism, formalin – 20, soda – 15, suv – 1000 qism.

2.  $50^{\circ}\text{C}$  gacha isitilgan vodorod peroksidining 6% li eritmasi. Fenolning odatdagি eritmasidan yoki mezoldan hamda  $70^{\circ}$  li etil spirtidan foydalanadilar.

Jihozlar dezinfeksiyasi uchun (sanitariyali ishlab chiqish) vodorod peroksidining 6% - li eritmasidan foydalaniladi.

Kimyoviy gazli sterilizatsiyada etilen oksidi bilan metil bromidi aralashmasi («OB» aralashma) dan foydalanish tavsiya etiladi.

Kasalxonalar sharoitida instrumentlar va bog‘lovchi materiallarni (yara bog‘laydigan) bug‘ sterilizatorlari (avtoklavlar) yoki havo sterilizatorlari yordamida termik usul bilan sterilizatsiya qilinadi. Bug‘ bilan sterilizatsiya qilish  $t = 120 \div 130^{\circ}\text{C}$  temperaturada,  $1,1 \div 2$  atm. bosim ostida, havo bilan sterilizatsiya qilish esa  $200^{\circ}\text{C}$  gacha issiq havo bilan o‘tkaziladi.

Bug‘ sterilizatorlari 2 tipda ishlab chiqariladi: V-tipda vertikal- VK-12; VKO-16; VK-30; VKO-50; VKU-50; VKO-75; VK-75; G-tipda gorizontal. Ular quyidagi cha markalanadi: GK-100; GK-280; GPD-280; GP-400; GPL-400; GP-560; GPD-560; GPS-560. Markalardagi raqamlar sterilizatsion kameralarning hajmi  $\text{dm}^3$  larda ifodalaydi. Harflar quyidagilarni belgilaydi: K - dumaloq, P - to‘g‘ri burchakli, O - olovli, U - olovli va elektrik. Uchinchi harfning yo‘qligi sterilizator elektrli ekanligini bildiradi. Gorizontalli sterilizatorlarda isitish faqat elektrli, shu uchun uchinchi harf (D-harfi) «ikki tomonlama» ni bildiradi; unda yuklatish bir tomonidan, yukni bo‘shatish qarama – qarshi tomonidan amalga oshiriladi.

Bug‘li sterilizatorlar – bu kamera bo‘lib, u qopqoq yordamida germetik yopiladi va unga bug‘ generatoridan bug‘ yuboriladi. Sterilizatorni bug‘ bilan ta‘minlash markaziyo qozonxonadan yoki sterilizatorning o‘zidagi bug‘ hosil qiluvchi maxsus moslama orqali bajariladi.

Sterilizatsiya qilinadigan materiallar va instrumentlar metall qutiga (bikslar) solinib, sterilizator kamerasiga joylashtiriladi.

Olovli – bug‘li sterilizatorlarda bug‘ hosil qilish uchun energiya manbai yoqilg‘i (dizel yoqilg‘isi yoki mazut) bo‘lib, uning yonishidan suv qaynab bug‘ hosil qilinadi. Bular dala sharoitida qulaydir.

Har bir bug‘li sterilizator 2 ta bosh blokdan iborat: bug‘ generatori va sterilizatsion kameralar. Bug‘ generatoriga uncha katta bo‘lmagan bug‘ qozoni mavjud. Elektrik bug‘ sterilizatorining qozonidagi suv trubkali elektr isitgich vositasida qaynatiladi. Sterilizator qozoni bosimni ko‘rsatuvchi manometr, qozonda bosim maksimumdan oshganda bug‘ chiqadigan himoya klapani, qozonni suv bilan to‘ldirishda suv sathini ko‘rsatuvchi shisha planka bilan ta‘minlangan. Kamera va qozon bug‘ chiqishini yopadigan ventili bo‘lgan bug‘ o‘tkazuvchi bilan bog‘langan.

Sterilizatsiya juda mas’uliyatli ish bo‘lib hisoblanadi va uni amalda bajarishda yaxshi tayyorlangan xodim tomonidan amalga oshirilishi kerak, ya‘ni tartibga rioya qilinmaganda nosterilli materialni olish mumkin, bu esa kasalga infeksiya yuqishiga

olib keladi, sterilizatorning ishlashiga e'tiborsiz qarash va nazorat qilmaslik portlash hodisasiga olib kelishi mumkin.

Havoli sterilizatorlar konstruksiyasi jihatidan quritish shkaflari va termostatlar kabi tayyorlangan. Haroratning nazorati kamera bo'shligiga joylashtirilgan termostat bo'yicha amalga oshiriladi. Ishchi temperaturasi  $t = 180^\circ \div 200^\circ \text{ C}$  gacha. Kameraning pastki qismida elektr isitgichlar montaj qilingan.

Yuqorida ko'rsatilganlardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, sterilizatsiya biologik, kimyoviy, farmasevtik va tibbiyot laboratoriya va klinikalarida o'ta mas'uliyatli ish bo'lib, barcha laboratoriyalarda foydalaniladigan materiallar, asbob – anjomlar sterilizatsiya qilinishi shart.

Hozirgi vaqtida zamonaviy tibbiyot texnikasi va yangi texnologik talablarga javob beradigan zamonaviy sterilizatorlar va sterilizatsion shkaflar Germaniya, Yaponiya, Rossiya va boshqa rivojlangan davlatlarning kompaniya va firmalari tomonidan turli seriyalarda ishlab chiqarilmoqda. Bularidan birnecha turlarini ko'rib chiqamiz.

**Seriya – 7000 (Function line Over).** Quruqqizdiruvchi shkaflarning 7000-seriyalari biologik, kimyoviy, farmasevtik va tibbiyot laboratoriyalari va klinikalarida keng tatbiq qilinadigan juda yaxshi unumdon shkaflardir (2.62-rasm). Ular UT6, UT12 va UT20, T6, T12 va T20 modellar bo'yicha ishlab chiqilgan bo'lib, kameralarining hajmi 60, 120 va 200 l ni tashkil etadi.

Modellardagi T- harfi tabiiy konveksiya, UT – majburiy konveksiya usullari bilan ishlashini bildiradi. Uning asosiy texnik xarakteristikasi quyidagilar bo'lib hisoblanadi: harorat mikroprotsessor yordamida tartibga solinadi.



18 - rasm. «Seriya - 7000» quruq qizdirish shkaflarining umumiyo ko'rinishi

Ishchi harorat  $50 \div 250^\circ \text{ C}$ . Sensorli panel orqali boshqariladi. Displeyi raqamli. Ishlatish uchun vaqtni belgilash taymeri 99 soat 59 daqiqagacha. Sterilizatsiya qilinadigan buyumlar uchun standart bo'yicha komplektlashgan ikkita xrom aralashmasidan tayyorlangan setkali tokcha. «R» (T6P, UT6P va h.k.) harfi bilan chiqarilgan modellarda temperatura va vaqtni o'rnatish uchun dasturlashtirilgan moslamasi mavjud.

**Seriya – 6000 (series Standart models).** Bu seriyali quruqqizdirish shkaflari issiqlikda ishlov beruvchi materiallar va namunalar hamda tibbiyot buyumlarini sterilizatsiya qilish laboratoriyalarida qo'llaniladi (2.63- rasm).



19 – rasm. «Seriya - 6000» quruqqizdirish shkaflarining umumiyo ko‘rinishi

Seriya – 6000 shkaflari quyidagi modellar bo‘yicha ishlab chiqariladi: T6030, T6060, T6120, T6200, T6420, T6720, ST6030, ST6060, ST6120, ST6200, ST6420, ST6720. UT6060, UT6120, UT6200, UT6420, UT6760. SUT6060, SUT6120,

SUT6200, SUT6420, SUT6760. TG`ST – modeli tabiiy konvektsiya, UTG`SUT – modeli majburiy konveksiya usulida ishlaydi. Kameralari hajmi 30 dan 750 l gacha.

**Quruq qizdiruvchi sterilizatorlar.** Dasturlashtirilgan quruqqizdiruvchi shkafdan iborat sterilizatorlarning yangi avlod Yaponiyada ishlab chiqilgan bo‘lib, u amaliyotda keng tatbiq qilinmoqda (20- rasm). Bunday sterilizatorlar ekspluatatsiya uchun qulay va xavfsizdir. Ular 2.7.1-jadvalda ko‘rsatilgan modellar bo‘yicha ishlab chiqarilmoqda. MOV – 112S, 112S sterilizatorlari jihozlarni doimiy temperaturada sterilizatsiya qilishni ta’minlaydi. Agar temperatura 5° C gacha pasayishga kelib qolsa (eshiklarni ochgan vaqtda) taymer qaytadan yuklanib qizdirish tsikli yangidan boshlanadi.

**Bug‘ sterilizatorlari.** MLS-2420U, MLS-3020U, MLS-3751L va MLS-3781L markali laboratoriya uchun bug‘ sterilizatorlari Yaponiyada ishlab chiqilgan (21 va 22- rasmlar) bo‘lib, undagi avtoklav vertikal joylashgan, qopqoqi yuqoriga ochiladi, havo kamerasidan gravitatsion usul bilan haydaladi.



20 - rasm. «MOV – 112» quruqqizdirish sterilizatorining umumiyo ko‘rinishi

2 - jadval

Nº	Sterilizator	Kamerasi	Qizdirish	Konvektsiyasi
----	--------------	----------	-----------	---------------

	<b>modeli</b>	<b>hajmi, (l)</b>	<b>temperaturasi, °S</b>	<b>turi</b>
1	MOV – 112	97	40 ÷ 250	Tabiiy
2	MOV – 112F	90	40 ÷ 200	Majburiy
3	MOV – 112S	90	40 ÷ 200	Majburiy
4	MOV – 212	157	40 ÷ 250	Tabiiy
5	MOV – 212F	150	40 ÷ 200	Majburiy
6	MOV – 212S	150	40 ÷ 200	Majburiy

Avtoklavlarni bevosita polga o‘rnatib foydalilaniladi. Sterilizatorlarning texnik xarakteristikasi 3 – jadvalda keltirilgan.



21 – rasm. MLS-2420U va MLS-3020U bug‘ sterilizatorining umumiy ko‘rinishi



22 – rasm. MLS-3751L va MLS-3781L bug‘ sterilizatorining umumiy ko‘rinish

3 – jadval

№	Ko‘rsatgichlari	Modellari	
		MLS-2420U	MLS-3020U
1	Kameralar hajmi	Ø240x450 mm (Hajm 20 l)	Ø300x670 mm (Hajm 48 l)
2	Temperatura diapazoni	105 ÷ 126 °C	S
3	Display	Raqamli	
4	Taymer	Raqamli 0 – 180 daq	
5	Kondensat uchun rezervuar	3 l (polipropilenli)	
6	Xavfsizlik moslamalari	Himoya klapani, suvsiz ishlashining himoyasi, qopqoq yopilishining nazorati, berkitish nazorati, o‘taqizishdan himoya, tokni chegaralovchi, termistor nazorati	
7	Qo‘sishma buyumlar	Vinilovli qopqoq, zanglamaydigan po‘latdan tayyorlangan korzina	
8	Tashqi andozasi	380x490x840 mm	440x550x1050 mm
9	Og‘irligi	47 kG	69 kG

Sterilizatorlarning texnik xarakteristikasi 4 – jadvalda keltirilgan.

GK – 25, GK-25-2, GK- 10, VK-30-01, VK-75-01, VK-30-2, VK-50-01, VP-01/75, GK-100, GK-100-4, GKD-100-4, GP-400-1 va h.k. bug‘ sterilizatorlari Rossiyada ishlab chiqilgan bo‘lib, tibbiyot amaliyotining barcha sohalarida keng qo’llanilmoqda.

4 – jadval

№	Ko‘rsatgichlari	Modellari	
		MLS-3751L	MLS-3781L
1	Kameralar hajmi	Ø370x415 mm (Hajm 50 l)	Ø370x640 mm (?ajm 75 l)
2	Sterilizatsiya temperaturasi diapazoni	105 ÷ 135 °C	S
3	Sterilizatsiya mahsulotlarining erish temperaturasi	60 ÷ 100 °C	S
4	Display	Raqamli	
5	Taymer	Raqamli 0 – 250 daq., 72 soatgacha	

6	Kondensat rezervuar	uchun	4 l (polipropilenli)
7	Xavfsizlik moslamalari	Himoya klapani, suvsiz ishlashining himoyasi, qopqoq yopilishining nazorati, berkitish nazorati, o‘ta qizishdan himoya, tokni chegaralovchi, termistor nazorati	
8	Tashqi andozasi	600x560x754 mm	600x560x979 mm
9	Oo‘irligi	63 kG	74 kG

GK – 25 aylana shaklidagi gorizontal joylashgan kamerali bug‘ sterilizatori stolga o‘rnatib foydalanishga mo‘ljallangan. U tibbiyotda foydalaniladigan metall, shisha, rezina va boshqa materiallardan tayyorlangan barcha mahsulotlarni sterilizatsiya qilish uchun ishlab chiqarilgan bo‘lib, kamerasining hajmi 25 l, kamerasidan havoni haydash kombinatsion usulda bajariladi.

GK-25-2 aylana shaklidagi gorizontal joylashgan kamerali ekspress bug‘ sterilizatori (2.68 - rasm) stolga o‘rnatib foydalanishga mo‘ljallangan bo‘lib, u metall va shishadan tayyorlangan barcha tibbiyotda foydalaniladigan mahsulotlarni to‘yingan suv bug‘i yordamida bosim ostida sterilizatsiya qiladi.



23 - rasm. GK-25 aylana gorizontal kamerali bug‘ sterilizatorining umumiy ko‘rinishi

Uning bir ish siklida 1 l toza suv foydalaniladi. Sterilizatorning texnik xarakteristikasi 5 - jadvalda keltirilgan. Tibbiyot muassasalarining stomatologiya va kosmetologiya bo‘limlarida foydalaniladi.

VK-30-01 va VK-75-01 aylana shaklidagi vertikal joylashgan kamerali bug‘ sterilizatori polga o‘rnatib foydalanishga mo‘ljallangan bo‘lib, u tibbiyot amaliyotida foydalaniladigan materiallar, instrumentlar va narsalarni to‘yingan suv bug‘i yordamida bosim ostida sterilizatsiya qiladi. Sterilizatorni vodoprovod va kanalizatsiyasi bo‘lmagan joylarda ham ishlatish mumkin. Suv bug‘ generatoriga maxsus moslamalar yordamida solinadi.

#### **Takrorlash uchun savollar:**

1. Bug‘ sterilizatorining ishlash prinsipi nimalardan iborat?
2. Quruq havo bilan sterilizatsiyalash usuli haqida nimalarni bilasiz?

3. Olovli – bug‘li sterilizatorlarda sterilizatsiya qilish bosqichlari qanday amalga oshiriladi?

## 7 - AMALIY MASHG‘ULOT

### Biologik tadqiqot va tashxis mikroskoplari


**Ishning maqsadi:** Optik mikroskopning tuzilishi va ishlash printsipini o‘rganish, mikroskopiyaning maxsus usullari, mikroskopning kattalashtirish koeffitsiyentini hamda uning yordamida eritrotsitlar o‘lchamini aniqlash.

**Kerakli asboblar:** Biolam tipidagi biologik mikroskop.  
GORYaEV kamerasi, gistologik preparat: quyon qoni eritrotsitlari.

Mikroskop - tibbiyot va biologik izlanishlarning muhim laboratoriya pribori bo‘lib, ko‘z bilan bevosita ajratib bo‘lmaydigan kichik obektlarni kuzatish va o‘rganishda qo‘llaniladi. Mikroskopda predmetning tasvirini xosil qilish sxemasi 24 - rasmda kursatilgan.

Mikroskopning optik sxemasi obyektiv va okulyar linzalar to‘plamidan iborat (25 - rasm). Tasvirning hosil bo‘lish jarayonini soddarroq tushunish maqsadida 24 - rasmda obyektivning linzalar sistemasi birta yig‘uvchi  $L_1$  linza bilan va okulyardagi linzalar sistemasi esa  $L_2$  linza bilan almashtirib ko‘rsatilgan.

AB predmet obyektiv qarshisida va uning fokusidan bir oz uzoqroqda joylashdiriladi. Obyektiv, ko‘z orqali qaraladigan okulyarning oldingi fokusi yaqinida predmetning haqiqiy AB kattalashtirilgan tasvirini paydo qilib beradi. A'B' tasvir o‘zaro uch holatda joylashishi mumkin :



24– rasm. Optik mikroskopda predmetning tasvirini hosil qilish sxemasi

1. A'B' tasvir okulyarning oldingi fokusi bo‘lgan F<sub>2</sub> dan bir oz yaqinroqda joylashgan bo‘lishi mumkin. Bu holda okulyar ko‘rish masofasi eng yaxshi bo‘lgan joyda kattalashtirilgan mavhum A''B'' tasvirning proyeksiyasini paydo qiladi (24-rasm).

2. A'B' tasvir okulyarning fokal tekisligida yotgan bo‘lishi mumkin. Bu holda okulyar hosil qilgan tasvir cheksizlikka proyeksiyanadi va kuzatuvchining ko‘zi akkomodatsiyasiz ko‘ra oladi.

3. A'B' tasvir okulyarning oldingi fokusidan uzoqroqda joylashganda okulyar yaratadigan tasvir haqiqiy va kattalashtirilgan bo‘ladi. Okulyarning bunday joylashishi

mikro proyeksiyalashda va mikrofotografiyada qo'llaniladi.

Mikroskopning  $G$  kattalashtirishi miqdoran obyektivning chizmali kattalashtirishi  $G_{ob}$  bilan okulyarning burchak kattalashtirishi  $G_{ok}$  ning ko'paytmasiga teng. Obyektivning chiziqli kattalashtirilishi quyidagi formuladan aniqlanadi.

Mikroskopning kattalashtirishi quyidagiga teng:

$$G = \frac{\Delta \cdot S}{\frac{F_1 F_2}{F_1 + F_2}} = \frac{\Delta S}{F_1 F_2}$$

Bundan faraz qilish mumkinki,  $F_1, F_2$  ba  $\Delta$  - kattaliklarni mos tanlab olish bilan etaricha yuqori kattalashtirib beruvchi mikroskop yasash ham mumkin. Lekin amalda kattalashtirishi 1500-2000 dan yuqori bo'lgan mikroskoplar qo'llanilmaydi, chunki mikroskopning kichik obyekt detalarini ajrata olish qobiliyati cheklangan. Bu cheklanish ko'rيلayotgan obyektning strukturasida hosil bo'ladigan yorug'lik difraksiyasi tasiri bilan izohlanadi. Shu bilan bog'liq ravishda mikroskopning ajratish chegarasi va ajratish (ruxsat etish) qobiliyati tushunchalari kiritiladi. Ajratish chegarasi deb obyektning ikkita eng yaqin nuqtalarini orasidagi masofaga aytildi, qachonki bu nuqtalar o'zaro farqlansin, yana ular mikroskopda bir biriga qo'shilib ketmasdan aks etsin.

Mikroskopning kichik obyekt detallarining alohida tasvirlarini ko'rsata olishiga uning **ajrata olish qobiliyati** deyiladi.

Ajrata olish qobiliyati ajratish chegarasiga teskari kattalikdir. Nazariy jihatdan mikroskopning ajratish chegarasi quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$Z = \lambda / (2n \sin U)$$

$\lambda$  - predmetni yorituvchi yorug'lik to'lqin uzunligi;  $n$  - obyektiv va predmet orasidagi muhitning sindirish ko'rsatkichi;  $U$  - obyektivning apertura burchagi bo'lib, u obyektivga konus burchak shaklida tushuvchi yorug'lik dastasining chetki nurlari orasidagi burchakning yarmiga teng.

$A = n \sin U$  kattalikka sonli apertura deyiladi, unda

$$Z = \lambda / (2A)$$

Bu formula predmetni uchrashadigan nurlar dastasi bilan yoritilganda o'rinli. Mikroskopning ajrata olish chegarasini va ko'zning ajrata olish chegarasini hisobga olgan holda, mikroskopning foydali kattalashtirishi tushunchasini kiritamiz. Foydali kattalashtirish deb, mikroskopning shunday kattalashtirishiga aytildiki, bunda u hosil qilgan predmet tasvirining o'lchami mikroskopning  $Z$  ajrata olishiga teng va shu tasvirning  $Z'$  o'lchami vosita yordamisiz ko'zning eng yaxshi ko'rish masofasidagi ajratish chegarasi  $Z_k$  ga teng.

$$G = Z_k / Z$$

Eng yaxshi ko‘rish masofasida normal ko‘z predmetning burchak masofasi l' dan kichik bo‘lmagan ikki nuqtasini farqlaydi. l' burchak masofa bu nuqtalar orasidagi masofa 70 mkm ga mos keladi. Bu holda mikroskopning foydali kattalashtirishi minimal bo‘ladi.

$$G_{\min} = 70 / Z$$

Eng yaxshi ko‘rish masofasida qaraladigan predmetlarning o‘lchami ko‘zning ajrata bilish chegarasidan 2 - 4 marta katta bo‘lsa, ko‘z eng kam toliqadi. Shuning uchun odatda foydali kattalashtirishi  $2G_{\min} - 4G_{\min}$  atrofida bo‘lgan mikroskoplar ishlataladi. Agar formulaga, unda

$$G = 2Z_k A / \square$$


Obyektni oq yorug‘lik bilan eritilgandagi to‘lqin uzunligi deb  $\lambda = 0,555$  mkm hisoblanadi, chunki bunday nurga ko‘z nihoyatda sezgir bo‘ladi. Shunday qilib mikroskopning foydali kattalashtirishi, odatda  $500 \text{ \AA} < G < 1000 \text{ \AA}$  intervalda bo‘ladi.

Tibbiy va biologik izlanishlarda mikroskop ko‘pincha kichik obyektlarning o‘lchamlarini o‘lchashda ishlataladi. Mikroskop maxsus okulyar mikrometri bilan ta’minlangan bo‘ladi. O‘z navbatida unga qo‘ndirma deyiladi va mikroskopning okulyar o‘rnidagi tubusning yuqori uchiga kiygizilgan bo‘ladi. Mikrometrning optik qismi okulyar - linzalar va qo‘zgalmas o‘rnatilgan shisha (plyonka) shkaladan tuzilgan. Okulyar mikrometri tubusga shunday o‘rnatiladiki, undagi shkala obyektiv hosil qiluvchi haqiqiy tasvir yotgan tekislikda joylashsin. Bunda okulyardan qaraganda shkalaning tasviri predmetning haqiqiy tasviri bilan ustma - ust tushadi. Bunda tasvirga mos keluvchi shkala bo‘limlarini aniqlashimiz mumkin. Predmetning o‘lchamlarini aniqlash uchun okulyar mikrometrining taqsimot bahosini bilish zarur. Taqsimot bahosi sifatida mikroskopda ko‘rilayotgan kesmaning mm lardagi uzunligi tushuniladi.

Mikrometrning bahosini aniqlashda o‘lchamlari ma'lum bo‘lgan ixtiyoriy predmetdan foydalanish mumkin. Bu maqsadda tibbiyotda Goryaevning hisob kamerasidan foydalaniлади. Goryaev kamerasi shisha plastinka bo‘lib, uning ustiga setka o‘yib chizilgan bo‘ladi va setka ish maydonini tomonlari ma'lum bo‘lgan kvadratlarga ajratadi.

Mikroskopning optik sxemasi 24 - rasmda keltirilgan, u asosan 2 qismdan iborat:

1. Yoritish sistemasi.
2. Kuzatish sistemasi.



25– rasm. Mikroskopning optik sxemasi

Yoritish sistemasi o‘z ichiga quyidagilarni oladi: ko‘zgu 1 yoki yoritgich 15 va apertura irisli diafragmali 3 kondensor 4 (KON-3), irg‘itma linza 2 va yechiluvchi yorug‘lik filtri yoki to‘g‘ri va qiya erituvchi kondensor OI-14 . Kuzatish sistemasi: obyektiv 5, prizmalar 2 va monokulyar joylashgichli okulyar 10 yoki linzalar 9, prizmalar 8, prizma bloki 7 va binokulyar joylashgichli okulyar 6.

Tashqi yorug‘lik manbaidan nurlar dastasi ko‘zgu 1 ga tushadi. U esa nurlarni aperturali diafragma 3 ga aks ettiradi. Nurlar kondensor 4 dan o‘tadi va tekshiriluvchi preparat orqali ob‘ektiv 5 ga tushadi. Yoritgich 15 ning qo‘llanishi ob‘ektning yoritilishini ta‘minlaydi. Kuzatish normal yoritish printsipi bo‘yicha bo‘ladi.

Yoritgich 15 ning ishlashida yorug‘lik manbai 12 dan chiqqan nur kollektor 13 yordamida apertura diafragmasi 3 tekisligiga proeksiyalanadi. Obyektiv preparat tasvirini okulyarning maydonli diafragmasiga yoki okulyar 10 ga beradi. Ular preparatning kattalashtirilgan tasvirini ko‘rishga xizmat qiladi.

Prizma 11 yoki 8 nurlar dastasini vertikaldan  $45^{\circ}$  ga buradi, shunda mikroskop bilan ishlashda qulaylik tug‘iladi. Prizmali blok 7 dastani ajratib preparatni biokulyar kuzatishni ta‘minlaydi.

#### **Takrorlash uchun savollar:**

1. Mikroskopning tibbiyatda qo‘llanilishini tushuntiring
2. Mikroskopning kattalashtirish formulasini keltirib chiqaring
3. "BIOLAM" mikroskopining optik sxemasini tushuntiring
4. Mikroskopning ajrata olish qobiliyati va ajratish chegarasini tushuntiring.

#### **8 - AMALIY MASHG‘ULOT**

#### **Qulq, tomoq va burun kasalliklarini tashxis qilishda foydalaniladigan qurilma va uskunalar**

**Ishning maqsadi:** «Lor-3» - apparatining tuzilishi va ishslash prinsipi bilan tanishish hamda tibbiyat amaliyotida qo‘llanilishini o‘rganish.

**Kerakli jihozlar:** «Lor-3» - apparati komplekti, YuCh tebranish generatori - 1 dona, XT,G - ultratovush nurlatgichi, R- ultratovush nurlatgichi 1 komplekt, yerga ulash o‘tkazgichi simi 1 dona, VP- 1-1A- predoxraniteli 1 dona.

Apparatning tavsifi va texnik xarakteristikasi «Lor-3» - apparati surunkali tonzillit, gaymorit va rinit kasalliklarini davolashga muljallangan.

Apparat hosil qiladigon ultratovush (UT) tebranishlarining nurlanish intensivligi -0,2; 0,4; 0,6 va 0,8  $Vt/sm^2$ . Ishchi chastotasi  $880 \pm 8,8$  KGs. XT, G - nurlatgichlarning nurlatuvchi sirt yuzasi - 2 sm<sup>2</sup>. Har bir R - nurlatgichlarning nurlatuvchi sirt yuzasi 0,4 sm<sup>2</sup>. Qurilma ish rejimi - qisqa vaqtli takroriy va impulsli. Ekspozitsiya (avtomatik ta‘minlanadi) ...  $6 \pm 1$  min. Pauza (operator orqali boshqariladi) kamida 30 sek..

Impulslar ketma-ketlik chastotasi -50 Gts. Impulslar davomiyligi - 10 ms. 50 Gts chastotali manba kuchlanish -  $220 \pm 22$  V. Annaparning normal ishslash sharoiti:


harorati +10 dan +35° C gacha, nisbiy namlig - 80%. Gabarit o‘lchamlari -320 x 208 x 104 mm . Apparat massasi kamida - 5 kg

### **Apparatning tuzilishi va ishlash printsipi**


Apparatning ishlashi- doimiy ток energiyasining YuCh- elektromagnit tebranishlarga aylantirish, uni ham o‘z navbatida pyezoelement yordamida UT tebranishlarga aylantirib berishga asoslangan.

Lor - 3 apparatining strukturaviy elektrik sxemasi 28 - rasmda va umumiy ko‘rinishi 27 - rasmda hamda prinsipial elektrik sxemasi keltirilgan.

YuCh tebranishlar generatori o‘zaro elektron aloqasi bo‘lgan ikki konturli sxema bo‘yicha GU-17 tipdagi nur tetrodida yig‘ilgan. C10 kondensatori, Tp3 transformatori va pyezokeramikli nurlatgich tashqi kontur elementlari hamda C5 kondensatori va Tp2 transformatori ichki kontur elementlari bo‘lib hisoblanadi.



26 - Rasm. «Lor- 3» apparatinig elektrik strukturaviy sxemasi



27 - rasm. «Lor - 3» ultra tovushli fizioterapevtik apparatning umumiy ko‘rinishi: 1 - qulqoq, burun, tomoqqa tashqaridan UT bilan ta’sir etuvchi nurlantirgich, 2 - burun ichi nurlantirgichlari

Tp2 transformatori induktivligini va C5 kondensator sig‘imini o‘zgartirish yo‘li bilan generator chastotasini zaruriy diapazonda almashtirishga erishiladi. Generator uzlusiz yoki impulsli rejimlardan birida ishlashi mumkin. IMP (impulsli rejim) tugmachasini bosish bilan apparatning ishslash rejimi o‘zgartiriladi. Anod - impulsli modulyatsiya

sxemasi impulsli rejimni ta'minlaydi. Buning uchun L<sub>6</sub> anod lampasiga chastotasi 50 G s bo‘lgan impulsli kuchlanish beriladi.

Tarmoq kuchlanishi, temperatura va boshqa faktorlarning o‘zgarishiga bog‘liq bo‘lgan chiqish kuchlanishini turg‘unligini ta'minlash uchun Й6 lampasining ekranli to‘ri va generatorning chiqishi teskari manfiy bog‘lanish bilan egallanadi.

Buning uchun tashqi konturdagi kuchlanishning u yoki bu tomonga berilgan sath (chevara)dan og‘ishi L<sub>6</sub> lampasining ekranli to‘ri kuchlanishini teskari yo‘nalishga o‘zgarishiga olib keladi, shuningdek tashqi konturning kuchlanishining berilgan miqdorgacha o‘zgartiradi. 0,4; 0,6; 0,8 tugmachalar yordamida chiqish quvvati keskin rostlanadi. XG, G va P nurlantirgichlari uchun P<sub>3</sub> platasida o‘rnatilgan R<sub>1,R2,R3,R4,R5,R6,R7, R8,R9,R10</sub> rezistorlari yordamida chiqish quvvati har bir kerakli diapazonda silliq rostlanadi (13.3 - rasm).

Vaqt relesi T<sub>1, T2, T3</sub> va T<sub>4</sub>, tranzistorlarida yig‘ilgan. Mikrotok stabilizatori T<sub>1</sub> maydon tranzistorida yig‘ilgan. Rezistor o‘rnida T<sub>1</sub> stabilizatorining qo‘llanilishi C<sub>4</sub> kondensatori sig‘imini kamaytirish, vaqt relesining stabil ishlashini oshirishga imkon beradi. Boshlanishda T<sub>3</sub> emitteri ta'minlash manbaidan ajratilgan va T<sub>3</sub> tranzistori yopiq bo‘ladi.

Tarmoq manbai kuchlanishiga yaqin bo‘lgan kuchlanishgacha C<sub>4</sub> kondensatori R<sub>8, R9</sub> rezistorlari orqali zaryadlanadi (R<sub>8</sub> rezistoriga kichik kuchlanish tushishi va T<sub>1</sub> tranzistori orqali juda kichik tok o‘tadi). Vaqt relesi EKSP tugmachasini bosish bilan ishga tushiriladi. Bu holda quyidagi lar ishlaydi: EKSP tugmachasini P<sub>1</sub> relesi ajratadi va L<sub>2</sub> elektrik lampasida kuchlanish tushadi, P<sub>2</sub> relesi R<sub>17</sub> ni qisqa tutashtiradi va Й6 lampasining ekranlovchi turiga kuchlanish tushadi, YuCh - generator ishga tushadi va P<sub>2</sub> relesi emitter T<sub>3</sub> ni apparat korpusiga qisqa tutashtiradi. Natijada emitter T<sub>3</sub> ochiladi va C<sub>4</sub> kondensatori R<sub>9, T1, R2, R3, R4</sub> lar orqali razryadlana boshlaydi.

Qachonki T<sub>2</sub> tranzistori zatvorida kuchlanish, keskin uzilish kuchlanishiga teng bo‘lsa, u holda T<sub>2</sub> ochiladi va u T<sub>3</sub> ning ochlishiga olib keladi. Emitter va kollektor T<sub>3, P1</sub> relesi kontakti va D<sub>3</sub> diodi orqali R<sub>10</sub> va R<sub>11</sub> taqsimlagichlariga parallel ulangan. Tranzistor T<sub>3</sub> ochilishi bilan R<sub>4</sub> ni shuntlaydi, kuchlanish T<sub>4</sub> ning kirishida kamayadi, T<sub>4</sub> tranzistori orqali o‘tadigan tok pasayadi, P<sub>1</sub> relesi ajratiladi, P<sub>2</sub> va P<sub>3</sub> relesi tok zanjirini uzadi.

Vaqt relesi boshlang‘ich holatiga keladi. Vaqt relesi ekspozitsiyasi C<sub>4, R2, R3, R4</sub>, va R<sub>9</sub> kattaliklariga bog‘liq bo‘ladi. D<sub>2</sub> diodi T<sub>4</sub> emitter - bazasini P<sub>1, P2</sub> va P<sub>3</sub> o‘ramlari orqali beriladigan 30 V li doimiy kuchlanishdan himoya qiladi. D<sub>4</sub> diodi ekstratoklardan P<sub>1</sub> o‘ramlarini shuntlaydi.

YuCh - tebranish generatori P ning ikkita nurlantirgichlarini (rinit bilan kasallangan bemorni davolash uchun) yoki XT, G nurlantirgichini (surunkali tonzillit va gaymorit bilan kasallangan bemorlarni davolash uchun) YuCh - kuchlanish bilan ta'minlaydi. SH2 razyomi yordamida P yoki XT, G nurlantirgichlari navbatma - navbat

generator chiqishiga qo'shiladi.

Chastotaning 0,15 - 400 MG s diapazonida generatorning radio qabul qiluvchi shovqinlarini bartaraf qilish uchun ta'minlash o'tkazgichlarning har birida G - simon filtrlar o'rnatilgan.

Tp1 kuch transformatori orqali apparat 220 V li o'zgaruvchan tok tarmog'idan ta'minlanadi. So'nggi imkoniyatda zarurat tug'ilib qolganda apparat 127 V li kuchlanish tarmog'iga ulanishi mumkin. 30 va 300 V li kuchlanish to'g'rilaqichidan generator ta'minlaydi. E1 kremniyli to'g'rilaqich blokida 300 V li kuchlanish to'g'rilaqichi yig'ilgan (KSt 405 J). 180 V li stabillashtirilgan doimiy kuchlanishdan JI6 ning ekranli to'ri va chiqish kuchlanishi stabilizatori zanjiri ta'minlanadi. E<sub>2</sub> kremniyli to'g'rilaqich blokida 30 V li kuchlanish to'g'rilaqichi yig'ilgan (KTs 405 J). 15 V li stabillashtirilgan doimiy kuchlanishda vaqt relesi ta'minlanadi (D 815 E).

Elektromagnit tebranishlarini UT - tebranishlariga aylantirish uchun UT - nurlatgichi xizmat qiladi. UT - tebranishlarini olishda pezoeffekt hodisasidan foydalaniadi.

**Apparat konstruksiyasi.** Generator konstruktiv jihatdan P-simon qo'yma alyuminiy ramaga o'rnatilgan bo'lib, alohida olib yuriladigan pribor ko'rinishida tayyorlangan, uning asosiga burchakli temir (ugolnik) mahkamlangan. Ramaning pastidan P1 tamg'ali platani tashkil etuvchi elementlari, tranzistorlar va elektron lampalar o'rnatilgan. P1 - plataning o'ng tomonida vertikal tarzda P3 platasi mahkamlangan bo'lib, unga chiqish quvvatini sekin moslovchi rezistor o'rnatilgan.

#### **Takrorlash uchun savollar:**

1. «Lor – 3» apparatining tavsifi va texnik xarakteristikasini tushintiring.
2. Qurilmaning tuzilishi, konstruksiyasi va ishslash principini izohlab bering.
3. Davolash uslubi va bemorni UT- terapeyaga tayyorlashni tushuntiring.
4. Qurilmani tayyorlash va UT-terapiya kursini utkazishni izohlab bering.

### **9 - AMALIY MASHG'ULOT Endoskopning tuzilishi va ishslash prinsipi**

Kasalliklarni tashxis qilish: rentgenologik, ultratovushli, tomografik usullari turli xil bo'lishiga qaramay, ularning ichida endoskopiya eng dolzarb bo'lib hisoblanadi, chunki u ishonchhlilik darajasi bilan patologiyani shahodatlash imkonini beradi.

Endoskopik uskunalar inson tanasining ichki bo'shliqlari va a'zolarini ko'rikdan o'tkazish uchun mo'ljallangan. Ular tabiiy kanallar orqali yoki jarrohlik yo'li bilan kiritiladi, bunda endoskopiyaning eng muhim - tekshiruvni o'tkazish vaqtida a'zolarni imkonli boricha shikastlamaslik tamoyili hisobga olinadi. Endoskopiyanı o'tkazish uchun biologik to'qimalar butligini buzish (invaziv endoskopiya) kerak bo'lgan hollarda, xususan, o'rta qulq pardasini perforatsiya qilish (timpanoskopiya) asosida ko'rikdan o'tkazishda va boshqalarda ushbu tamoyil alohida ahamiyat kasb etadi. Bunda aseptika va antiseptikaga rioya etish, infiltratsion anesteziya qilish, ko'rib

chiqiladigan bo'shliqqa yaqinlashishni ta'minlash uchun troakarlar va boshqa maxsus asboblarning bo'lishi talab etiladi.

Endoskopik uskunalar tibbiyotning turli sohalarida tobora ko'proq qo'llanilmoqda. Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, ilm-fan, texnika, texnologiyalar va ashyolar borasidagi eng yangi yutuqlardan foydalanish hisobiga endoskopik texnikaning yaratilishida sezilarli sifat o'zgarishlari yuz bermoqda.

Hozirgi vaqtida turli ishlab chiqaruvchilar tomonidan bir necha yuz nomlanishlardagi endoskoplar ishlab chiqarilmoqda. Eng qiziqarli namunalarning texnologik darajasining tahlilini priborlarning asosiy guruhlari bo'yicha o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

Endoskopik tekshiruvlarni o'tkazish jarayonida jarohatlanishlarni kamaytirish yo'llaridan biri bu – endoskopning tanaga kiritiladigan ishchi qismi diametrini kamaytirishdan iborat.

Endoskoplar ko'rikdan o'tkazish, biopsiya va operatsion endoskoplarga bo'linadi.

Ko'rikdan o'tkazish endoskoplari tananing ichki bo'shliqlari va a'zolarini ko'rikdan o'tkazish uchun; biopsiya endoskoplar – vizual nazorat ostida keyingi gistologik tahlilni o'tkazish uchun ma'lum joydagи to'qimadan namuna olish uchun; operatsion endoskoplar - vizual nazorat ostida tashxis, davolash va jarrohlik muolajalarini o'tkazish uchun xizmat qiladi.

Ishchi qismining holatiga qarab endoskoplar qattiq va egiluvchan bo'ladi. Egiluvchan endoskoplarda ishchi qismi ma'lum doirada ohista egilishi mumkin. Ko'pgina endoskoplar qattiq, chunki ularni ishlab chiqarilishi soddarоq va nisbatan arzondir.

**Qattiq endoskoplar.** Qattiq endoskoplar funksional jihatdan traxeya (bronxoskopiya), qovuq (sistoskopiya), to'g'ri ichak (rektoskopiya), uretra (uretrioskopiya), qorin bo'shlig'i (laparoskopiya), bachardon bo'shlig'i (gisteroskopiya) va tananing boshqa a'zolarini ko'rikdan o'tkazish va ularda boshqa muolajalarni amalga oshirish uchun xizmat qiladi.

Endoskoplar to'plamlar turlarining xilma-xilligi hamda optik tizimlari va asboblarning juda yuqori sifati bilan farqlanadi. Urologiya, ginekologiya uchun ko'rish burchagi  $70\text{--}90^\circ$  ni tashkil etuvchi va «yassi» maydonga ega bo'lgan keng burchakli optik tizimlar, bolalar urologiyasi, otorinolaringologiya va artroskopiya uchun esa – tashqi diametri 1,9 mm bo'lgan optik naylar taqdim etiladi. Laparoskoplar va aminoskoplar akusherlik va ginekologiyada; ezofagoskoplar, rektoskoplar - gastroenterologiyada, laringoskoplar - otorinolaringologiyada, amnioskoplar – akusherlikda qo'llaniladi (4-jadval).

Bu toifadagi uskunalarning rivojlanishida quyidagi asosiy tendensiyalarni: unifikatsiyalashgan o'zaro bir-birining o'rnini bosuvchi tarkibiy qismlar bo'lgan uskunalar to'plamining yaratilishi, to'plamlar tarkibining kengaytirilishi, optik tizimlar sifatining oshirilishi, kombinatsiyalashgan asboblar va maxsus to'plamlardan foydalanilgan holda asboblar nomenklaturasining kengaytirilishini kuzatish mumkin.

Bronxoezofagoskop va uretro-skop eng sodda qattiq endoskoplar bo'lib hisoblanadi. Bronxoezofagoskop chuqur nafas yo'llarini va oshqozonni tekshirish, dori moddalarini kiritish va ayrim jarrohlik muolajalarini o'tkazish uchun mo'ljallangan.

Ikki asosiy qism – yoritish qurilmasi va tubuslar to‘plamidan tarkib topadi. To‘plamga turli uzunlikdagi naylar, ikki xil o‘lchamli shpatellar, uchliklar to‘plamiga ega bo‘lgan qisqichlar, bez shirasini so‘rib olish naychasi, paxta ushlagich kiradi. To‘plam yog‘och g‘ilofga joylashtiriladi.

### Ayrim turdag'i qattik endoskoplarning tasniflari

<b>t/r</b>	<b>Nomi (turi, rusumi), firma (mamlakat)</b>	<b>Maqsadi, qo‘llanish sohasi</b>	<b>Asosiy texnik tavsiflari, tarkibi</b>
	Sistouretro-skop (27015 yoki 27005 naylar, stvollar 27025). «K.Storz» (Germaniya).	Urologiya, uretra va qovuqni ko‘rikdan o‘tkazish va davolash	Naylar diametri - 4 mm, kuzatish burchaklari - 0°, 30°, 70° 120°, stvollar 17;19;20;22;25 Sh, asboblar to‘plami
	Gisteroskop (trubkalar 27020, stvo-llar 26161), «K.Storz» (Germaniya)	Ginekologiya, bachadon bo‘shlig‘ini ko‘rikdan o‘tkazish, davolash muolajalari	Naylar diametri - 3 mm, kuzatish burchagi - 30°, stvol - 3,7x5mm, asboblar to‘plami 5 Sh.
	Rezektoskop uzluksiz irriga-siyali(trubka 8650.431, ishchi elementi 8661.203), «K.Storz» (Germaniya).	Urologiya, uretra va qovuq bo‘shlig‘ida jarrohlik muolajalarini o‘tkazish	Naylar diametri - 4 mm, kuzatish burchagi - 5°, stvol 27 Sh., elektrodlar to‘plami
	Sinoskop (trub-kalar 27018 va 7200), «K.Storz» (Germaniya).	Burun va tomoq bo‘shliqlarini tashxis qilish va ularda davolash muolajalarini o‘tkazish.	Naylar diametri - 2,7 va 4 mm, kuzatish burchaklari - 0°, 30°,70° asboblar to‘plami.

Bronxoskoplar mahalliy anesteziya va umumiy narkoz ostida mushak relaksantlarini qo‘llagan holda tashxis, davolash bronxoskopiya o‘tkazishga mo‘ljallangan.

Bronxoezofagoskoplarning yoki nafas olish bronxoskopining bronxoskopik naylari orqali traxeya va bronxlarni sinchiklab ko‘rikdan o‘tkazish uchun TOB-VS tolali svetovodga ega bronxoskoplar uchun optik naylar yaratilgan va ishlab chiqarilmoqda.

**Lupali endoskoplar.** Kombinasiyalashgan uretrioskop erkaklar va ayollar uretrasini ko‘rikdan o‘tkazish hamda unda davolash muolajalarini bajarish uchun mo‘ljallangan. U dastakka kiritiladigan nay tubusdan iborat. Dastakning boshqa tomoniga lupa joylashtirilgan. Dastak tok o‘tkazgich bo‘lib xizmat qiladi hamda tubusga kiradigan uzaytirgichning uchiga o‘rnatalgan 2,5 V kuchlanishli yoritgich o‘chirgichiga ega. Uretraga og‘riqsiz kiritilishi uchun har bir tubus obturator bilan ta‘minlangan. Uretroskop g‘ilof bilan yetkazib beriladi. Og‘irligi g‘ilosiz - 0,2 kg va g‘ilofi bilan - 1,3 kg.

Rektoskoplar orqa ichak, to‘g‘ri ichak va sigmasimon ichakning shilliq pardasini ko‘rikdan o‘tkazishga hamda to‘g‘ri ichakda muolajalarini amalga oshirish uchun maxsus asboblarni rektoskop yordamida kiritishga mo‘ljallangan.

Hozirgi vaqtida oddiy rektoskoplar va tolali svetovodga ega rektoskoplar chiqarilmoqda.

**Optik endoskoplar**. Optik endoskoplar – shu guruhdagi uskunalarini keyingi takomillashtirilishining natijasidir. Optik endoskoplarda yoritgich nayining distal uchida joylashtirilgan, tasvir esa optik tizim orqali optik nayning okulyariga uzatiladi. Shunday qilib – yoritish obyektga yaqinlashtiriladi. Kichik o'lchamli optik nay (juda ingichka endoskoplar uchun nayning diametri - 1,2 mm.ga yaqin) endoskopni ingichka yo'llar, masalan uretra orqali qovuqqa (sistoskop) yoki boshqa teshiklar orqali (torakoskop, laparoskop) o'tkazish imkonini beradi.

Gradiyent optik elementlar – gradanlar asosida yaratilgan endoskoplar alohida qiziqish uyg'otadi. Ular shishaning hajmi bo'yicha nur o'tkazish ko'rsatkichining bir tekisda taqsimlanmasligi bilan tavsiflanadi. Gradiyentli optika tasvirni uzatuvchi optik tizimlardan foydalaniladi. Bunda gradanlarning optik tavsiflariga qo'yiladigan talablar boshqalarga nisbatan ancha yuqori.

Gradiyentli elementlarning asosiy ustuvorligi shundan iboratki, endoskopning optik tizimini tashkil etuvchi bir necha o'nta mikrolinzalarni atigi ikkita gradan bilan almashtirish mumkin.

1mm diametrli gradiyentli elementlar asosida «Olympus» (Yaponiya) firmasi ishchi qismi 1,7 va 2,7 mm diametrga hamda ishchi qismining uzunligi 110 va 170 mm bo'lgan qattiq endoskoplar (miniboroskoplar) ishlab chiqarmoqda. Ushbu endoskoplar yoritgich jgutini oshirish hisobiga erishiladigan ishchi maydonining yuqori yoritilganligi bilan tavsiflanadi.

**Egiluvchan endoskoplar**. Gastroenterologiya uchun katta nomenklaturada taqdim etilgan endoskoplar: turli o'lcham va maqsadlardagi gastroduodenoskoplar va kolonoskoplar (bolalar va kattalar uchun) tashxis tekshiruvlari va davolash muolajalari uchun foydalaniladi.

Egiluvchan endoskoplar faqatgina tolali svetovodlarga ega bo'lib qolmay, balki tolali optikaga ham ega. Ularda tasvirni uzatish, tolalalari muntazam taxlab joylashtiriladigan shisha tolali jgutlarlar yordamida amalga oshiriladi. Linzali optika elementlaridan bu yerda faqat obyektiv va okulyar linzalari qolgan.

Egiluvchan endoskoplarning texnikaviy darajasi, modellarning xilma-xilligi, yangi avlod endoskoplarini ergonomik va estetik jihozlash darajasi oldingi chiqarilgan endoskoplardan quyidagilar bilan farqlanadi:

- uskunani har bir elementining dizayni va tuzilishini qayta ko'rib chiqish hamda yangi ashylardan foydalanish hisobiga endoskop og'irligini 100g.ga kamaytirilishi;
- ishchi qismi tashqi o'lchamlarining (diametrining) birmuncha kamaytirilishi hamda qobig'ining qalinligini kamaytirish va uskuna ishchi qismining ichki bo'shlig'ini yanada to'laroq to'ldirish hisobiga instrumental kanal diametrining oshirilishi;
- jgutdagagi tolalarni yanada zichroq taxlab joylashtirish va optik kanalning yorug'lik kuchini oshirish (1,5 barobar) yo'li bilan tasvirni uzatuvchi optik tizimining yuqori imkon beruvchi qobiliyatini;
- yanada yuqori ishonchliyligi;
- endoskopni 10 soatga sovuq sterillovchi eritmalariga solib qo'yilishini ta'minlovchi endoskop tuzilishining germetikligi.

Yangi endoskoplarning dizayni o‘zgartirilgan bo‘lib, ular boshqaruv dastaklarini shaklidagi distal uchi egilgan (imkonи boricha qo‘l va barmoqlarining shakliga keltirilgan) va okulyarning endoskop korpusida joylashishi (okulyarni korpusning va butun endoskopning bo‘ylama o‘qiga nisbatan qiyalik burchagi) o‘zgartirilgan. Ezofagogastroduodenoskop (28-rasm) to‘plamiga kiruvchi egiluvchan asboblar: biopsiya qisgichlari, sitologiya tozalagichi, dori moddalarini kiritish uchun kateter va asbob kanalini tozalash moslamasi yordamida ko‘rikdan o‘tkazish va muolajalarni amalga oshirish yo‘li bilan qizilo‘ngach, oshqozon va o‘n ikki barmoqli ichakni tekshirish uchun mo‘ljallangan. Uskuna kanalining ichki diametri (3,3 mm) distal uchi egilishning deyarli hamma burchaklarida egiluvchan asboblarni ichkariga o‘tishini ta'minlaydi.



28-rasm. Ezofagogastroduodenoskop.

Tolali optikaga ega bo‘lgan biopsiyali sigmoidokolonoskop SK-VO-4-M egiluvchan asboblar yordamida to‘g‘ri, sigmasimon va yo‘g‘on ichaklarni tekshirish va davolash uchun mo‘ljallangan.

Videoendoskoplar (XXI asrning uskunalarini sifatida) juda yuqori baholanadi. Endoskopik tekshiruvlarni muvaffaqiyatlil o‘tkazish, endoskoplardan foydalanish qulayligini oshirish, ularni tegishli holatda saqlash, hamda uskunani tozalash va ularga standart ishlov berish muolajalarini maksimal darajada osonlashtirish maqsadida endoskopik muolajalarga atab maxsus, keng nomenklaturada yordamchi mahsulotlar va qurilmalar, elektrojarrohlik uskunalarini, tekshirilayotgan ichki a’zo bo‘shlig‘idagi moddalarni endoskop orqali tovushsiz aspiratsiya qilish uchun endoskopik so‘rish nasoslari, endoskoplarni yuvish qurilmalari hamda endoskoplar va ularning jihozlari uchun ultratovushli tozalagichlar, suv va havoni uzatuvchi yo‘llarni tozalash va dezinfeksiyalash uchun portativ nasoslardan ishlab chiqariladi. Endoskopik tekshiruvlarni o‘tkazish uchun kerakli asboblar joylashtiriladigan uskunalar to‘plamiga ega bo‘lgan ko‘chma endoskopik qurilmasi alohida qiziqish uyg‘otadi ( 29-rasm).



29-rasm. Ko‘chma endoskopik qurilma.

Endoskopik to‘plam endoskopik tashxis bo‘linmalarini va jarrohlik xonalarini jihozlash uchun mo‘ljallangan. To‘plam tarkibiga egiluvchan endoskop, yoritgich, koagulyator, monitor, videokamera, videomagnitofon, egiluvchan asboblarni qo‘yish ustuni kiradi.

#### **Takrorlash uchun savollar:**

1. Optik endoskoplarning ishlash prinsipini tushuntiring.
2. Bronxoskoplar qanday maqsadlarda qo‘llaniladi?
3. Endoskopik tekshiruvlarni muvaffaqiyatli o‘tkazish, endoskoplardan foydalanish qulayligini oshirish maqsadida hozirda qanday turdag‘i endoskoplardam foydalaniladi?


### **10 - AMALIY MASHG‘ULOT**

#### **Ultratovush va ultratovush bilan davolovchi tibbiyat texnikalari**

Ultratovush chastotasi 20 kGs dan yuqori chastotali tebranishlar bo‘lib, ularni inson qulog‘i eshitmaydi. Meditsinada ultratovushning 800 kGs dan 3000 kGs gacha bo‘lgan chastotali tebranishlaridan foydalaniлади. 800-900 kGs chastotali tovushlar 5-6 sm chuqurlikkacha, 1600-2600 kGs chastotali ultra tovushlar 1,5-2,0 sm chuqurlikkacha kirib borib davolovchi ta`sir ko‘rsatadi. Bunda mexanik, kuchsiz issiqlik va fizik-kimyoviy davolovchi faktorlar yuzaga keladi. Ultratovush yordamida odamning turli a‘zolariga ta`sir ko‘rsatish va shu sohalarga mo‘ljallangan turli tibbiyat apparatlari ishlab chiqarilmoqda.

Keyingi vaqtarda UZT seriyali bir necha xil ultratovush bilan davolovchi apparatlar ishlab chiqarildi. Masalan UZT-101 apparati ichki a‘zolar, suyak-muskul va nerv sistemalarini, UZT-102 stomatologik kasalliklarni, UZT-103-urologik, UZT-104- ko‘z kasalliklarini, UZT-31-genekologik kasalliklarni davolasa, LOR-1A, LOR-2, LOR-3 apparatlari tomoq, burun, qulqoq

kasalliklarini davolaydi va ularning ultratovush chiqaruvchi nurlatgichlari shu sohada qo'llash uchun zarur hajm va kattaliklarda ishlab chiqariladi. Ultratovushni ingalyatsiya maqsadida foydalanish ham yo'lga qo'yilgan. Bunda suyuq dorilar ultratovush yordamida quyuq tuman shakliga keltirilib nafas olish sistemalarini davolaydi.



30 - rasm. Keramik pyezoelektrik olmoshlovchi nurlatgich

Ultratovush bilan davolovchi apparatlar yuqorida qayd etilgan chastotali generatorlardan iborat bo'lib, ulardag'i elektr tebranishlarini ultratovush tebranishlariga aylantirish uchun nurlatgichlardan foydalaniladi. Nurlatgichlarning asosiy elementi bo'lib, titanat bariydan tayyorlangan pyezoeffekt hodisasi asosida ishlaydigan keramik pyezoelektrik olmoshlovchi hisoblanadi, u nurlatgichga quyidagi ko'rinishda joylashtiriladi (30-rasm).

Bunda nurlatgichning quyidagi qismlari ko'rsatilgan: 1) pyezoelektrik plastina joylashtiriladigan asos; 2) dastak; 3) pyezoelektrik plastinani bosib turuvchi moslama; 4) silindrsimon metall korpus; 5) gayka; 6) pyezoelektrik plastina; 7) prujina; 8) vtulka. Pyezoelektrik effekt hosil qiladigan kvarts plastinasiga 1500V gacha kuchlanish beriladi. Bariy titanati, qo'rg'oshin sirkonat titanati plastinalariga 100V kuchlanish beriladi. Ultratovush bilan davolash uzlusiz va impulsli usullar bilan olib boriladi. Quyida ayrim ultratovushli terapiya apparatlari haqida ma'lumotlar beramiz.

UZT-31 apparati Moskvadagi EMA zavodida ishlab chiqariladi va tibbiyotning turli sohalarida davolash maqsadlarida foydalaniladi. U quyidagi asosiy texnik xarakteristikaga ega. Apparat  $220 \pm 10\%$  V, 50 Gs chastotali kuchlanishda ishlaydi. Ultratovush chastotasi  $2,64 \text{ mGs} \pm 0,1\%$ , intensivligi 0f§; 0,2; 0,5 va 1,0  $\text{Vt/sm}^2$ . Katta nurlatgichning effektiv yuzasi  $2 \text{ sm}^2$  kichikligi  $0,5 \text{ sm}^2$ . Apparat impuls uzunligi 2; 4; 10 millisekund, chastotasi 50 Gsli impulsli rejimda ham ishlaydi.


UZT-31 apparati  $2,64 \text{ mGs}$  chastotali elektr tebranishlarni hosil qiluvchi generator, 2, 4, 10 ms uzunliklarini hosil qiluvchi modulyator, manba bloki, chiqish cuchaytirgich kaskadi va nurlatgichdan iborat.

Lor kasalliklarini davolovchi UZT-31 apparatining generatori tranzistorda modulyatori logik mikrosxema va kvarts stabilizatoridan yig'ilgan. Elektr sxemalari pechat platalariga joylashtirilgan bo'lib, olib sozlash va tuzatish uchun qulay holda yig'ilgan.

U 880 kGs chastotali ultratovush bilan davolaydi. Uzluksiz va impulsli rejimlarda ishlaydi. Chiqish quvvati 0,2; 0,4; 0,6; 0,8 Vt/ sm<sup>2</sup>.  $220\pm10\%$  V kuchlanishda ishlaydi. Uning generator va kuchaytirgichlari elektron lampalarda yig'ilgan.

Ultratovush bilan davolovchi bunday apparatlarning chiqish quvvati IMU-3 markali o'lhash vositasi yordamida o'lchanadi. Bu o'lhash vositasining tuzilishi va ishlashi amaliy mashg'ulotlarda tushuntiriladi.

Ultratovush bilan davolovchi apparatlarni xorijiy davlatlarning firmalari ham ko'plab ishlab chiqaradi. Germaniyaning «Sonotur 410» va «Curatur 420» markali apparatlari shular jumlasidandir. Bu apparatlar quyidagi texnik xarakteristikalarga ega. Ikkalasi ham  $220\pm10\%$  V, 50—60 Gs chastotali kuchlanishda ishlaydi. «Sonotur 410» apparati 1,4 sm li nurlatgich bilan, «Curatur 420» apparati 4,0 sm li nurlatgich bilan davolaydi. Uning ultratovushli chastotasi  $880\pm5\%$  kGs, impuls uzunligi 2 ms, 140 Gs chastotali impulsli rejimda ham ishlashi mumkin. Bunday galvanizatsiyani ham amalga oshirish mumkin.



31 - rasm. «Sonotur 410» apparati

### **Ultratovush bilan davolovchi apparatlarga texnik xizmat ko'rsatish va tuzatish**

Ultratovush bilan davolovchi apparatlarning turi juda ko'p. Odam organizmining turli qismlarini davolash maqsadida ishlab chiqariladigan apparatlarga ginekologiya, oftalmologiya, LOR va tananing tashqi qismlaridan davolovchi apparatlar kiradi. Bu apparatlarda ultratovush hosil qilish sxemasi deyarli bir xil faqat ular chastotalari, elektrodlarining shakli va o'lchamlari bilan farq qiladi. Ularning sxemasida impuls rejimida ishlash uchun impuls hosil qilish sxemasi ham mavjud. Ultratovush terapiyasi apparatlarining ayrimlarida ultratovush chastotasi  $880\pm10\%$  kGs bo'lsa ayrimlarida  $2,64\pm0,1\%$  mGs bo'ladi. Ularning ultratovush nurlatgichlari apparat bilan koaksial kabel yordamida ulanadi. Keyingi vaqtida ishlab chiqarilayotgan ultratovush terapiyasi apparatlarining elektr sxemalari elementlari pechat platalarda joylashtirib chiqarilishi va ular bir-birlari bilan maxsus ko'p kontaktli vositalar

yordamida bog'lanishi munosabati bilan ularga texnik xizmat ko'rsatish, nosozliklarini aniqlab tuzatish ishlari ularning texnik hujjatlari asosida amalga oshirilish mumkin. Bu ishlarni bajarishda multimetrik, ossillograf, chastotometr, generator va boshqa zarur asboblardan foydalaniladi. Ultratovush terapiyasi apparatlarining chiqish quvvatini o'lhash maqsadida maxsus IMU-3 markali apparat (108-rasm) ishlab chiqarilgan bo'lib, u quyidagi texnik imkoniyatlarga ega: chastotasi 400-3000 kGs gacha chiqish quvvati  $0,2 \pm 25$  Vt gacha bo'lgan ultratovush to'lqinlarini  $0,05 \pm 0,2$  Vt aniqlikda o'lhash imkonini beradi.

IMU-3 qurilmasining sxemali ko'rinishi 108-rasmida ko'rsatilgan. IMU-3 qurilmasida ultratovush nurlatgichini o'lhash uchun kirituvchi qopqog'i (2), gazi chiqarib yuborilgan distillangan suv solinadigan idish (4) va shu idish ichida ultratovush quvvatini o'lhashda asosiy element bo'lgan chetlari latundan ishlangan datchik (3) hamda datchikdan sochilgan ultratovushni qaytarish va yutib qolish uchun kapron shyotkalari (5) ishlatilgan.

32 - rasm. IMU—3 markali apparati	33 - rasm. IMU—3 qurilmasining sxemali ko'rinishi

IMU-3 ni o'lhash uchun tayyorlashda distillangan suv vannaga 4, 19 bilan belgilangan chegaragacha solinadi. 18 raqami bilan belgilangan ultratovush quvvatini o'lhash uchun ruxsat beruvchi dastakni «ochiq» holatga o'tkaziladi. 13 raqami bilan ko'rsatilgan dastak yordamida vattmetr shkalasi strelkasini «0» ga olib kelinadi. Shunda strelka bilan belgilangan «0» holatini ko'rsatuvchi vertikal chiziq yoniga (to'g'risiga) kelishi kerak.

O'lhash vaqtida qopqoqqa zarur moslama qo'yilib, ultratovush nurlatgichi vanna ichiga tushiriladi va apparat ishlatiladi. Shunda «0» ko'rsatuvchi moslama o'ng tomonga siljiydi va (13) dastak yordamida o'z holiga qaytariladi. Vattmetr strelkasi (11) o'lchanayotgan quvvat kattaligini ko'rsatadi. O'lhash vaqtida apparatning old oynasidan suv sathi va ichida havo parchalarining mavjudligi kuzatiladi. O'lhash ishlari bajarib bo'lingach (18) dastak

yordamida «yopiq» holatiga o'tilishi kerak. Ultratovush terapiyasi apparatlarida ko'proq nosozliklar ultratovush chastotalarini uzatib beruvchi koaksil kabelning uzilishida, shuningdek ultratovush nurlatgichining noto'g'ri ishlatalishi natijasida, ultratovush hosil qiluvchi titan bariy plastinasining yemirilishi sababli yuz beradi. Shuning uchun ultratovush bilan davolanganda ishlayotgan nurlatgich bo'sh qolmasligi, ya'ni u bemor bilan kontaktda bo'lishi kegak. Ko'p hollarda bu kontakt maxsus pastalar, kukunlar yordamida amalga oshiriladi. Ayrim UZT apparatlarini tuzatuvchi mutaxassislar ultratovush nurlanayotganini kuzatish va mavjudligini bilish uchun nurlatgich sathiga suv tomchisini tomizib aniqlashadi. Shunda ultratovush xuddi suvni qaynatganday uning tarkibini harakatlantiradi. Ultratovush kuchli bo'lsa, uning zarralarini yuqoriroq otishi mumkin. Albatta bu ish qisqa vaqt mobaynida qilinadi. Ultratovushning shu xossasidan ya'ni suv tomchilarini kuch bilan otishidan ultratovushli ingalyasiya apparatlarida foydlaniladi va bunda tarkibida dori vositalari bo'lgan suyuqlikdan nafas olish uchun zarur aralashma — tumanga o'xhash normal haroratli havo hosil qilinadi va nafas yo'llarini davolashda foydalaniladi. Hozirda fizioterapiya maqsadlarida Germaniya, Xitoy, Yaponiya kabi mamlakatlarda ishlab chiqarilgan apparatlardan foydalanilmoqda. Ularda ham ultratovush nurlatish vositasini har doim suyuqlik, ya'ni nagruzka bilan ta'minlash zarur hisoblanadi.

#### **Takrorlash uchun savollar:**

1. Ultratovush va uning fiziologik ta'siri.
2. UZT—seriyali apparatlarning imkoniyatlari.
3. UZT—31 apparatining texnik parametrlari.

### **11 - AMALIY MASHG'ULOT** **Rentgen nurlanishi. Rentgen qurilmalarining ishlash prinsipi**

Rentgen nuri bilan davolash. Bu ish davolash imkonini beruvchi maxsus tibbiy rentgen apparatlari yordamida amalga oshiradi. Rentgen apparatlarining yaratilishi radio ixtirochisi A.S.Popov va N.G.Egorova nomlari bilan bog'liq. Ular rentgen nuri kashf qilinganidan (1895 yil 8 noyabr) bir oz keyin, 1896 yilda rentgen nuri yordamida rentgenografiyani amalga oshirdilar. 1946 yilda V.V Dmoxovskiy va A.G Sulkin rahbarligida elektr jihatdan himoyalaydigan dastlabki tibbiy rentgen apparati RUM-2 yaratildi. Bu rentgen apparati elektrovakuumli kuchlanishni to'g'rilovchi kenatron va rentgen trubkalarga ega edi. 1960 yillarning boshlarida chiqarilgan RUM-2 va RUM-10 apparatlarida aylanuvchi anodli rentgen trubkalaridan foydalanilgan, natijada kattaroq quvvatga ega bo'lgan rentgen nuri olish imkonи yaratilgan. 1968 yilda yarim o'tkazgichli to'g'rilagich ustunlaridan foydalanilgan dastlabki uch fazali rentgen apparati RUM-16 yaratildi. Shundan keyin RUM-20, RUM-20M, Rentgen-30, Rentgen-40 apparatlari yaratildiki, ularning ayrimlari hozirgacha davolash muassasalarda ishlatib kelinmoqda. Davolashda qo'llaniladigan RUM-17, RUM-21M

apparatlarini misol qilish mumkin. 1972 yildan boshlab kompyuter bilan ta'minlangan rentgen apparatlari ishlab chiqarila boshlandi, buning natijasida raqamli rentgenodiagnostik apparatlar hamda rentgen kompyuter tomograflarini bir necha tur va avlodlari yaratilib rentgen nuri yordamida tashxis qilish darajasini ancha yuqoriga ko'tardi.

Rentgen apparati (RA) tarkibiga bir yoki bir necha rentgen nurlatgichi, manba qurilmasi (rentgen qurilmasini yuqori voltli kuchlanish bilan ta'minlaydigan va radiasion kattaliklarini boshqaruvchi), rengten nurini ko'rinadigan tasvirga aylantiruvchi o'zgartirish qurilmasi va tasvirni ko'rish va qayd qilish vositalari (rentgen plankasi, rentgen tasviri yorqinligini kuchaytiruvchi, televizion video nazorat qurilmasi, videomagnitofon, fotokamera, kinokamera va boshqalar) kiradi. Shuningdek, RA tarkibiga bemorni kerakli holda tutib turish, tekshirish uchun qulayliklarni yaratuvchi shtativ moslamalari, himoya tizimlari va boshqaruv tizimlari kiradi. Zarur nurlanish oqimini hosil qilishda diafragma, tubus, filtr, rentgen to'ri kabi vositalardan foydalaniladi. RAlarida avtomatik rentgen va fotoeksponometrlardan, yorqinlikni stabillovchi tizim va boshqalardan foydalaniladi. Tibbiyotda foydalaniladigan rentgen apparatlari tashxis qo'yuvchi va davolovchi (DRA) larga bo'linadi. Davolovchi RA tormozlanish rentgen nuri yordamida turli kasalliklarni davolaydi. Maqsadiga ko'ra DRAlar yuza va bo'shliqlar ichidagi kasalliklarni davolovchi (trubkaga beriladigan kuchlanishning maksimal qiymati  $10\div60$  kV va  $60\div100$  kV gacha) va chuqurlikda joylashgan kasalliklarni (kuchlanishlarning maksimal qiymati  $100\div300$  kV) davolovchi apparatlarga bo'linadi. Davolash vaqtida nurlatgichning harakati yo'naliishga ko'ra apparatlar statik nurlatish va harakatdagi (rotatsion, konvergent va mayatnikli) nurlatish apparatlariga bo'linadi. DRA, ya'ni kontaktli, yaqin masofali (ya'ni fokusli), uzoq masofali nur bilan davolovchi RAlariga ajratiladi. Rentgen nuri bilan davolash hozirgi vaqtida onkologiyada o'zining oldingi o'rnini ancha yo'qotdi, chunki gammoterapiya va chiziqli tezlatgichlar yordamida davolash yo'lga qo'yilmoqda. Shunday bo'lsa ham yaqin fokusli davolash hali o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

DRAlardan radiologiya xonalarida foydalaniladi. Qisqa masofali davolashda fotonlarning maksimal energiyasi  $40\div45$  kEV bo'ladi va bunda masofa 15 dan 300 mm gacha bo'ladi. Bunda patologik jarayon va kasallik xarakterini qaraladi. Qisqa masofali davolashda  $6\div12$  kV kuchlanish yordamida hosil qilingan filrlanmagan yumshoq rentgen nuridan ham foydalaniladi. Bunda kirib borish chuqurligi 1-2mm dan oshmaydi va terining ustki qismidagi kasalliklarni davolashda qo'llaniladi. Ayrim hollarda rentgen nuri kolid yara o'rnii, ekzema va neyrodermitlarda ham foydalanilmoqda. DRAarning asosiy tamoyili kichik dozalar yordamida onkologik kasalliklarni davolash effektini oshirishdan iborat. Shamollashning o'tkir turlari bir martalik doza  $15\div25$  radni ( $0,15\div0,25$ Gr) tashkil etadi.

Dozalar yig'indisi o'tkir jarayonlarda  $50\div100$  rad ( $0,5\div1$  Gr), xronik jarayonlarda  $150\div300$  rad ( $1,5\div3$  ar) atrofida bo'ladi.

### **Radioaktiv nurlanishlar bilan davolash radioaktiv davolash vositalari.**

Radioaktiv nurlanishlardan davolash jarayonida foydalanish tibbiyotda quyidagi vaziyatlarga bog'liq:

Barcha organizmlarda hujayradagi modda almashinuvi (metabolizm) to‘rt asosiy spetsifik funksiyalarini bajaradi.

-hujayrani barcha energetik sarflari o‘rnini bosish uchun atrof muhitda kerakli energiyani ajratib olish;

-ekzogen moddalardan hujayrali makromolekulyar qismlarining dastlabkisi bo‘lgan oraliq birikmalarini hosil qiladi;


-olingan hujayrani spetsifik funksiyalarini bajarishida yuz beradigan maxsus biomolekulalarni sintezi va bo‘linib ketishini ta‘minlash.

Tirik hujayradagi modda va energiya almashinuvining mazmunini tushunish uchun ularning energetik xususiyatlarini hisobga olish zarur. Ko‘plab hujayralar taxminan bir xil haroratga ega bo‘ladi. ularning ayrim qismlari bosimi unchalik farqqa ega emas. Bu o‘z navbatida ularni issiqlikning energiya manbai sifatida ishlata olmasligini, chunki bir xil bosim ostida issiqlik harorati yuqoriq sog‘ odam pastroq sohaga o‘tishi mumkin. Tirik hujayra issiqlik va inert dvigatellarga o‘xshash emas.

Tirik hujayrani izotermik kimyoviy mashina sifatida ko‘rish mumkin. Hujayralardagi modda almashinuvining buzilishi rak kasalligini rivojlanishiga sabab bo‘ladi. Ozuqa moddalarni kelish mexanizmining buzilishi (A mexanizmi 34 - rasm) da modda almashinuvi hujayrani och qoldiradi. Hujayrani modda ajratib chiqarishidagi buzilishi (V mexanizmi) modda almashinuvining zaharlanish jarayoniga sabab bo‘ladi va hujayra asta-sekin o‘lishi mumkin. Hujayra o‘zini saqlashi uchun hajmini kattalashtirishga harakat qiladi va bu shishlarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi.

Radionurlanish bilan davolash masalalari hujayralar o‘sish jarayonini nurlanish yordamida sekinlashtirishdan iborat, bunda hujayralarning bir qismi halok bo‘ladi, hajmnning ortishi ro‘y beradi va davo effekti sodir bo‘ladi. Buning uchun zarur nurlanishni tanlab, nurlanish dozasini aniqlash zarur.

### **Radioaktiv nurlanish bilan davolashda foydalaniladigan apparatlar.**




34-rasm.


Passiv ta’sir etish bunda applikatsion davolashdan foydalaniladi. Applikator sifatida egiluvchan plastik yoki organik moddalardan yasalgan qatlardan foydalaniladi, bu qatlarni tarkibida radioizotop ham bo‘lib, zararlangan tana qismi ustiga quyiladi. Ushbu qatlarni plastina (elektrod) da radioizotop bir tekis joylashgan

bo‘lishi va ishlatish vaqtiga mahkam turishi va har qanday ta`sirsga chidamli bo‘lishi kerak. Ushbu elektrodlarda teflon, lyusat, polietilen ionoalmashuv moddalarini va filtrlash qog‘ozidan foydalilaniladi.

Applikator shakli zararlangan tana qismi tuzulishiga mos kelishi kerak va sog‘lom tana qismining  $0,3 \div 0,5$  sm yuzasini ham egallashi mumkin. 35-rasmda applikator sifatida ishlatiladigan kyuveta shakli va tana yopishtiriladigan moslama (prisoska) tasviri 36-rasmda keltirilgan. 35-rasmda harflar bilan quyidagi applikator (kvovet) qismlari ko‘rsatilgan.



35 - rasm. Izotop uchun kyuvet



36 - rasm. So‘rib yopishtirgich

a-R<sup>32</sup> va J<sup>131</sup> izotoplari.

b-himoya qatlami, epoksid smola.


s-to‘rtburchak shaklidagi sirt.

m-izotop miqdorini belgilovchi moslama.

s-kyuvet o‘lchами 10  $\div$  40 mm.

h-kyuvet o‘lchами 8  $\div$  15 mm.

37 - rasmda plastik jgutli zondning tuzulishi ko‘rsatilgan. Bo‘shliqlar ichidagi kasalliklarni davolashda radioaktiv izotopli aralashma zond yordamida kiritiladi. Bunda U<sup>90</sup>, R<sup>32</sup>, Ai<sup>198</sup> radioizotoplari kolloid aralashmasi ko‘rinishida ishlatiladi va bu bo‘shliqlarni uzoqroq muddatda davolash imkonini beradi. Nurlanish manbai sifatida yarim yemirilish davri 2 kundan 2 haftagacha bo‘lgan izotoplardan foydalilaniladi, buning natijasida davolash kursi vaqtida izotop to‘liq yemirilib tugaydi. Plastik jgut ko‘rinishidagi zond (29-rasm) S=5  $\div$  10 mm diametrga, h=12  $\div$  15 mm balanlikka ega. Bu zond oshqozon bo‘shliq orqali kiritiladi va shomollash jarayonlarini to‘xtatadi.




37-rasm. Plastik jgut ko‘rinishidagi zond

### **Ionlovchi nurlanishlarning faol manbalari.**

Ionlovchi nurlanishning faol manbai sifatida zaryadli zarralar (ZZT) tezlatkichidan foydalaniladi. 33 T yuqori energiyali zaryadli zarralarni (elektron, proton, yengil kimyoviy elementlarning atomlari va ionlarini) vakuum kamerasida elektromagnit maydoni yordamida dastasini hosil qiluvchi qurilmadir. Tezlatilayotgan zarralar turiga ko‘ra tezlatkichlar elektron va proton hamda og‘ir zarralar tezlatkichiga ajratiladi.

Tezlatilayotgan zaryadli zarralar harakat trayektoriyasiga ko‘ra 33 T chiziqli va siklik turlariga bo‘linadi. Siklik 33 T lariga zaryadli zarralar harakati yo‘nalishi spiral yoki aylana shaklida bo‘ladi. Tezlatilayotgan zaryadli zarralarni hosil qiluvchi elektron maydoni xarakteriga ko‘ra 33T rezonansli va rezonansli bo‘lmagan turlarga ajratiladi. Rezonansli 33T larida tezlatish o‘zgaruvchan yuqori chastotali elektromagnit maydoni yordamida bajariladi bunda tezlatilayotgan zarralarning xarakati tezlatuvchi yuqori chastotali maydon o‘zgarishi bilan sinxron holda sodir bo‘ladi. Zarralarning rezonansli siklik tezlatgichiga siklotron, fazotron, sinxrotron va mikrotronlar misol bo‘ladi. Rezonanssiz 33T larida yo‘nalishi bo‘yicha o‘zgarmaydigan elektrostatik maydonlardan (yuqori voltli chiziqli tezlatgich) yoki uyurmali elektr maydondan (betatron) foydalaniladi.


Betatron elektronlarni tezlatuvchi siklik rezonanssiz qurilma hisoblanadi. Bir jinsli ko‘ndalang maydonda elektronlar aylana bo‘ylab harakatlanadi.



38-rasm. Ko'ndalang magnit maydonidagi elektronlar trayektoriyasi

Bunda maydon kuch chiziqlari rasm tekisligiga perpendikulyardir elektron bayon qiladigan aylana radiusi uchun impulsiga proporsional bo'ladi. Bir jinsli ko'ndalang maydonga elektronlar aylana bo'ylab harakatlanadi, uning xarakati radiusi  $r \cdot c = 300$  V·R formulaga mos ravishda  $R$  impulsga bog'liq ravishda ortadi. Bu yerda  $r \cdot s$  elektron impulsining yorug'lik tezligi  $S$  ga ko'paytmasi. Birligi elektronvoltlarda EV. V-magnit maydon induksiyasi birligi Gauss larda. R-aylana radiusi santimetrlarda  $S$  ( $\beta$ -zarra aylanishi radiusi) elektronlar detektori bo'lib fotoplastina hisoblanadi. Bunda bir vaqtning o'zida energetik spektrning butun qismi qayd qilinadi.

Betatronda e-elektronni tezlatish magnit manbai orqali o'tadigan magnit toki hisobiga hosil bo'ladigan induksiyani uyurmaviy elektr maydoni yordamida amalga oshiriladi. Halqa shaklidagi vakuum kamerasi magnit bo'shlig'ida joylashgan (39-rasm).




39-rasm. Betatronning sxemali razryadi

Bu yerda qutbli uchlari yordamida kamayuvchi magnit maydoni shakllantirilgan va bu maydon yoyli aylana o'rtasida muvozanatda bo'lgan radius bo'ylab harakatini ta'minlaydi. Bunga erishish maqsadida  $V_{orb} = 1/2 V_{sr}$  shart bajarilishi zarur. Bu yerda  $V_{orb}$ -orbitadagi magnit maydon induksiyasi,  $V_{sr}$ - orbita ichidagi o'rtacha magnit maydon induksiyasi. Betatron impuls ta'sirli tezlatgich bo'lib, energiyasi  $100 \div 300$  MEV gacha bo'lgan elektronlar manbai hisoblanadi. O'rtacha energiyasi  $20 \div 50$  MEV bo'lgan betatronlar keng tarqalgan. 31-rasmida betatronning quyidagi qismlari raqamlar bilan belgilangan:

- magnit qutblari.
- qalqonsimon vakuum kamerasining ko'ndalang kesimi.
- markaziy o'zak.

- elektromagnit cho‘lg‘am.
- magnit yadrosi.

Fazotron α-zarralar tezlatgichi hisoblanadi va u avtofazirovka tamoyili bo‘yicha ishlaydigan rezonansli siklik tezlatgichlarni asosiy turlaridan biri hisoblanadi (32-rasm). Fazatronda magnit maydoni vaqt oralig‘ida o‘zgarmaydi, tezlatuvchi elektr maydoni chastotasi o‘zgaradi. Fazatronlar kinetik energiyasi 1000 MeV gacha bo‘lgan protonlar chiqarib beradi. Fazatronda zarra markazdan spiral traektoriyasi bo‘ylab xarakatlanadi. Bu markazda ionli manba (gaz razryadi) joylashgan va u vakuum kamerali periferiyasi hisoblanadi. Zarralar energiyani tezlatuvchi magnit bo‘shlig‘i (zarra) ni bir necha marta kesib o‘tganida oladi.



40-rasm. Fazotrondagи harakat zarralarining sxemasi


40-rasmda raqamlar bilan fazotronning quyidagi qismlari belgilangan.

1. ionli manba
2. tezlatilayotgan zarra orbitasi (spiral`)
3. tezlatuvchi elektrodlar
4. chiqarish qurilmasi (og‘diruvchi plastinalar)
5. tezlatish maydoni manbai.

**Alohida xususiyatlar.** Fazotron joylashtirish uchun katta hajmdagi maydon talab qilinadi.

Konstruksiyasining og‘irligi 100 tonnadan ham katta intensiv sovitishni talab qiladi. Konstruksiya ishini boshqarish prujina operatorlari tomonidan amalga oshiriladi. Ular fon rejimini, zarraning xarakat trayektoriyasi va boshqalarni nazorat qiladi. Bunday qurilmalar bilan ishlaganda nazorat asboblaridan foydalilanadi: bioobekt sirtidagi ionlashtiruvchi nurlanishning nazorat datchigi: binoning umumiy foni nazorati datchigi, operator uchun nazorat datchiklari.

Sinxro fazatron protonlarni tezlatuvchi siklik rezonansli tezlatgich bo‘lib vaqt maboynda magnit maydonidan foydalanuvchi tezlashuvchi elektr maydonini chastotasi o‘zgaradigan qurilmadir. Bunda magnit maydon induksiya ( $V$ ) elektr maydoni chastotasi ( $\gamma$ ) bir biriga bog‘liq ravishda o‘zgaradi tengma‘noli orbita radiusi  $R$  o‘zgarmas bo‘lib qoladi (41-rasm).



41-rasm. Sinxrofazatron sxemasi


Bu rasmda raqamlar bilan sinxrofazatronning quyidagi qismlari ko‘rsatilgan:

1. elementar zarralar injektori
2. kiritish tizimi
3. vakuum kamerasi
4. elektromagnit sektori
5. to‘g‘ri chizig‘li oraliq
6. tezlatuvchi qurilma
7. bemor bilan birga ko`chuvchi.

Sinxrofazotronning magnit tizimi bir necha magnit sektorlaridan iborat. Sektor oraliqlarida kiritish tizimi, tezlatish qurilmasi, dastani kuzatish tizimi va vakuum nasoslari joylashgan. Sinxrofazotronning og‘irligi 500-700 tonnani tashkil etadi.

Gamma apparatlar – asosiy elementi  $\gamma$  nurlanish manbai bo‘lgan maxsus moslamali nur bilan davolovchi statsionar qurilma.  $\gamma$ -nurlanish manbai sifatida dastlab Ra 226 ishlatalgan bo‘lsa, keyinchalik  $^{60}\text{So}$  va seziy  $^{137}\text{S}$ dan foydalanilmoqda.

Gamma apparatlarini mukammallashtirish uchun nurlanish seansini dasturiy boshqarish oldin dasturlangan seanslarini avtomatik qayta tiklash, nurlatgichni xarakatini avtomatik boshqarish, bemorning anatomik topologik tuzilishiga mos ravishda doza maydonini aniqlab nurlatish yo‘llaridan foydalanilmoqda.



42-rasm. Davolovchi gamma apparatlarining sxematik tuzilishi

Davolovchi gamma apparatlarining sxematik tuzilishi 34-rasmida keltirilgan. Bu rasmida raqamlar bilan gamma apparatining quyidagi qismlari keltirilgan:

1. bemor uchun stol
2. nurlatgich
3. Ў nurlatishning nazorat mexanizmi
4. shtativ

Gamma terapevtik unga mahkamlangan ionlashtiruvchi nurlanish manbai bo‘lgan nurlatgich bemor stolidan iborat bo‘ladi. Nurlatgich (radiatsion boshcha) og‘ir, qattiq metall (qo‘rg‘oshin, volfram, uran) dan ishlangan va Ў nurlanishni effektiv kuchaytiradi.

#### **Takrorlash uchun savollar:**

1. Rentgen apparatining paydo bo‘lishi qanday?
2. Rentgen apparatining blok-sxemasi qanday ishlaydi?
3. Rentgen nurlanishi deganda nimalarni tushunasiz?

### **12 - AMALIY MASHG‘ULOT**

#### **Kompyuter tomografining tuzilishi va ishlash prinsipi**

Yuqorida ko‘rilgan rentgen nurlanishining xarakteristikalariga asosan har xil to‘qimalar rentgen nurlanishini turli darajada yutishi odam tanasidagi organlarning tasvirini soyaviy proyeksiyada ko‘rishga imkon berishi haqidagi ma'lumotga ega bo‘ldik. Rentgenodiagnostikaning tibbiyat amaliyotiga kirib kelishi rentgenoskopiya va rentgenografiya usullarining vujudga kelishiga imkon yaratdi.

Rentgenli tomografiya va uning «mashina varianti» - kompyuterli tamografiya (KT) (43 -rasm) metodlari rentgenografiyaning qiziqarli va istiqbolli variantlari bo‘lib hisoblanadi.



43 – rasm. Kompyuter tamografiya apparatining umumiyo ko‘rinishi

## **KT rivojlanish tarixi:**

- 1895 yil 8 noyabr - Vilgelm Rentgen tomonidan rentgen nurlari kashf etildi.
- 1896 yil 13 yanvar - Bergmanlik ikki vrach 1- marta rentgen apparatini amaliyatda qo'lladi.
- 1946 yadro magnit rezonans (YaMR) hodisasi kashf etildi.
- 1963-1964 yil N. Kormak rentgen tomografiya haqida ilk ma'lumotlarni o'zining 2 ta ishida chop etdi.
- 1972 yil Damadyan inson tanasini YaMR orqali skaner qilishni taklif qildi.
- 1972 yil Lauterbur 1- marta YaMR suratini oldi.
- 1972 yil radiolog G. Xaunsfild klinika sharoitida 1-marta KT sini ishga tushirdi.

Birinchi KT Angliyaning “EMI” firmasi muhandislari bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan bo‘lib, u EMI- skaner deb nomlandi.

G. Xaunsfild bu apparatining tarkibiy qismi sifatida fotoelektr kuchaytirgichli detektordan foydalangan. Yagona manba trubka shu detektorga mahkamlangan. Bu qurilma orqali bitta tomogramma yozib olish jarayoni  $4 \div 20$  daqiqani tashkil qilgan.

Yaratilgan bu qurilma KTning I avlodiga mansub bo‘lib, u faqatgina bosh miyani tekshirish uchun qo‘llanilgan. I avlod KT lari faqatgina harakatlanmaydigan a’zolarni tekshirish qobiliyatiga ega bo‘lgan. Qurilmalarning tuzilishi soddarroq bo‘lganligi uchun tekshirish jarayoni ham birmuncha ko‘proq vaqt talab qilgan. Ularning tomografiya qilish maydoni ham kichikroq bo‘lib, diametri 24 sm ni tashkil qilgan.

II avlod KT lariga 1974 yilda asos solindi. Bu qurilmalar I avlod qurilmalaridan farqli ravishda bir necha detektorlardan tashkil topgan bo‘lib, ularga nisbatan ancha tez ishlagan. I avlod qurilmalarida trubka-detektor harakatlanmasa, bu qurilmalarda esa trubka-detektorning og‘ish burchagi  $3^\circ \div 10^\circ$  ni tashkil qilgan. Patsiyentning nurlanish darajasi kamaytirilib, tomogramma su’ratining sifati oshirilgan. Bitta tomogramma olish uchun 20-60 daqiqa vaqt sarflangan.

III avlod KT lari 1976÷1977 yillardan boshlab chiqsa boshlagan. Bu qurilmalar inson tanasining xohlagan sathdagi suratini olishga imkon yaratdi. Trubka - detektor sistemasining aylanish burchagi  $360^\circ$  ni tashkil qilgan. Tekshirish maydoni ham kattalashib, uning diametri 50-70 sm ga yetgan. III avlod KT lari ichki organlarni ham tekshirish imkoniyatiga ega bo‘lgan. Bitta tomogramma olish uchun ketadigan vaqt ham qisqarib, u 3-5 daqiqani tashkil qilgan.

IV avlod KT lariga 1979 yilda asos solindi. Bu qurilmalarda detektorlar soni 1100-1200 ta bo‘lib, ular halqada joylashtirilgan. Bu yerda detektorlar aylanmaydi, faqatgina rentgen trubka harakatlanadi. Rentgen trubkaning  $360^\circ$  ga aylanishi natijasida tomogramma olish uchun ketadigan vaqt 1-1,5 daqiqagacha kamaytirildi.

1986 yildan boshlab esa yuqori sifatlari apparat tuzilishiga ega bo‘lgan V avlod KT lari chiqarila boshladи. Bu qurilmalar “Imatron” firmasi tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, ular aniq, real vaqt masshabida ishlaydi.

**KT** - apparati kombinatsiyalashgan rentgen qurilma va kompyuterdan iborat. Rentgen qurilma bemorni har xil burchaklarda suratga olib, kompyuterga uzatadi va KT tasviri paydo bo‘ladi. Tomografik quyidagi kombinatsiyalarda olinishi mumkin (44 - rasm):

a) harakatsiz obyekt va harakatchan manba va nur qabul qilgich (rentgenologik pylonka, selenli plastinka, kristall detektor).


b) harakatsiz nurlanish manbai va harakatchan obyekt va nurlanish qabul qilgich.

c) harakatsiz nur qabul qilgich va harakatchan obyekt va nurlanish manbai. KT da kerakli tasvirni hosil qilish uchun kerakli darajada nur tutami kengligini hosil qilinishi lozim, so‘ngra ob’ekt rentgen nurlari tutami bilan skanerlanadi. Bu jarayon harakatsiz patsiyent boshi atrofidan detektor harakatlanishi bilan amalga oshiriladi (44, 45 va 46 – rasmlarga qarang).

Nurlanishning o‘zgarishi va uning susayishi raqamli shakldagi natijalarning o‘zgarishiga qarab aniqlanadi. Tomogrammadagi tanlangan qatlama (44-rasm) tegishli barcha o‘zgarishlar kompyuter tomonidan sintez qilinadi va videomonitor ekranida tekshirilayotgan qatlama surati hosil qilinadi (44 - rasm).

#### **KT ning oddiy rentgen tekshirishlariga nisbatan afzalliklari:**


1. Tekshiruvning nihoyatda sezgirligi va aniqligi.
2. KT organ va patologik o‘choqning faqat tekshirilayotgan kesmadagi su’ratini olish imkonini beradi.
3. KT yordamida alohida organ to‘qimalari va patologik hosilalar hajmi va zichligi haqida aniq ma'lumotlar olish mumkin.



44 –rasm. Qavatma-qavat tasvir hosil qilishning prinsipial sxemasi:  $F_0$ ,  $F_1$ ,  $F_2$  - rentgen trubka fokusining boshlang‘ich, hozirgi va tugatilish holatlari; J

$\frac{1}{2}$  - trubka aylanish burchagi; S - stol yuzasi; T - tekshirish obyekti;

$O$  – ko‘rilayotgan qatlama (barcha nuqtalarning rentgen trubkasi boshlang‘ich vaziyatidagi pylonkadagi proyeksiyasi);  $O_1$ ,  $O_2$  ko‘rilayotgan qatlamdan yuqori va pastki qismlar;  $O'$ , va  $O''$  lar – O nuqtaning rentgen trubkasidagi boshlang‘ich va oxirgi vaziyatlaridagi pylonkadagi proyeksiyasi;  $O'_1$  va  $O''_1$  lar  $O_1$  nuqtaning shu vaziyatlardagi pylonkadagi proyeksiyasi;  $O'_2$  va  $O''_2$  lar –  $O_2$  nuqtaning shu vaziyatlardagi pylonkadagi proyeksiyasi



45 – rasm. Kerakli darajada nur tutami kengligini hosil qilish



46 – rasm. Kompyuter tomogrammaning olinishida obyektning rentgen nurlari tutami bilan skanerlanishi

4. KT faqatgina o‘rganilayotgan a’zo haqidagina emas, balki patologik jarayonning o‘zaro qo‘shti organ va to‘qimalar bilan aloqasi haqida ham ma'lumot olish imkonini beradi.

Hozirda dunyo bo‘yicha taxminan 40000 ga yaqin KT o‘rnatalган.



47 – Rasm. Videomonitor ekranida tekshirilayotgan qatlam suratining hosil bo‘lishi

Hozirgi kunda KT juda ko‘p kasalliklarni aniqlashda yetakchi diagnostik usul bo‘lib hisoblanadi. Masalan:

- Bosh miya kasalliklari
- Umurtqa pog‘onasi va orqa miya kasalliklari
- O‘pka va ko‘ks oralig‘i kasalliklari
- Jigar, buyrak kasalliklari
- Oshqozon osti va buyrak usti bezlari kasalliklari
- Aorta va o‘pka arteriyasi va boshqa kasalliklarda

Bu usul to‘qimalarni ko‘ndalang kesimlarda, istalgan tekislikda va chuqurlikda olib berish xususiyatiga ega.

KT yordamida har xil organlarni - miyadan to suyakkacha tekshirish mumkin. Bosh miya va miya qutisi KT si yordamida vrach miyadagi o‘smalar, insult maydonini, gematomalarni, qon tomirlar patologiyasini aniqlashga yordam beradi. Umurtqa pog‘onasi KT si yordamida disk churrasi, orqa miya kanali torayishini ko‘rish mumkin.

**KT ga ko‘rsatma:**

KT tibbiyotda bir necha maqsatlarda keng qo‘llaniladi.

1) Skrining test quyidagi holatlarda:

- Bosh og‘rig‘i
- Bosh miya jarohati
- Hushdan ketish holatlarida
- O‘pka rakini inkor etish

2) Shoshilinch KT

- Og‘ir travmalar
- Miyaga qon quyilishiga gumon qilinganda
- Tomir shikastlanishiga gumon qilinganda (aorta anevrizmasi)

3) KT-rejali diagnostika maqsadida

4) Davo natijasini nazorat qilish maqsadida

5) Davolash va diagnostik muolajalar o‘tkazish maqsadida. Masalan, KT nazorati ostida punktsiya qilish.

**Takrorlash uchun savollar:**

- 1- Kompyuter tomograflarida tasvirni qayta ishlashning qanday usullari mavjud?
- 2- Interatsion usul haqida nima bilasiz?
- 3- Analitik usul haqida nima bilasiz?

## 13 - AMALIY MASHG‘ULOT

### Magnit rezonans tasvirga olish mexanizmlari

Har qanday atom yadrosi o‘z o‘qi atrofida to‘xtovsiz aylanib turadi, undagi proton elektr zaryadiga ega bo‘lgani uchun harakat natijasida magnit maydoni xosil qiladi va ma’lum magnit momentiga ega bo‘ladi. Odam organizmiga atom va yadrolar ko‘p bo‘lganligi sababli, ulardagи protonlarning magnit maydonlari va harakat yo‘nalishlari turlicha bo‘ladi. Tashqaridan ularga ma’lum chastotali qo‘zg‘aluvchi elektromagnit maydoni bilan ta’sir etilsa, ularning aylanish o‘qlari yo‘nalishini o‘zgartirish va boshqarish mumkin, bunda magnit momentining aylanishi protsessiya va dastlabki holatga qaytish vaqtি relaksatsiya vaqtি deyiladi. Protsessiyani qayd etish uchun tashqaridan berilayotgan elektromagnit nurlanishni o‘lchash zarur bo‘ladi. Bu qayd etilgan kattalik erkin induksiyaning kamayishi deyiladi. Yadrolar aylanish o‘qining og‘ishiga sabab bo‘ladigan elektromagnit maydon chastotasi rezonans chastotasi deyiladi.

Har bir yadro turi uchun rezonans chastotasining aniq qiymati mavjud, buni  $\omega = VH$  formula yordamida aniqlash mumkin.

Bu yerda:

$\omega$ -rezonans chastotasi;

v- yadroning gidromagnit nisbati deb nomlanadigan har bir yadro turiga bog‘liq doimiy koeffitsiyent;

H- doimiy magnit maydonining kuchlanganligi.

Vodorod yadrosi yadro magnit rezonansiga juda sezgir bo‘ladi. Odam tanasining 75 % dan ortig‘i suv molekulalaridan iborat va ularning har birida 2 tadan proton mavjud. Proton uchun 0,25 magnit maydonidan kuchlanganligida rezonans chastotasi 10 mGs dan sal ortiqroq hisoblanadi. Bu chastota odam organizmi uchun xavfli emas.

Yadro magnit rezonansi (YaMR) tomograflarida gradiyenti yoki og‘dirish chastotasi o‘zgartiriladigan magnit maydonlaridan foydalaniladi. Bunda turli yo‘nalishlar bo‘yicha tarqalayotgan rezonans signallari qayd qilinib, RKT spinlari matematik usullari bilan hisoblanadi va zarur tasvir EHM ning displayida ko‘riladi.

YaMR tomografiyasining ishlash prinsipi 76-rasmda ko‘rsatilgan. Bu rasmdagi harflar bilan quyidagilar belgilangan:

a- qismida:


$N_0$ - bir tarkibli magnit maydonlariga protonlarning magnit momenti;

$N$ - doimiy magnitning shimoliy va S- janubiy qutbi;  $\omega_1$ - chastota generatori;  
 $V_4$ - peredatchik yuqori chastotali uzatuvchi.

b - qismida:

Proton spini yuqori chastotali maydon yordamida qo‘zg‘atilganidan keyingi magnit maydoni yo‘nalishi atrofidagi harakati protsessi ko‘rsatilgan.


d- qismida:



48-rasm. YaMR tomografiyasining ishlash prinsiplari

YAMR tarkibiga kiruvchi yuqori chastotali maydon hosil qiluvchi yuqori chastotali uzatgich yadrolarni qo‘zg‘atish uchun zarur energiyani beradi. Bemorga berilayotgan nurlanish (magnit maydon) chastotasi yuqori chastotali uzatgich va qayd qilish sistemasi chastotasi bilan bir xil bo‘ladi. Natijada, magnitlanishning burilish burchagi vektori  $90^\circ$  yoki  $180^\circ$  ga teng bo‘lishi ta’minlanadi.

Gradiyent sistemasi uchta g‘altakdan iborat bo‘lib, tekshirilayotgan bemor ichida vaqt va tarqalish bo‘yicha o‘zgaruvchi magnit maydonini hosil qiladi. Bu magnit maydonlarining  $x$ -;  $y$ - va  $z$  — gradientlariga mos keluvchi g‘altaklarining ishi bir xil, bular faqat zarur yo‘nalishdagi a’zo qalinliklarini ajratish va hisoblash ishlarini bajaruvchi signallarni beradi.



49-rasm. YaMR tomografining qayd qilish sistemasi

YaMR tomografning qayd qilish sistemasi (49-rasm) qabul qiluvchi g‘altak (1) moslashtirish sxemasi (2), dastlabki kuchaytirgich (3) kvadratur faza detektori (4) analog raqamli o‘zgartgich (5) bloklaridan iborat.

Tekshirilayotgan obyektni o‘rab olgan qabul qiluvchi g‘altak antennaga o‘xshab bemor yadrolari magnitlanganligining o‘zgarishiga bog‘liq kattaliklarni qayd qilib, ularning elektr tebranishlariga, ya’ni YaMR signaliga aylantirib beradi, moslashtiruvchi blok YaMR signalini yo‘qotishlarsiz dastlabki kuchaytirgichga uzatib beradi. Kvadratura faza detektori markaziy chastotaga, ya’ni nurlanish chastotasiga yaqin chastotali YaMR signalini nurlanish chastotasiga yaqinlashtiradi. Markaziy chastotaning qiymatini

kamaytirib, analog raqamli o‘zgartgich va EHMLarga talablarni pasaytirish mumkin.


YaMR tomograflarida tasvirni qayta tiklashning bir necha usullaridan foydalilanadi. Bu usullarga ikki va uch o‘lchamli teskari proyeksiyalash, uch o‘lchamli va ikki o‘lchamli Fure o‘zgartirishlari holida to‘yinishing tiklanishi, to‘yinishing invers tiklanishi kabilar kiradi. Bu usullarning matematik ifodalari murakkab bo‘lib, kollej dasturiga kirmaydi.

Hozirgi vaqtida ko‘plab YAMR tomograflari ishlab chiqarilmoqda. Moskvadagi «Az» nomli ilmiy ishlab chiqarish firmasi YaMR tomograflarining bir necha xilini ishlab chiqarmoqda, ularda ishlatilgan qurilmalar va boshqa parametrlar quyidagi qiymatlarga ega.

«Ellips» YAMR tomografining sarf qilish quvvati kichik, «Diamag» YAMRidagi 0,2 Tl magnit maydoni tasvir sifatini yaxshilash imkonini beradi. Hozirgi kunda «Az» firmasi Moskva shahrida «MRT-0» shifoxonasini tashkil qilgan va bemorlarni qabul qilmoqda.

Xitoyning «ANKO» kompaniyasi ham AQSh bilan qo‘shma kompaniya hisoblanib, YAMR tomograflarining ASM-060 S va ASM-015 markali turlarini ishlab chiqarmoqda va tibbiyot klinikalarini ta’minlamoqda. Bu skanirlash qurilmasida o‘ta o‘tkazuvchan magnit rezonansi hisobiga tasvir hosil qilinadi. Gollandiyaning «Philips» firmasi ham YAMR tomograflarining GYROSCANTS, GYROSCAN S 15/HP va boshqa turlarini ishlab chiqaradi. Shulardan GYROSCANT 5 YaMR tomografining tashqi ko‘rinishi 50-rasmda ko‘rsatilgan.

Bu YAMR tomografidagi kuchli doimiy magnitning balandligi 1,8 m, og‘irligi 2,5 tonna, butun tekshirish sistemasi mexanizmlari bilan 14 tonnani tashkil qiladi. Tomograf yordamida turli qalinlikdagi qatlamlarning turli proyeksiyalardagi sifatli tasvirlarini display ekranida chiqarish mumkin.



50-rasm. GYROSCANT 5 YaMR tomografining tashqi ko‘rinishi

Rossiyada ishlab chiqarilgan MRT - 1000 markali YaMR tomografi neyroxiturgik va onkologik klinikalar, ilmiy tadqiqot muassasalarida turli

kasalliklarning diagnostikasi, jarrohlik aralashishlarini amalga oshirish va davolashning borishini nazorat qilish maqsadlarida ishlatiladi. O‘lchami 2 mm va undan kattaroq a’zo qismlarini kuzatish imkonini beradi. Uning yordamida jigar, buyrak, o‘t pufagi, oshqozon osti bezi, ingichka va yo‘g‘on ichak hamda ayollarning jinsiy a’zolaridagi o‘zgarishlarga diagnoz qo‘yiladi. Shuningdek, markaziy asab sistemasi, bosh miya, jarohatli shikastlanishlar, miyadagi qon aylanishlarning o‘zgarishi, shamollahash jarayonlarini, o‘pka, aorta va boshqa joylardagi limfa tugunlari hamda dastlabki shishlarni aniqlash imkonini beradi. MRT - 1000 YaMR - tomografi quyidagi texnik imkoniyatlarga ega:

- Tekshirilayotgan tananing maksimal diametri - 60 sm.
- Aniq tekshirish qismi diametri - 50 sm dan kam emas.
- Tekshiriladigan qatlam qalinligi - 10mm.
- Bir marta skanirlash vaqt - 120-480 sek gacha.
- Magnit maydoni kuchlanganligi - 0,15T1.
- Yuqori chastotali qo‘zg‘atish chastotasi - 6 mGs.
- Gradient qiymati -  $10^{-3}$  Tl/m.
- Radiochastotali maydonning bir tarkibligi - 10 %.

Ushbu YaMR tomografi protonlarning zichligini 10 %dan oshmaydigan kattalik bilan o‘lchaydi. Tasvir olish uchun proton va  $T_2$  - sekin aks sadosidan, T, uchun tiklanish va inversiya usullaridan foydalaniadi.

MRT - 1000 YaMR tomografi tarkibiga rezistiv magnit, radiochastota hosil qiluvchi kompleks, gradiyentlarni boshqaruvchi sistema, gradiyent va magnit sistemalarni manba bilan ta’minlovchi kompleks, hisoblash va ko‘rsatish hamda matematik hisoblashlarni amalga oshiruvchi komplekslar kiradi.

#### **Takrorlash uchun savollar:**

1. Protsessiya va relaksatsiya vaqt deb nimaga aytildi?
2. Har bir yadro turi uchun rezonans chastotasining aniq qiymati qanday aniqlanadi?
3. YAMR tomografiyasining ishlash prinsipini tushuntirib bering?
4. YAMR tomograflarida tasvirni qayta tiklashning qanday usullari mavjud?

## **14 - AMALIY MASHG‘ULOT** **Fizioterapiya qurilma, asbob va majmualari**

O‘zining ishlash tamoyiliga ko‘ra fizioterapevtik apparatlarning inson organizmiga ta’sirini ta’minlashiga ko‘ra quyidagilarga bo‘lish mumkin:  
elektromagnit ta’sir: - ionlashtiruvchi ta’sir: - yorug‘lik nuri ta’sir, - mexanik ta’sir akustik ta’sir: - issiqlik ta’siri: - kimyoviy ta’sir: - elektrokimyoviy ta’sir.

Bu ta’sirlarni quyidagi apparatlar ko‘rsatadi.

elektromagnitli fizioterapevtik apparatlar:

KV4 – apparatlari, SV4 – apparatlari: UV4 – apparatlari:

elektr fizioterapevtik apparatlar – to‘g‘ri burchakli, uchburchakli impulslar, generatorlari, sipesandal impulslar generatori (diadinamik apparatlar), modullashgan siptsusondal tok generatorlari (amplipulsterapiya) ikki chastota bilan qo‘sadigan generatorlar (interferentsterapiya), galvanizatsiya darsonvalizatsiya apparatlari, flyuktsarizatsiya apparatlari.

sun’iy magnit maydoni bilan fizioterapevtik apparatlar (magnitoterapiya)  
sun’iy elektr maydonining fizioterapevtik apparatlari (franklinizatsiya).

yorug‘lik energiyasi bilan ta’sir etuvchi fizioterapevtik apparatlar – ultra binafsha nur nurlatgichi, infraqizil nur nurlatgichi, selektiv bo‘limgan xromoterapiya nurlatgichlari.

mekanik energiya bilan ta’sir etuvchi fizioterapevtik apparatlar – nuqtali ta’sir, maydonchali ta’sir massaj uchun, cho‘zish uchun qurilmalar.

dori vositalarini siljituvcchi fizioterapevtik apparatlar – elektroforez ultrafonoforez, ingolyatsiya, aerovonlar, aerozolterapiya uchun qurilmalar, vannalar, kameralar, maxsus, galokameralar.

fizioterapevtik kogerent nur bilan ta’sir etuvchi apparatlar – fizioterapevtik lazerlar;

akustik energiya bilan ta’sir etuvchi apparatlar – ultratovushli, tovushli fizioterapevtik apparatlar;

iqlimiy faktorlar bilan ta’sir etuvchi fizioterapevtik apparatlar – havo vannalari, quyosh vannalari, kontrast vannalari, saunalar.

### **Issiq va sovuqni uzatuvchi fizioterapevtik apparatlar:**

- parafinterapiya, ozakeritterapiya, krioterapiya.

Tibbiy texnika kichik guruhi	O‘lchash vositalari
Elektromagnit fizioterapevtik apparatlar	
Qisqa to‘lqinli yuqori chastotali (KTYuCh) – apparatlari. O‘ta yuqori chastotali (O‘YuCh) – apparatlari.	O‘YuCh quvvat o‘lchagichi 43-64 markali chastotalar 37-27 A markali voltmetr V 43 I pribor. M4100/4 markali megometr 43-44 markali chastotomer.
Ultra yuqori chastotali UYuCh apparatlar.	Fantom – 1 43-64 chastotameresh V7-27A voltmetri TS 4311 pribori M 4100/4 megometri 43-44 chastotameri.
Elektr fizioterapevtik Apparatlar	
To‘g‘ri burchakli va uch burchakli impulslar generatori. Siprondal	TS 4311 pribori 43-64 chastotameri

impulslar generatori (diadinamik apparatlar) flyuktuatsiya uchun apparatlar, ikki chastota urish generatori (interferens terapis). Sipusandal modullangan tok generatorlari (amplipuls terapiya).	S1-117 ossillografi (S1-65A). F 4100/4 megometri.
Galvanizatsiya uchun apparatlar	TS 4311 pribori F 4101 megometri
Darsonvalizatsiya uchun apparatlar.	43-64 chastotameri. TS4311 pribori S1-117 yoki S1-65A esokillografi F 4100/4 megomeri Elektrmaydon kuchlanganligini o‘lchagichi.
Sun’iy magnit maydonili	Fizioterapeutik apparatlar
Magnitoterapeutik apparatlar.	Ultratovush nurlanishlarini o‘lchaydigan quvvat o‘lchagichi IMU-3 E7-11 markali universal o‘lchagich. 43-32 chastotameri S1-101 ossillografi. V3-57 markali voltmetr TS4311 pribori. F4100/4 megometri. F4356 markali milliteslometr magnit strelkasi (kolepas).
Sun’iy elektr maydonili	Fizioterapeutik apparatlar
Frankmenizatsiya apparatlar.	43-64 chastotameri TS4311 pribori S1-117 yoki S1-65A ostsillografi. F4100/4 megometri Elektr maydon kuchlanganligining o‘lchagichi.
Yorug‘lik energiyasi bilan ta’sir etuvchi fizioterapeutik apparatlar.	
Ultra binafsha nur nurlatgichlari, infra qizil nur nurlatgichlari, selektiv bo‘limgan xromoterapiya	TS 4311 pribori Tarmoq indikatori Ultrabinafsha radiometri
Dori vositalarini ko‘chiruvchi fizioterapeutik apparatlar	

Elektroforez, ultrafonoforez va ingalyatsiya uchun uskunalar	4311 pribori F4101 megometri Ultratovush nurlanish quvvatini o‘lchagichi IMU – 3
Akustik energiya bilan davolovchi fizioterapiya apparatlari.	
Ultratovush va tovush bilan davolash apparatlari.	Ultratovush nurlanishing quvvatini o‘lchagichi. IMU – 3 E7-11 markali universal o‘lchagich 43-32 chatotameri S1-101 ostsillografi V3-57 voltmetri TS4311 pribori F4100/4 migometri.

### **Takrorlash uchun savollar:**

1. Fizioterapevtik apparatlarni inson organizmiga ta’sirini ta’minlashiga ko‘ra qanday bo‘lish mumkin?
2. Fizioterapiya maqsadida ishlatiladigan qanday pribor, apparat va uskunalarni bilasiz?
3. IMU–3 apparati inson organizmiga qanday ta’sir ko‘rsatadi?

## **15 - AMALIY MASHG‘ULOT** **Ko‘rish o‘tkirligini aniqlash uchun mo‘ljallangan qurilmalar**

**Ishning maqsadi:** Ko‘zning optik sistemasi, uning kamchiliklari va bartaraf qilish usullarini o‘rganish. PZ-01 priborining tuzilishi, ishlash printsipi va tibbiyotdagi mohiyati hakida ko‘nikma va malakalar hosil qilish.

**Kerakli jihozlar:** Test - obyektlari tablosi, vrach pulsi, sinaladigan pult, ishlash bloki, vkladishlar.


Odam ko‘zi o‘ziga xos optik asbob bo‘lib, u optikada alohida o‘rin tutadi [1-3]. Bu, birinchidan, ko‘p optik asboblarning ko‘z sezishiga mo‘ljallangani, ikkinchidan, odamning (va hayvonning) ko‘zi evolyutsiya jarayonida taqsimlashgan biologik sistemasi sifatida, bionika doirasida optik sistemalarni loyihalash va yaxshilashga doir ba’zi g‘oyalarni vujudga keltirishi bilan tushuntiriladi.

Ko‘z tibbiyotchilar uchun faqat funksional buzilish va kasallanish qobiliyatiga ega bo‘lgan a’zo hisoblanmay, balki ba’zi ko‘zga taalluqli bo‘lmagan boshqa kasalliklar to‘g‘risidagi axborot manbai hamdir.

**Odam ko‘zining tuzilishi haqida qisqacha to‘xtab o‘tamiz:** Ko‘z kosasi asli ko‘zning o‘zi bo‘lib, (51- rasm), u uncha to‘g‘ri bo‘lmagan shar shaklidadir; katta odamlarda uning olld-orqa o‘lchovi o‘rtacha - 24,3 mm, vertikal ulchovi - 23,4 mm va

gorizontal o'lchovi - 23,6 mm. Ko'zning devorlari konsentrik uchta - tashqi, o'rta va ichki qobiqlardan iborat. Tashqi oqsil qobiq – sklera 1 ko'zning oldingi qismida shaffof qavarik muguz qobiq 2 - muguz pardaga aylanadi. Muguz pardanining qalinligi o'rtasida 0,6 mm ga yaqin atrofida to 1 mm gacha bo'ladi. Optik xossalari bo'yicha muguz parda ko'zning eng kuchli singdiruvchi qismidir. U go'yo ko'zga yorug'lik nurlari kiradigan derazadir. Muguz pardanining egrilik radiusi 7-8 mm, moddasining singdirish ko'rsatkichi 1,28 ga teng. Muguz pardanining tashqi qoplami ko'z qovoqlariga berkitilgan konyuktiv 3 ga teng.

Skleraga qon tomirli qobiq 4 tutashgan bo'lib, uning ichki sirti ko'z ichida yorug'likning diffuzli sochilishiga to'sqinlik qiladigan xira qora pigmentli hujayralar bilan qoplangan. Ko'zning oldingi qismida tomirli qobiq 5 - rangdor pardaga aylanadi. Bu pardada doiraviy teshik – qorachiq 6 mavjud. Ko'z qorachig'iga ko'zning ichki tomonidan, bevosita ko'z gavhari 7 - ikki tomonlama qavariq linzaga o'xshash shaffof va elastik jism yondoshadi. Ko'z gavharining diametri 8-10 mm, oldingi sirti egriligining radiusi o'rtacha 10 mm, orqa egriligining radiusi 6 mm Gavhar moddasining singdirish ko'rsatkichi 1,4 dan kattaroq. Muguz parda va gavhar orqasida ko'zning oldingi kamerasi 8 joylashgan bo'lib, u suvsimon namlik bilan, ya'ni optik xossalari bo'yicha suvga yaqin bo'lgan suyuqlik bilan to'lgan. Ko'zning gavharidan tortib, to orqa devorigacha bo'lgan butun ichki qismi shaffof, shishasimon jism (9) deb ataluvchi dirildoq massaga to'la bo'ladi. Shishasimon jismning sindirish ko'rsatkichi suv naminiki kabidir.



51 – rasm. Ko'z kosasining sxematik ko'rinishi

Ko'znig yuqorida ko'rib chiqilgan elementlari asosan uning yorug'lik o'tkazuvchi apparatiga tegishlidir. Ko'rav nervi 10 ko'z kosasiga orqa devordan kirib tarmoqlangach, u ko'zning eng ichki to'r yoki ko'zning yorug'likni qabul qiluvchi apparati (retseptori) bo'lgan to'r pardaga yoki ratina 11 ga o'tadi. To'r parda bir necha qatlamdan iborat bo'lib, qatlamlarning qalinligi va yorug'likka sezgirligi bir xil emas, unda periferik uchlari turli shakllarga ega bo'lgan yorug'lik sezgir ko'rav hujayralari joylashgan. Ularning cho'zinchoq uchlari tayyoqchalar, konussimon uchlari kolbachalar deyiladi. Tayyoqchalarining uzunligi 63 - 81 mkm, diametri 1,8 mkm ga yaqin. Kolbachalar esa mos holda 35 mkm va 5-6 mkm bo'ladi. Kishi ko'zining to'r qatlamida 130 millionga yaqin tayoqcha va 7 million kolbacha joylashgan.

Ko‘rvu nervi kirgan joyda yorug‘likni sezmaydigan ko‘zning ko‘r dog‘i 12 mavjud. To‘r pardaning o‘rtasida, chekkaga sal yaqin yerda, yorug‘likka eng sezgir bo‘lgan sariq dog‘ 13 yotadi, uning markaziy qismi taxminan 0,4 mm diamertga teng.

Kolbachalar va tayoqchalar to‘r parda ustida bir tekisda taqsimlangan. Kolbachalar to‘r pardaning asosan o‘rtasida, sariq dog‘da joylashgan, sariq dog‘ining markazida faqat kolbachalar turadi, to‘r pardaning chetlarida esa faqat tayoqchalar joylashgan.

**Dastlab ko‘zning yorug‘lik o‘tkazish apparatining xususiyatlarini ko‘rib chiqamiz:** Ko‘zni - muguz parda, oldingi kamera suyuqligi va gavhar (to‘rt sindiruvchi sirt) dan iborat va oldindan havo, orqasidan esa shishasimon jism bilan chegaralovchi, markazlashgan optik sistema kabi tasavvur etish mumkin. Bosh optik o‘q 00 (51-rasm) muguz pardaning, qorachig‘ining va gavharining geometrik markazlaridan o‘tadi. Bundan tashqari yana ko‘zning 0°!

ko‘rvu o‘qini ham mavjud ko‘rvu o‘qi eng yaxshi yorug‘lik sezilish yo‘nalishini belgilaydi va gavhar bilan sariq dog‘ markazlaridan o‘tadi. Bosh optik va ko‘rvu o‘qlari orasidagi burchak taxminan 5° ni tashkil qiladi.

52-rasmda biror o‘rtacha normal ko‘z uchun fokuslar, bosh nuqtalar, tekisliklar va tugun nuqtalar ko‘rsatilgan (masofalar millimetrlarda berilgan). Soddalashtirish maqsadida ko‘pincha bu sistemanı keltirilgan reduksiyalangan ko‘z bilan, ya’ni buyumlar fazasi tomonidan sindirish ko‘rsatkichi  $h = 1,336$  ga teng suyuqlik bilan o‘ralgan linza bilan almashtiriladi. Keltirilgan ko‘z moddalarining birida yagona bosh tekislik muguz pardaning oldingi sirtidan 1,6 mm masofada turadi, tugun nuqtalar mos kelgan bo‘lib, muguz parda sirtidan 7,2 mm masofada joylashgandir.


Yorug‘likning asosiy sinishi muguz pardaning tashqi chegarasida yuz beradi, butun muguz pardaning optik kuchi taxminan 40 dioptriyaga, gavharniki taxminan 20 dioptriyaga, butun ko‘zniki esa 60 dioptriyaga yaqin.

Turli uzoqlikdagi jismlar to‘r pardada bir xil ravshanlikdagi tasvir berishi kerak. Buni amalga oshirish uchun, bosh tekislik bilan to‘r parda orasidagi masofa  $a_2$  ni fotoapparatlarda qilinadiganga o‘xhash o‘zgartirish kerak yoki gavhar egriliginini, demak,  $f_1$  va  $f_2$  fokus masofalarini o‘zgartirish kerak. Odam ko‘zida ikkinchi hol amalga oshiriladi.

Ko‘zning bunday har xil uzoqlikda joylashgan jismlarni ravshan ko‘rishga moslasha olishiga «keskinlikka to‘grilanishiga» akkomodatsiya deyiladi.

Jism chekzislikka joylashgan bo‘lsa, uning normal ko‘zdagi tasviri to‘r pardada bo‘ladi. Bu vaqtida gavhar cheksizlikka akkomodatsiyalanadi va uning optik kuchi minimal bo‘ladi. Jism ko‘zga yaqinlashadigan bo‘lsa, u holda gavharning egriligi kattalashadi, jism qancha yaqin bo‘lsa, ko‘zning optik kuchi shuncha katta bo‘ladi, uning o‘zgarishlari taxminan 60-0 dptr. chegarasida bo‘ladi.

Sog‘lom katta odamga jism ko‘zga 25 sm masofagacha yaqinlashgan vaqtida akkomodatsiya kuchlanishsiz ro‘y beradi va qo‘ldagi buyumlarni ko‘rishga o‘rganilib qolganligi sababli ko‘z hammadan ko‘p, ayniqsa shu masofaga akkomodatsiyalanadi, shuning uchun bu masofaga eng yaxshi ko‘rish masofasi deyiladi.



52– rasm. Normal ko‘z uchun fokuslar, bosh nuqtalar, tekisliklar va tugun nuqtalar ifodasi

Undan ham yaqin turgan buyumlarni ko‘rish uchun akkomodatsion apparatni zo‘riqtirishga to‘gri keladi. To‘r pardada tasvirning ravshan ko‘rinishini hali ta’minlay oladigan ko‘z bilan buyum ko‘zning yaqin nuqtasi (aniq ko‘rinishning yaqin nuqtasi) deyiladi. Yosh ulg‘ayg‘an sari ko‘zning yaqin nuqtasigacha bo‘lgan masofa kattalashadi, demak, akkomodatsiya kamayadi.

To‘r pardadagi tasvirning kattaligi faqat buyum kattaligiga bog‘liq bo‘lmay, uning ko‘zdan uzoqligiga ham, ya’ni jismning ko‘rinish burchagiga bog‘liq bo‘ladi. Shunga ko‘ra ko‘rish burchagi tushunchasi kiritiladi. Bu buyumning chetki nuqtalaridan o‘tuvchi nurlar orasidagi burchakdir (53-rasm).


Rasmdan ko‘rinishicha, birinchidan har xil KM va QP buyumlar bir xil ko‘rish burchagi  $\beta$  ga ega bo‘lishi mumkin, ikkinchidan, ko‘rish burchagi to‘r pardadagi tasvir kattaligini to‘la ravishda aniqlay oladi:

$$b = l\beta,$$

bu yerda 1-yagona tugun nukta N bilan to‘r parda orasidagi masofa ( $l=17$  mm). formula ko‘rish burchagi kichik deb tasavvur etilgan hol uchun hosil qilingan. 6.3-rasmdan buyum kattaligi (o‘lchami) B bilan, uning ko‘zgacha bo‘lgan masofasi L orasidagi bog‘lanishni, aniqrog‘i tugun nuqtalar va ko‘rish burchagi  $\beta$  orasidagi bog‘lanishni aniqlash oson:

$$B = L\beta,$$

Bundan nazarda tutsak,  $b = 1B/L$  (3) ga ega bo‘lamiz.



53– rasm. Ko‘zning ko‘rish burchagi

Ko‘zning ajrata olish qobiliyatini tasvirlashda eng kichik ko‘rish burchagidan foydalaniladi, bu burchakda odam ko‘zi buyumning ikki nuqtasini hali ajrata olish qobiliyatiga ega bo‘ladi. Bu burchak taxminan 1 ga teng, bu eng yaxshi ko‘rish masofasida turgan nuqtalarning orasi 70 mkm ga teng bo‘lishiga mos keladi.

Bu holda to‘r pardadagi tasvirning kattaligi [(6.1)ga qarang] 5 mkm ga teng, bu esa to‘r pardadagi kolbachalardan ikkitasining orasida bo‘lgan o‘rtacha masofaga teng. Shuning uchun, agar ikki nuqtaning tasviri to‘r pardadan 5 mkm dan qisqaroq chiziqni egallaydigan bo‘lsa, u holda bunday nuqtalar ajralib ko‘rinmaydi, ya’ni ko‘z ularni ajrata olmaydi.

Yorug‘lik difraksiyasi tufayli hosil bo‘luvchi chegaralanishlar hisobga olinganda ham eng kichik ko‘rish burchagini xuddi shunday qiymati olingan bo‘ladi. Tabiatdagi maqsadga muvofiqlik «hech narsa ortiqcha emasligi» kishini hayron qoldiradi, to‘r pardaning yuza birligiga to‘g‘ri keluvchi kolbachalar soni geometrik optikaning chegaraviy imkoniyatlariga javob beradi.

Ko‘zning ajrata olish qibiliyatini tibbiyotda ko‘rish o‘tkirligi bilan baholaydilar. Ko‘rish o‘tkirligining normasi deb bir qabul qilinadi, bu holda eng kichik kurish burchagi 1' ga teng bo‘ladi.

Og‘ish vaqtlarida eng kichik ko‘rish burchagi minutdan qancha katta bo‘lsa, ko‘zning ko‘rish o‘tkirligi normadan shuncha kam bo‘ladi. Agar bemorning eng kichik ko‘rish burchagi 4' ga teng bo‘lsa, uning ko‘zi  $1:4 = 0,25$  o‘tkirlikka ega bo‘ladi.

Ayrim hollarda odamning ko‘zi 1' burchakka mos kelgandan ham maydarloq kattaliklardan ajrata oladi. Masalan, harakatlanuvchi jismlarning siljishi yoy bo‘yicha 20" ga yetganga seziladi, ikki ingichka chiziqdani birini ikkinchisi ustiga tushmaganligini ular orasidagi burchak 12" bo‘lganidayoq bilinadi va hokazo. Fizik o‘lchashlarda ko‘pincha strelkasi shkalaning nolinchidari asboblar (shtrixidan) siljimasligi kerak bo‘lgan asboblar (potensiometrlar, ko‘priklar) ko‘p ishlatilmoqda. Ko‘zning kichik chiziqlarining siljishini sezal olish qibiliyati tufayli bunday asboblar strelkasi bilan shtrixi orasidagi masofasi aniqlanadigan asboblarga ko‘ra ancha aniqroq ko‘rsatishlar bera oladi.

Linzalarga xos aberratsiyalar ko‘zda deyarli sezilmaydi. Sferik aberratsiya qorachik kichik bo‘lgani uchun bilinmaydi va faqat oqshomlari qorachiq kengayganda namoyon bo‘ladi; bunda tasvirlar ravshan emas. Ko‘z axromatik

sistema bo‘lmasa ham, biroq nurlanishning ko‘rinuvchanligi tanlanuvchi va qorachiq o‘lchovi kichik bo‘lgani tufayli xromatik aberratsiya sezilmaydi. Qiya dastalar astigmatizmi ro‘y bermaydi, chunki ko‘z hamisha kuzatiluvchi buyum tomonga qaratiladi.

Optik sistemaning asimmetriyasi tufayli hosil bo‘luvchi astigmatizm bundan istisnodir (muguz parda yoki ko‘z gavharining nosferik shaklda ekanligi).

Bu, xususan, sinov o‘tkazish jadvalida ko‘zning ikkita o‘zaro perpendikulyar chiziqlari bir xil aniq ko‘rish qobiliyatiga ega emasligida namoyon bo‘ladi. Ko‘zning bunday kamchiligi maxsus silindrik linzali ko‘zoynaklar yordamida kompensatsiyalanadi. Ko‘zning optik sistemasiga ba’zi o‘ziga xos kamchiliklar xosdir.

Akkomodatsiya yo‘qligida normal ko‘zning orqa fokusi to‘r pardada to‘g‘ri keladi, bunday ko‘zda *emmetropik* ko‘z deyiladi va bu shart bajarilmaydigan hollarda *ametropik* ko‘z deyiladi.

Ametropiyaning eng ko‘p tarqalgan ko‘rinishlari *yaqindan ko‘rish* (miopiya) va *uzoqdan ko‘rish* (gipermetropiya) hisoblanadi. Yaqindan ko‘rish ko‘z kamchiligi bo‘lib, akkomodatsiya yo‘qligida orqa fokusining to‘r parda oldida yotishdan iboratdir: uzoqdan ko‘rish vaqtida, akkomodatsiya yo‘qligida, orqa fokus to‘r parda orqasida yotadi. Yaqindan ko‘ruvchi ko‘zni korreksiyalash (tuzatish) uchun sochuvchi linza, uzoqdan ko‘ruvchi ko‘zni tuzatish uchun – yig‘uvchi linza ishlatiladi.

Yuqorida ko‘rsatilgan odam ko‘zining kamchiliklarini PZ-01 ko‘rish o‘tkirligini aniqlash pribori yordamida o‘rganish mumkin.

PZ - 01 ko‘z o‘tkirligini aniqlash pribori, odam ko‘zi o‘tkirligining parametrlerini avtomatlashirilgan holda tekshirish uchun belgilangandir. Pribor poliklinika va klinik tashkilotlarda, «VTEK» va boshqa ixtisoslashgan ko‘z kabinetlarida ommaviy va individual tekshirishlar uchun tatbiq qilinadi.

Pribor atrof muhit iemperaturasi yopiq va issiq xonalarda 238 dan 308 K ( $10^{\circ}$  dan  $35^{\circ}$  C) gacha nisbiy namlik  $293 \pm 5$ K ( $20^{\circ} \pm 5^{\circ}$  C) temperaturada,  $65 \pm 15\%$  atmosfera bosimi  $750 \pm 30$  mm sim.ust. ( $100 \pm 4$ ) kPa sharoitida ishlatiladi.

Pribor o‘z – o‘zini tekshirish rejimida (avtomatik-qati‘y dastur asosida), distansion rejimda (tibbiyot xodimi vrach pulti bilan) ko‘rish o‘tkirligini tekshirishni ta‘minlaydi. Ko‘rish o‘tkirligini aniqlash paytida test-obyektlari tablosida Landolta halkasi, sutsimon ko‘rinishda yoritiladi. Pribor test - obyektlarini o‘n ikki optometrik shkala bo‘yicha; 0,1-1,0; 1,5; 2,0 chegaralarida avtomatik distansion ko‘rsatilishini ta‘minlaydi.

Pribor test-obyektlarni 0,1 shkalasidan 1,0 shkalasigacha bo‘lgan diskretlik ko‘rsatilishi 0,1 ga tengligini hamda 1,5 va 2,0 shkalalarda tegishli test-obyektlari diskretlar ko‘rsatilishini ta‘minlaydi. Avtomatik rejimda ko‘rsatiladigan test-obyektlar miqdori optometrik shkala uchun: 0,1 bir test-obyekt, 0,2 ikkita test-ob‘ekt, 0,3-2,0 uchta test- obyekt.

Test-obyektlarni yoritilganlik foni  $500 \text{ lm/m}^2$ , priborning nominal kuchlanishdagi iste’mol quvvati kamida 70 Vt, priborni uzluksiz 8 soatgacha ishlatish ruxsat etiladi. U ekspluatatsiya sharoitiga qarab GOST 20790-82 bo‘yicha 2-gruppa, V klass, 4,2 kategoriya priborlariga kiradi.

O'rnatilgandan buzilmasdan ishlash muddati 1500 soat Bo'lib, 4000 soat ishlagandan so'ng xizmat muddatini o'tgan hisoblanadi. O'rnatilgan (ruxsat etilgan) xizmat muddati ishga yaroqsiz bo'lgancha 2 yil bo'lib, o'rtacha xizmat muddati kamida 5 yil hisoblanadi.

Priborning umumiy kurinishi 54- rasmda va elektrik strukturaviy sxemasi 55-rasmda ko'rsatilgan bo'lib u sinaladigan pult (PI), vrach pulti (PV), ishslash bloki (BO), test obyektlari tablosi (TTO), ulanadigan kabel o'ramlari komplektidan iborat .


Priborning foydalanishiga qarab lokal yorituvchi yagona test ob'ektlarini ko'chirish usuli bilan qulay joylashtiriladi. Agar sinovchi yoritilgan TTO test-obyektlar tablosidagi optometrik shkalani 5 metr masofadan ikki marta to'g'ri (yoki noto'g'ri) tanisa (tanimasa), bu holda optometrik shkala tanigan (yoki tanimagan) hisoblanadi. Mumkin qadar tekshirish 5 metrdan kamroq masofada o'tkaziladi. Bu holda optometrik shkalani qaytadan sinash tibbiyot xodimi tomonidan amalga oshiriladi. O'z-o'zini tekshirish rejimida test-obyektlarning ketma-ket yoritilishi soni har bir shkalada uchdan ko'p bo'lmaydi. Optometrik shkala tartibi bo'yicha boshqasiga sinovchi javobining natijasi bo'yicha qat'iy dastur asosida avtomatik amalga oshiriladi. Priborga ko'rish o'tkirligining tekshirish natijasi kodi va vkladish nomerini berish uchun «sifropechat» chiqish razyomi ko'rsatilgan.

**Pribor quyidagicha ishlaydi.** Ko'rish o'tkirligini tekshirishdan oldin PV klaviaturasi bilan (tibbiyot xodimining erkin tanlashi bo'yicha) boshlang'ich optometrik shkalasi kiritilgan, shu bilan bemorni tekshirish boshlanadi. Bemor vkladishni PI ning qabul qilish cho'ntagiga tushuradi. Tanlangan shkala bo'yicha axborot PV ning raqam indikatorida tasvirlanadi va ikkilik-o'nlik kod orqali «BO» ga beriladi. Bu axborot BO ga xotiraga olinadi, qayta kuchaytiriladi va TTO ning yoritgichlar matritsasiga kiradi va PI yoki PV ning markaziy krestovina (chillak) klavishini barmoq bilan bosib optometrik shkalalar bo'yicha tanlangan test-obyektlarning uchtadan biri yoritiladi.

Bemor, qalqoncha (shitkom) bilan chap ko'zini yopib, 5 metr masofadan TTO test-obyektiiga yoritilanlikning yoritilish yo'nalishini aniqlaydi va PI paneli yuzasidagi krestovina shaklidagi sensorli moslama markazidan (54-rasm) barmoqni yuritish bilan yoritilishini biladigan tomonga javob kiritiladi. PI krestovinasining konstruksiyasi ko'rish analizatorini TTO dan PI ga ulamasdan javobni kiritishga imkon beradi.

Sensorli klavishni PI yoki PVga ulanganda axborot BO ga uzatiladi. II klavishini bosganda BO javob natijasini tahlil qiladi va navbatdagagi dastlab tanlangan optometrik shkalalar test-ob'ektning yoritilishiga komanda beradi. H klavishini PI yoki PV ga ketma-ket ulanganda, P bemorga optometrik shkalaning test obyekti bir gradatsiyaga past yoritiladi.

Test - obyektni ikki marta tanishi (yoki notanishi) holatida axborot BO dan TTO ga beriladi, bunda optometrik shkalaning test obyekti yoritilish bir diskretga oshadi (yoki kamayadi).



54 - rasm. PZ-01 ko‘z o‘tkirligini aniqlash priborining umumiyo ko‘rinishi: 1-sinaladigan pult, 2 - vrach pulti, 3 - ishlash bloki, 4 – test - ob’ektlari tablosi, 5 – vkladish.


Optometrik shkalani dastlabki qaytarishda (bemorni oxirgi tanishtirganda) ko‘rsatilgan shkalani tanimasligi holatida hamda 2,0 shkalani ikki marta tanishi yoki 0,1 shkalani ikki marta tanimasligida, bu ko‘zning o‘tkirligini tekshirish tugatiladi.

Bu holda: PV ga o‘ng ko‘z ko‘rish o‘tkirligining raqamli indikatori VOD o‘chadi va tovush signalizatsiyasi ulanadi. Signalizatsiyaning tugashi bilan chap ko‘z ko‘rish o‘tkirliging raqamli indikatori VOS ulanadi. Bu holda unda dastlabki kiritilgan optometrik shkala aks ettiriladi; TTO ga optometrik shkalaga mos testobyekt yoritiladi, uning nomeri VOS PV ga indutsirlanadi.

Ko‘rish o‘tkirligini kuzatish sikli chap ko‘z uchun va binokulyar ko‘rish (ikki ko‘z bilan ko‘rish) yuqorida ko‘rsatilgani singari takrorlanadi, shu bilan birga binokulyar ko‘rishning natijasi PV va VBIN binokulyar ko‘rishning raqamli indikatoriga yoritiladi.

**Priborda quyidagilarni bajarish mumkin:** 1) Binokulyar ko‘rish va chap o‘ng ko‘zlarning ko‘rish o‘tkirligini tekshirish. (PV ning orqasidagi pereklyuchatel I holatda turadi). 2) Chap va o‘ng ko‘zlarning o‘tkirligini tekshirish (pereklyuchatel II-holatda turadi).

Birinchi holatdan VOD, VOS, VBIN larda tekshirish tugashi bilan kuzatish natijasi bo‘yicha axborot yoritiladi.



55– rasm. Priborning strukturaviy elektr sxemasi

#### Takrorlash uchun savollar:

- 1- PZ-01 priborning vazifikasi va tatbiqi nimadan iborat?
- 2- Priborda ishlashning xavfsizlik texnikasi qoidalari nimalardan iborat?
- 3- PZ-01 ning asosiy qismlarni tushuntiring.
- 4- PV va PI blokclarining vazifikasi nimadan iborat?

#### **16 - AMALIY MASHG‘ULOT** **Jarrohlik amaliyoti uchun majmular**

Hozirgi vaqtida yuqori darajada effektiv tibbiyat xizmati ko‘rsatish uchun jahon standartlari talablariga javob beradigan xirurgik operatsiyalarda qo‘llaniladigan o‘ta sifatli materiallardan tayyorlangan yuqori sifatli yangi ultra texnologiyalar darajasidagi jihozlar lozim. Masalan, shunday xirurgik jihozlardan biri operatsion stol bo‘lib, u mustahkam karkasli, sifatli zanglamaydigan po‘latdan tayyorlanishi, optimal dezinfeksion ishlov berish uchun yoriqsiz turg‘un bo‘lmagan poliuretanli qoplama ga ega bo‘lishi va turli plandagi operatsiyalarni o‘tkazishda uning ko‘p funktsiyaliliginini ta’minlovchi kompleks jihozlarga ega bo‘lishi lozim. Bunday xirurgik kompleks jihozlar barcha xirurgik bo‘limlarda zarur bo‘lib, ularga alohida talablar qo‘yiladi. Qo‘sishma qilib shuni aytish kerakki, lazer xirurgiyasi tipidagi yoki elektroxirurgik apparatlar kabi tibbiyat jihozlari katta qiymatga ega. Bular o‘zining foydalanish maqsadlariga qarab ya’ni yengil kosmetologik va birmuncha murakkab yumshoq to‘qimalarda xirurgik kesishlarning bajarilishida bilan yuqori texnologik jihozlar bo‘lib hisoblanadi. Bunday jihozlardan xirurgiyada foydalanish ya’ni qon tomirlarini

tez koagulyatsiya qilishda va yuqori aniqlikdagi kesishi hisobidan minimal qon ketishi va to‘qimalarning juda oz jarohatlanishi uchun katta ahamiyatga ega.

Bu jarayonlarda elektroxirurgiyada elektrmagnit tebranishlar elektrodlarga uzatiladi, ular yordamida to‘qimalarni kesish yoki koagulyatsiya qilish mumkin. Elektrodlarni bir qutbli va ikki qutbli elektroxirurgiyalar uchun ajratiladi. Birinchi holda generator apparatining bitta chiqishi elektroxirurgiyani amalga oshiradigan aktiv elektrod bilan ulanadi, boshqa elektrod – passiv elektrod bemor tanasi bilan kontaktda bo‘ladi. Ikkinchi holda generatorning ikkala chiqishi ikkita aktiv elektrod bilan ulanadi, ularning orasidan yuqori chastotali tok o‘tib, xirurgik tasir ko‘rsatadi. Bu holda ikkala elektrod aktiv hisoblanadi, passiv elektrod esa ishlatilmaydi.

Shuning uchun bunday klassdagi texnika zamonaviy tibbiyotda yuqori baholanadi va barcha klinikalarda bo‘lishi shart. Barcha murakkab operatsiyalarni bajarish zamonaviy jihozlarni talab etadi. Chunonchi, operatsion xonalarda quyidagi jihozlar – operatsion stollar, yoritgichlar, lazer xirurgiyasi uchun apparatlar, yuqori chastotali elektroxirurgik apparatlar va h. k. bo‘lishi lozim.

Bunday operatsion jihozlar barcha operatsiyalarni bajarishda maksimal qulaylik va professional sharoitni ta'minlaydi. Zamonaviy xirurgiya o‘zining tutgan o‘rni bo‘yicha, operatsiya jarayonlarining maksimum oddiy va texnologik mukammal o‘tishiga imkoniyat yaratuvchi va o‘z navbatida operatsiyaning muvaffaqiyatli o‘tishini kafolatlovchi darajada yetarli katta assortimentdagi jihozlarga ega bo‘lishi kerak, xirurgiyaning har bir sohasi uchun operatsion xonalarda muayyan ko‘rinishdagi jihozlar bo‘lishini talab qiladi. Odatda yuqorida ko‘rsatilgan standart bo‘yicha jihozlar bilan ta'minlanadi. Quyida mana shunday jihozlarning ayrim turlari bilan tanishib chiqamiz.

**Yuqori chastotali (YuCh) elektroxirurgik «Politom -2» apparati.** «Politom -2» apparati (56-rasm) tibbiyot muassasalarining operatsion xonalari sharoitida, umumiy xirurgiyada organizmning yumshoq to‘qimalarini YuCh tok bilan monopolyar va bipolyar koagulyatsiya qilish va qirqish uchun foydalilaniladi.

Apparat to‘qimalarni minimal termik destruksiyasida maksimal koagulyatsiyalash effektini ta'minlaydi. Apparat turli qon bilan to‘lgan to‘qimalarni kesishda kerakli gemostazni tanlashni ta'minlaydi.

Termostabilizirlashtirilgan bipolyar pinsetlar nagar (kuygan qoldiqlar) hosil bo‘lishini yo‘qotadi va koagulyatsiya o‘chog‘ini maksimal darajada lokalizatsiyalaydi. Plastikaviy passiv elektrodlar, elektrodlar qo‘llanilgan sohalardagi kuygan yaralarni chiqarib tashlashga foydalilaniladi. Apparatning texnik xarakteristikasi 5 - jadvalda keltirilgan.



56- rasm. «Politom -2» YuCh elektroxirurgik apparatning umumiyo ko‘rinishi

«Politom-2» apparatining elektr xavfsizligi va ishchi xarakteristikalarini xalqaro standart talablariga javob beradi.

#### **«FOTEK E350» YuCh elektroxirurgik apparati.**

«FOTEK E350» apparati (57 - rasm)

umumiyo xirurgiya, ginekologiya, endoskopiya va laparoskopiya uchun foydalanishga mÿljallangan. Apparatning texnik

xarakteristikasi 6 - jadvalda keltirilgan.

5 - jadval

Nº	Kattaliklar	Parametrlar
1	Ishchi chastota, kGts	440
2	Chiqish quvvati, Vt a) qirqish b) koagulyatsiya d) bipolyar koagulyatsiya	220 140 60
3	Apparatning massasi, kG	16
4	Gabarit andozasi, mm	400x300x300

6 - jadval

Nº	Kattaliklar	Parametrlar
1	Maksimal huvvat, Vt	350
2	Manbadan iste'mol miqdori, V	180-250
3	Chastota, Gts	50 - 60
4	Gabarit andozasi, mm	300x170x330
5	Og‘irligi, kG	4,5

**«EXVCh-12-MEDSI» YuCh elektroxirurgik apparati.** «EXVCh-12-MEDSI» (epilyator) apparati (3.3- rasm) termoliz usulida faqatgina elektroepilyatsiya uchun

foydalilaniladi. Epilyatsiya volfram tolasi yoki birmartali sterillangan igna yordamida o‘tkazilishi mumukin. Apparatning texnik xarakteristikasi 7 - jadvalda yoritilgan.



57 - rasm. «FOTEK E350» YuCh elektroxirurgik apparatning umumiyo ko‘rinishi

7 - jadval

<b>№</b>	<b>Kattaliklar</b>	<b>Parametrlar</b>
1	Maksimal chiqish quvvati, Vt a) chiqish 1 da b) chiqish 2 da	3 12
3	Apparat komplekti: a) Epilyatsion elektrrtutqich, dona b) 08 va 0,1 mm li volfram elektrodlar, dona	1 2

**«EXVCh-20-01» YuCh elektroxirurgik apparati.** «EXVCh-20-01» apparati (59- rasm) xirurgik operatsiyalar jarayonida YuCh tok yordamida monopolyar usuli bilan biologik to‘qimalarni koagulyatsiya qilish uchun belgilangan. Bundan tashqari 58-rasm. «EXVCh-12-MEDSI» elektroepilyatsiya apparatning umumiyo ko‘rinishi EXVCh apparati mayda to‘qimalarni va mayda qon o‘tkazuvchi tomirlarni elektrodlar yordamida kesish va koagulyatsiya qilish uchun ham foydalilaniladi. «EXVCh-20-01» apparati yarimo‘tkazgichli diodlar va integral sxemalar asosida



59- rasm. «EXVCh-20-01» YuCh elektroxirurgiya apparatning umumiyo ko‘rinishi

tayyorlangan. U barcha texnik talablarga asosan xalqaro standartlar talabiga javob beradi. Apparat stomatologiya va dermatologiya hamda oftalmologik markazlarda xirurgik operatsiyalarni bajarishga tatbiq qilinadi.

Apparatning texnik xarakteristikasi haqidagi ma'lumotlar 8-jadvalda keltirilgan.



60 - rasm. «FOTEK EA142V» YuCh elektroxirurgiya apparatning umumiyo ko‘rinishi  
8 - jadval

<b>Nº</b>	<b>Kattaliklar</b>	<b>Parametrlar</b>
1	Ishchi chastotasi, MGts	2,64
2	Modulyatsiya chastotasi, kGts	10
3	Maksimal chiqish quvvati, Vt:	
	a) uzluksiz rejimda, kamida	25
	b) impulsli rejimda, kamida	10
4	O‘rtacha iste’mol quvvati, kamida, Vt	50
5	Gabarit andozasi, mm	341x290x142
6	Og‘irligi, kG	5

**«FOTEK EA142V» YuCh elektroxirurgik apparati.** «FOTEK EA142V» YuCh elektroxirurgik apparati parenximatoz organlarning effektiv xirurgiyasi va kapillyarlarda keng miqdorda qon oqishini to‘xtatish uchun tatbiq etiladi. Xirurgiya amaliyotida cheklangan bo‘sliqlarda hamda ochiq usulda qilinadigan operatsiyalar jarayonida samarali koagulyatsiya imkoniyatini ta’minlaydi (masalan, endoskopiyada). Apparatning texnik xarakteristikasi haqidagi ma'lumotlar 9 - jadvalda keltirilgan.

**«ALOD-01 AGAT SENSOR» lazerli xirurgik apparati.** «ALOD-01 AGAT SENSOR» nurlanish quvvati rostlanadigan, yaqin IQ - diapazonidagi lazerli xirurgik apparati (3.6-rasm) boshqa modeldagi bunday apparatlardan nurlanish parametrlarini boshqarishning zamonaviy sistemasi bilan farq qiladi.

9 - jadval

<b>№</b>	<b>Kattaliklar</b>	<b>Parametrlar</b>
1	Maksimal quvvati, Vt	140
2	Maksimal chiqish kuchlanishi, kV	9
3	Berilgan diapazondagi gazning hajmiy sarflanishi, l/daq	0,5 ÷ 8,0
4	Ta'minlash kuchlanishi, V	220 ÷ 250
5	Chastota, Gts	50
6	Gabarit andozasi, mm	300x330x170
7	Og'irligi, kG	6,5

Apparat interstitsial gipertermiya, koagulyatsiya, to'qimalarni qirqishda, vaporizatsiya, fototermoliz va h.k. lar uchun tatbiq qilinadi. Apparat quyidagi yutuqlarga ega: SMA-905 optik razyomini barcha jahon standartlari asosida ishlab chiqilgan yorug'lik o'tkazgichlar bilan ishlatalish mumkin.



61 - rasm. «ALOD-01 AGAT SENSOR» YuCh lazerli xirurgik apparatining umumiyo ko'rinishi

Uzoq muddatli ekspluatatsiya davrida servis va texnik xizmat ko'rsatish talab



etilmaydi. Lazer moslamalarining ishlashi kamida 5000 soatni tashkil etadi.

Apparat kichik gabaritli bo‘lib, yarimo‘tkazgichli lazer moslamalari ish rejimini yengil o‘zgartirishga imkon beradi. Turli ko‘rinishdagi yorug‘lik o‘tkazgichlari xirurgik sistema bilan birga quyidagi ta’sirlanishning lokalligi, to‘qimalarning minimal shikastlanishini, sterillikni, gemo- va limfostaz effektivligini, yorug‘lik o‘tkazuvchi instrumentlarning tipiga bog‘liq holda kontaktli va kontaktsiz ta’sir usulini, ochiq usulda va endoskop orqali kateter, troakar va ignalar bilan ta’sir etish va h.k. larni ta’minlaydi. Apparatning texnik xarakteristikasiga tegishli ayrim ma'lumotlar 10 - jadvalda keltirilgan.

**«MEDIOLA COMPACT» lazerli sistema apparati.** «MEDIOLA COMPACT» lazerli sistema (62 - rasm) – bu ekspert klassdagi ikki to‘lqinli diod – tolali xirurgik lazerli sistema bo‘lib hisoblanadi. Apparat «Bir kunlik xirurgiya» konsepsiysi doirasidagi kompleks masalalarni hal qilish uchun yaratilgan bo‘lib, ko‘p tarmoqli kasalxonalarning qisqa muddatli statsionarlarida bemorlarning zaruriy kelishiga xizmat ko‘rsatishda, poliklinik muassasalarda va shaxsiy klinikalarda foydalaniadi. Apparat ergonomik konstruksiyalni, yuqori ishonchlilikda ishlaydi, ishlatish oddiy va qulay, maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan xodim talab qilinmaydi.

10 - jadval

Nº	Kattaliklar	Parametrlar
1	Lazer nurlanishing to‘lqin uzunligi , mkm	0,81; 0,97; 1,064
2	Nurlanish quvvati, Vt	0,05÷5; 0,1÷10; 0,1÷15; 0,5÷30
3	Ish rejimi	Uzlucksiz, uzlukli
4	Nurlanish impulsining davomiyligi, soniya	0,05 ÷ 5
5	Nurlanish impulslari orasidagi interval, soniya	0,1 ÷ 9,9
6	Ta'minlash kuchlanishi, V	220
7	Ta'minlash quvvati, Vt	80 ÷ 500
8	Markerli nur: yarimo‘tkazgichli diod to‘lqin uzunligi bilan, mkm	0,67
9	Og‘irligi, kG	6

U flebologiya, proktologiya, ginekologiya, estetik xirurgiya va otorinolaringologiya sohalarida tatbiq etiladi. Tibbiyot xizmati ko‘rsatish tarmoqlarini kengaytiradi, xirurgik ta’sirlar effektivligini oshiradi, statsionarlarda bemorlarning kelib – ketish vaqtlarini qisqartiradi, dori – darmonlar va turli materiallarning sarfini qisqartiradi, zamonaviy va yuqori texnologiyali klinikalarning mavqeini oshiradi va yuqori malakali mutaxassislarni jalb qilish imkoniyatini yaratadi.

**Operatsion xonalarda ishlatiladigan apparaturalar:** Operatsion xonalarda birinchisi eng zarur moslama – bu operatsion stol. Xirurgik operatsiyalarini o‘tkazishda,

mijozni joylashtirish va tibbiyot xodimi uchun qulaylik yaratish uchun belgilangan. Bu stollar foydalanishiga qarab umumiy xirurgik (operatsiya uchun),



62 - rasm. «MEDIOLA COMPACT» lazerli sistema xirurgik apparatining umumiy ko‘rinishi

jarohatlarni bog‘lash va ortopedik, otolaringologik, urologik, stomatologik va boshqa operatsiyalarni o‘tkazish uchun bo‘linadi. Mexanizatsiyalashgan darjasasi va konstruktsiyasi bo‘yicha privodli, privodsiz – mexanik, avtomatik boshqaruvchisi bo‘lgan motorli, takrorlanuvchilarga bo‘linadi.

Panel seksiyalarining soni va konstruktsiyasi bo‘yicha – bir seksiyali, ko‘p seksiyali, seksiyalari statsionar va olinadigan; panel materiallarining rentgen o‘tkazuvchanligiga qarab – rentgen o‘tkazuvchan, rentgen o‘tkazmaydiganlarga; harakatlanish (ko‘chish) imkoniyati bo‘yicha – statsionar, ko‘chma vah.k. larga bo‘linadi.

Zamonaviy operatsion stollar mijozlarni yotqizish va operatsiyalarni o‘tkazish, operatsiyadan keyin, jarohatlarga ishlov berish, uni davolash ishlarini davom ettirish uchun qulaylikni taminlaydi. Operatsion stollarning konstruktsiyasi bo‘yicha tayyorlangan materialarni bir necha bor dezinfektsiya qilish uchun rastvorlar ta` siriga chidamli va mijozni rentgen tadqiqotdan o‘tkazish uchun qulay bo‘lishi shart.

Operatsion stollar mijoz va tibbiy xodim uchun xavfsiz, boshqarish uchun qulay va oddiy, shovqin darjasasi eng kam, mustahkam va ishonchli bo‘lishi shart. Operatsion stolning boshqarish elementlari, tumba, panellar va asosdan iborat. Operatsiya xarakteriga qarab ko‘p sektsiali panel yordamida turli lozim bo‘lgan holatlarni olish mumkin. Ko‘pchilik holatlarda stolni gorizontal holatiga qo‘yib uni baland – pastligi o‘zgartiriladi. Akusher-ginekologik va urologik operatsiyalarda bosh tomon past qilib qo‘yiladi. Neyroxirurgik, endokrinologik va boshqa operatsiyalarda bosh tomoni baland qilib qo‘yiladi va h.k.

#### **Operatsion stollar quyidagi turlarga bo‘linadi:**

1. Oddiy universal operatsion stol – konstruktsiyasi bo‘yicha biroz oddiy. Balandligi gidroprivod yordamida, bo‘ylama va yon tomonlardagi holatlari to‘rt sektsiyali panel va alohida seksiyalar yordamida o‘zgartiriladi. Bu tibbiyot xodimiga ancha murakkabliklar tug‘diradi. Stol roliklar yordamida harakatga keltiriladi va tormozli moslamalar bilan to‘xtatiladi.
2. Mexanizatsiyalashgan universal operatsion stol. Bunda rentgen o‘tkazuvchanlik paneli bosh, bel, chanoq, oyoq sohasi va buyrak valiklaridan iborat bo‘lib, bular rentgen

o‘tkazuvchi materiallar bilan qoplangan. Gidravlik sistemaning elementlari joylashgan tumbada boshqarish paneli o‘rnatilgan. Stol kompleksi ilgich, moslamalar, boshni qo‘yadigan joy, oyoq uchun joy, qo‘llar uchun panel, tasmalar, ushlaydigan va qistirib qo‘yadiganlar va boshqalardan iborat.

3. Avtomatlashtirilgan universal operatsion stol. Rentgen o‘tkazuvchi paneli bosh, bel, chanoq sohasi, oyoq va cho‘ziladigan qismlardan iborat. Bosh, oyoq va cho‘ziladigan qismlar ajratib olinadigan. Stol tumbasi va asosida gidro va elektroavtomat elementlari montaj qilingan bo‘lib, ko‘chma pult orqali boshqariladi. Tayanchlar, shtativlar va boshqalar alohida shkafda saqlanadi. Stoldagi motorlar, nasoslar, avtomatika elementlari operatsion zalda shovqinni oshirishi mumkin.
4. Panellari olinadigan va muayyan masofadan boshqariladigan universal operatsion stol. Stolning konstruksiyasi bo‘yicha shovqinni kamaytirish maqsadida ko‘pchilik avtomatik elementlar va qismlar alohida xonada joylashtiriladi va ular boshqaruv pultiga ulanadi. Stolning ko‘pgina qismlari, panellari va yuritish g‘ildiraklari mijozni operatsiyaga tayyorlashda zarar yetkazmaslik uchun va yig‘ishtirish oson bo‘lishi uchun alohida olib qo‘yiladi.
5. Bolalarni operatsiya qilish stoli. Stol konstruksiyasi bo‘yicha operatsiya joyida normal temperatura bo‘lishi uchun qizdirish moslamalari paneli mavjud. Bu maqsadlarda maxsus xirurgik operatsiyalarda stol va kreslolardan foydalaniladi.
6. Otorinolaringologik kreslo. KO-2 kreslosi elektr o‘tkazgichlar bilan ta`minlangan bo‘lib, u katta yoshdagi mijozlarni tekshirish va kichik operatsiyalarni o‘tirgan va yarim yotgan hollarda bajarish uchun mo‘ljallangan. Kresloning KDL-1 modeli pedali gidroprovodlarga moslashtirilgan bo‘lib, bo‘yi 90 - 140 sm gacha bo‘lgan bolalarda xizmat ko‘rsatiladi. Kreslo yoritilgich bilan ta`minlangan, uning holatini vertikaldan 90° gacha o‘zgartirish mumkin.
7. Oftalmologik stol – ko‘z va qo‘srimcha mikroxirurgik operatsiyalari uchun mo‘ljallangan. Stolda vertikal tekisligi bo‘yicha o‘zgartiriladigan buyrak shaklidagi likobcha tutqich, instrumentlar uchun stolcha, qo‘l ushlagich, qo‘l uchun panel, tasmalar, qisqichlar, bosh tagida qo‘yish moslamalar va jarroh qo‘li uchun tayanchlari o‘rnatilgan. Stolning andozasi 2140x590x720 mm<sup>3</sup>, massasi 90 kg.

Yuqorida ko‘rsatilganlardan tashqari maxsus operatsion stollardan zallar va kabinetlarni jihozlash uchun, ginekologik, ortopedik va stomatologik kursilardan, universal rentgenologik stollardan foydalaniladi. Operatsion stollarni dezinfektsiya qilish uchun 3% vodorod peroksidi va 0,5% sun‘iy yuvish aralashmalari qo‘llaniladi.

Xirurgiya va reanimatsiya palatalarida qo‘llaniladigan yuqori texnologik apparatlar sun‘iy qon aylanish, sun‘iy buyrak, sun‘iy yurak va sun‘iy o‘pka ham foydalaniladi.


#### **Takrorlash uchun savollar:**

1. Jarrohlik amaliyotida qanday tibbiyot texnikalaridan foydalaniladi?
2. Xirurgiya uchun maxsus yaratilgan kompleks qurilmalar va asboblar haqida nimalarni bilasiz?
3. Jarrohlik amaliyotida keng qo‘llaniladigan operatsion stollarga ta’rif bering.

## 17 - AMALIY MASHG'ULOT

### Bemor tibbiy holati va biologik parametrlarini ko'rsatish uchun ko'chma va yotoq monitorlari va uning tarkibiy qismlari

Monitor tizimlari (MT) deb bir yoki necha odamning fiziologik kattaliklarini olishni ta'minlaydigan texnik vositalarga aytildi. MTlar bemordan olingan kattaliklarni real vaqt masshtabida ishlab beradi, tahlil qiladi, ko'rsatadi, qayd etadi va zarur bo'lgan boshqaruv signallarini hosil qilib beradi. MTni odamga ulanishining asosiy maqsadi uni holatini boshqarish jarayonini yengillatish bo'lib, yopiq BTS nuqtayi nazaridan ko'rganda uning bir qismi ekanligidandir.



63-rasm. Shifokor operativ nazoratining blok sxemasi

63-rasmda shifokor operativ nazoratining blok sxemasi keltirilgan. Bu soddalashtirilgan BTS strukturasida insonni holatini boshqarish unga ulangan MT yordamida amalga oshiriladi. Bemor – B (boshqariladigan obyekt) V-vrach (shifokor) boshqariladigan ta'sirni amalga oshirishni bajarishga qaror qiladi va amalga oshiradi. Bunday tizimda bemorning holati 3 ta kontur yordamida boshqariladi. Ikkita kontur shifokor tomonidan bevosita ta'sir ko'rsatishda qo'llaniladi bunda fiziologik jarayonlarni kuzatish va qayd qilish (URO-1) oddiy qurilmalar yordamida bajariladi, qayd qilish va axborotlarini kuzatish uchun ma'lumot MT chiqishidan (URO-2) olinadi yana bir kontur faol boshqaruvni maxsus ijrochi (PU) qurilmalar yordamida to'liq avtomatlashgan holda boshqarishni ta'minlaydi. Oxirgi konturning mavjud bo'lishida biz axborot-o'lchov sinfiga ega bo'lgan boshqariladigan BTSlar bilan ishlashimizga to'g'ri keladi va bu tizim tarkibida faol ta'sir etuvchi asboblar mavjud bo'ladi.


#### Monitor tizimlarini sinflarga ajratish.

Tibbiy monitor tizimlari MS davolash muassasalarini turli bo'limlarning texnik ta'minoti uchun foydalaniadi. Masalan operatsiya xonasida operasiyadan keyingi xonalarda, reanimatsiya intensiv terapiya, intensiv kuzatish, kardiologik kuzatish va boshqa bo'lim va xonalarni texnik ta'minotida.

MS ishlatalish maqsadiga ko'ra 3 guruhga ajratiladi operatsiyadan keyingi, kardiologik va umumiyl maqsadga mo'ljallangan, xorijiy davlatlarni adabiyotlarda MS ikki sinfiga ajratiladi. Kardiologik kuzatish palatalari uchun (SSU-coronary care unit) va intensiv kuzatish palatalari uchun (ICU – intensive care unit).

Texnik tayyorlanishiga ko‘ra MS instrumental ya’ni maxsus apparaturalar kompleksi va EHM asosida yig‘ilgan hisoblash mashinalari turlariga ajratiladi.


Bemor holatini nazorat qilishda foydalaniladigan fiziologik parametrlar soniga ko‘ra MSlar bir va ko‘p kanalli bo‘lishi mumkin. Bir vaqtning o‘zida bir necha bemorga xizmat ko‘rsatuvchi MS markaziy kuzatuv postiga ega bo‘lishi mumkin.



64-rasm. MSning blok sxemasi

64-rasmda MSning blok sxemasi keltirilgan. A<sub>1</sub> – fiziologik jarayonlarni (kattaliklarni) elektr signaliga aylantirib kuchaytirish bloki, A<sub>2</sub> – ishlov berilgan natijalarni ko‘rish va qayd qilish bloki. Umumiy holda A<sub>3</sub> blokidan olingan natija shifokordan tashqari shifoxonaning avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimiga ba`zi hujjalalar ko‘rinishida beriladi. A<sub>1</sub> bloki bemor (B) yotadigan krovat yonida joylashtirilgan MS qismida bo‘ladi. A<sub>2</sub> va A<sub>3</sub> bloklar krovat yonida ham, markaziy pult yonida ham joylashishi mumkin. Bu tizimning konfiguratsiyasiga bog‘liq bo‘ladi.

Instrumental va hisoblash MSlarni orasidagi farqni aniqlash uchun 7-rasmda keltirilgan strukturani ko‘rib chiqamiz.




65-rasm. Instrumental va hisoblash MSlar orasidagi farqni aniqlash struktura sxemasi

Fiziologik jarayon haqidagi ma'lumot bemordan (V) datchik (D) orqali o'zgartgich (P) ga uzatiladi. O'zgartgich-kuchaytirgich filtr va boshqa o'zgartirish zanjirlardan iborat bo'lib shifokor (V) ni qiziqtiradigan axborotni chiqish signalidan ajratib beradi va ko'rish hamda qayd etish, tahlil qilish uchun tayyorlab beradi. Instrumental tizimda o'zgartgichdan olingan ma'lumotlar signalni (S) ko'rsatish va qayd qilish qurilmasiga (URO) hamda, axborot belgilarni ajratish blokiga beriladi. Bu blok shartli ravishda mantiqiy blok (AB) deyiladi va berilgan shartga ko'ra signalni solishtiruvchi elektr qurilmasi bo'lib nisbatan murakkab tahlillarni bajara olishi mumkin. Blokdan taxlil natijasida trevoga (T) signali beriladi va bu signal qayd qilish va kuzatish qurilmasiga berilib undan boshqarish uchun ham foydalanish mumkin. MSlar ikki xil boshqarish turiga ega.

Passiv boshqaruv teskari bog'lanishga ega bo'lgan shifokor ishini ham o'ziga olgan MS tomonidan amalga oshiriladi. Bu MS ko'rildigan va tovushli trevoga signalini ishlab berish hisobiga ishlaydi. Aktiv boshqarishda boshqarishning mantiqiy bloki bilan tizimning fiziologik kirishida elektromexanik kontrollar (EmK) bilan bevosita teskari bog'lanish mavjud bo'ladi. EXM bilan bog'langan pereferik qurilmalarni (PU) mavjudligi MS mavjudligi MSida ma'lumotlarni yig'ish va toplash hisobiga ma'lumotlarning maxsus bankini tashkil qilish imkonini beradi.

Elektron texnologiyalar, hisoblash texnikasida yuz bergan rivojlanishlar 20- asr 70-yillarining boshida yangi elektron asboblar mikroprotsessorlarning paydo bo'lishiga olib keldi. Ularning asosiy funksiyalari xotira qurilmasida saqlanadigan dastur asosida boshqariladi. Mikroprotsessorli MS instrumental va hisoblash MSlari afzalliklarini o'z ichiga olgan.

Arterial bosimni (AB) o'lchash blokiga mahkamlanadigan arteriya qon tomiri ustiga o'rnatiladigan kuch datchigi orqali amalga oshiriladi. Elektrokardiogramma (EKG) haqidagi D<sub>1</sub> datchik elektrodlardan va kuch datchigi D<sub>2</sub> dan olingan bosim haqidagi signallarni kuchaytiradi. 40 Gs chegaraviy chastotada filtrlanib dastlabki kuchaytgichda D<sub>k</sub> siqilishga majbur bo'ladi va kuchaytiriladi. Shundan keyin analog raqamli o'zgartgich (ARO') orqali markaziy protsessorga (MPR) beriladi va u yerda signalga ishlov beriladi. Qon bosimi haqidagi dastlabki qiymat operator pulni yordamida (OP) tizimga kiritiladi va bosim haqidagi signal avtomatik ravishda kalibrланади.



66-rasm. Arterial bosimni nazorat qiluvchi monitor tizimi.

O‘lhash haqidagi ma`lumotlar MPRdan bevosita tanlash xotira qurilmasiga (BTXQ<sub>1</sub>) beriladi, OP keltirilgan xizmat axborotini bevosita tanlash xotira qurilmasi 2 (BTXQ<sub>2</sub>) da saqlanadi, ikkala axborot ham mantiqiy bloklar MB<sub>1</sub> va MB<sub>2</sub> orqali display (D) ga uzatiladi. Arterial bosim va EKG haqidagi egri chiziq, yurak qisqarishilari soni (YuQS) va boshqa kattaliklar uzlusiz elektron nurli trubka ekranida ENT real mashtabida namoyon bo‘lib turadi. Elektr ta’minotidagi, sinxronlashdagi nosozliklar haqidagi displaydan olingan ma`lumotlar texnik diagnostika bloki (TDB) orqali MPRga yetkaziladi. Kiritish-chiqarish moduli (KChM) orqali ma`lumotlarni analog yozib oluvchi (AYoOQ) qurilmaga (EKG va arterial qon bosimi haqidagi egri chiziq), signallar yorug‘lik indikatsiya qurilmasiga (YoI), raqamli ma`lumotlar yozish qurilmasiga (YoQ) beriladi. Tizim dasturlanadigan doimiy xotira qurilmasiga ega (DDXQ). Bu xotira qurilmasi axborotlar to‘plami, jadvallar shakli, qayta ishslash dasturlarini saqlaydi.

**Takrorlash uchun savollar:**

1. Monitor tizimlari deb nimalarga aytildi?
2. Monitor tizimlarining sinflanishi?
3. Monitor tizimlarining ishslash prinsipi nimalardan iborat?


**18 – AMALIY MASHG‘ULOT**  
**Elektroensefalogrammani qayd qiluvchi asboblari, ularning vazifasi va**  
**ishslash tamoyili**

Boshning sirtidan elektrodlar yordamida bosh miya elektr faoligini qayd qiluvchi egri chiziq elektroensefalogamma (EEG) deyiladi. EEG bosh miya po‘stlog‘idagi biopotensiallarning sekin o‘zgarishini ifodalaydi va epilepsiya (tutqanoq), bosh miyadagi shishish va miyaning ishslash qobiliyatini aniqlashda qo‘llaniladi. EEGning chastota spektori bemorning aqliy faolligi darajasiga bog‘liq ravishda o‘zgaradi. EEGning chastota diapazoni beshta asosiy ritmga ajratiladi:

- δ – ritm 0.5-4 Gs gacha
- θ – ritm 4-8 Gs gacha
- α – ritm 8-13 Gs gacha
- β – ritm 13-22 Gs gacha
- γ – ritm 22-30 Gs gacha

Ushbu besh ritmdan tashqari qo‘srimcha ravshda ayrim elektr potensiallarining spetsifik shakllari ham tadqiq qilinadi.

Elektroensefalogrammani qayd etishning bir necha otvideniylar tizimi mavjud. Bosh miyani umumiyligi funksional holatini baholashda bir kanalli tizimlardan foydalilaniladi. Bunda bosh miyaning turli qismlaridan olingan signallardan foydalilaniladi<sup>1</sup>. Ko‘p kanalli EEGlarda kanallar soni 8 ta yoki 16 ta bo‘lishi mumkin. EEGni qayd qilishdagi elektrodlarning joylashuvi sxemasi 67-rasmida keltirilgan.




67 - rasm. EEGni qayd qilishdagi elektrodlarning joylashuvi sxemasi

Bu rasmda harflar va belgilar bilan bosh miya sohalari keltirilgan.

F – peshona; C – markaziy ; P – orqa chakka; O – orqa; T – yon chakka; --> - lentanening harakat ko‘rsatkichi keltirilgan.

Elektrodlarni joylashish sxemasi ularning bosh sohalarida bir tekisda joylashishini ta‘minlashi kerak. Elektrodlar bosh miyaning ikkala yarim sharlarida simmetrik holda joylashishlari lozim. Bu turdagи tekshirishlar uchun 10-20 tagacha bir-biriga nisbatan bosh aylanasini 10 yoki 20% ga teng bo‘lgan masofada joylashtirilgan elektrodlar bilan qayd qilish tizimi kengroq tarqalgan.



68 - rasm. EEGni qayd qilishdagi elektrodlarning joylashuvi sxemasi  
monopolyar, bipolyar

Boshqa EEG usullaridagi kabi bu usulda ham monopolyar, biopolyar (7-rasm) otvideniylari yoki ularning modifikatsiyasidan iborat bo‘lgan usullardan foydalilaniladi. Monopolyar otvideniylarda har kanalning ikki elektrodlaridan biri (indifferent) boshning elektr jihatidan neytron bo‘lgan nuqtasi joylashishi kerak. Bunday nuqta sifatida qulqoq nuqtasi tanlanadi. Ikkinchи different elektrod esa bosh miyaning aktivligi


tekshirilayotgan qismiga o‘rnataladi. Bipolyar otvideniylar yordamida qayd qilishda ikki elektrod orasidagi potensiallar farqi barcha kanallar bo‘yicha olinadi. EEGni qayd qilish ishonchlilagini oshirish uchun elektrodlarni joylashgan joyiga bog‘liq bo‘ladi va uning qiymati bir necha mikrovolttdan bir necha yuz mikrovoltgacha bo‘ladi. EEGni yozib oluvchi asbob elektroensefalograf deyiladi. EEGlarda ham kalibrovka signali qo‘llaniladi. EKGning shunday signalidan o‘zining bir qutbliligi bilan farq qiladi. EEG kalibrovka signali ko‘rinishida bo‘ladi va to‘g‘ri burchak shaklidagi signalning o‘zgarmas tok kuchaytirgichi (UPT) orqali o‘rganida hosil bo‘ladi va u EEGning musbat amplitudasi deb yozib olishga oldindan kelishib olingan, EEG qurilmasini asosiy elementlari.

EEG qurilmasi EKGga o‘xshab otvideniylar tizimi, kommutator (otvideniylarni yozib ulash qurilmasi) kuchaytirish bloki, yozib olish qurilmasidan iborat. EKGdan farqli ravishda EEGlarda kuzatuvchi qurilma mavjud. Miya faoliyatini uning massiv holatida kuzatishda olinadigan axborot yetarli emas, shu sababli EEGni qayd qilishda qo‘zg‘atishni turli usullaridan foydalaniлади (elektr, yorug‘lik va tovush kuzatuvchilari).

### **Elektron kuchaytirgichlar.**

EEGning shakliga ko‘ra tekshiruvchida amplituda qiymati, chastotasi fazalar munosabatlari hisobiga olinadi shu sababli qayd qiluvchi apparatura tadqiq qilinayotgan signal haqida to‘liq va aniq manzarani berishi kerak. Bunga erishish uchun EEG kuchaytirgichlariga talablar qo‘yiladi. Kuchaytirgichning A,Ch,X (amplituda chastotaviy xarakteristikasi) 0.2-1000 Gs oralig‘idagi chastotalarda bir tekis va kuchaytirgich kirishidagi kuchlanishga chiziqli bog‘langan bo‘lishi kerak.

Shuningdek, fazoviy siljishning chastotaga chiziqli bog‘langanligi ta’minlanishi kerak. 8-rasmda EEG apparatining struktura sxemasi keltirilgan.



69 - rasm. Elektroensefalogrammaning struktur sxemasi

Bosh sirtidan 23 ta elektrod yordamida olinadigan biopotensiallar ulovchi simlar (otvideniylar kabeli) orqali selektor blokiga uzatiladi. Usullardan biri yordamida EEGni qayd etishda selektor blokining kirish gnezdosida (chuqurchasi) elektrodlardan kelgan simlar qarshiliklar orqali o‘zaro boshqarilishi mumkin. Kalibrovka blokidagi o‘lchanayotgan signallar biokuchlanish kuchaytirgichlari kirishiga beriladi. Bu

kuchaytirgichlarning soni kanallar soniga bog‘liq bo‘ladi. Biokuchlanish kuchaytirgichi (usiliteli napryajeniya) parametrik va differensial kuchaytirgichlaridan iborat bo‘ladi. Qayd qilish kanali va lentani tortuvchi mexanizmda yetarli qiymatdagi kuchlanishni olish maqsadida quvvat bo‘yicha kuchaytirish (UM) kaskadlaridan foydalaniladi. UMLar har bir yoki bir necha kanal uchun bir kanalga ega bo‘lishi mumkin. EEG signaliga ishlov berish EKG signalinikiga o‘xshash bo‘ladi. EEGda kirish signali qiymati kichik bo‘lgani uchun katta kuchaytirish koeffitsiyentiga ega bo‘lgan kuchaytirgichlardan foydalaniladi. Ko‘pincha EEG ko‘p kanalli qilib yozib olinadi (6 dan 32 gacha), kundalik ishda 8 dan 16 ta kanalgacha bo‘lgan EEGlar yozib olinadi. Bunda kuchaytirgichning chastota kengligi 0.1 dan 100 Gs gacha bo‘ladi. EEGlarning takomillashuvi ularni boshqarishni avtomatlashtirish hamda ishlov berishda kompyuterlardan foydalanish yo‘lidan bormoqda. Bemorning tekshiruvi natijalarini, tashxis xulosasini raqamli yoki harfli ko‘rinishida chiqarib bera oladi.


Bosh miya biopotensiallarini qayd etishda EEGlardan tashqari elektroensefaloskop (EES)lardan foydalanilmoqda. Ularda EEG shakli ossilloskop ekranidagi nur yorqinligining o‘zgarishi bilan kuzatiladi. Zamonaviy EEGlar manba xalaqitlarini yo‘qotuvchi maxsus filtrlarga ega bo‘lgani sababli ularning elektr xalaqitlaridan ekranlaydigan kamerani ishlatish shart emas.

#### **Takrorlash uchun savollar:**

1. Elektroensefalogramma va uni olishning fizik asoslari.
2. EEG tarmoqlarni qayd qilish metodi.
3. Elektroensofalografning tuzilishini tushuntiring

### **19- AMALIY MASHG‘ULOT** **Elektrokardiograf apparatining ishlash prinsipi**


Ikki va undan ortiq kanallarga ega bo‘lgan elektrokardiograflar ko‘p kanalli kardiograflar deyiladi va ularda 12 ta standart ulanishlarda elektrokardiogrammalar yozib olinadi. ularning qanday nomlanishi va qayerlarga ulanishi 102-rasmda ko‘rsatilgan.



70-rasm. Ko‘p kanalli kardiografning ulanish sxemalari

Bunda uchta bipolyar va 9 ta unipolyar ulanishlar ko‘rsatilgan. Oltita ko‘krak ulanishlarining qaysi joylarga: V1-to‘rtinchi qovurg‘a oraliqining o‘ng tomon oxiriga, V2-shu oraliqning chap tomon oxiriga, V3-shu V1, V2 oraliqlar o‘rtasiga, V4 beshinchi qovurg‘a oraliqi o‘rtasiga, V5, V4 ga o‘xshash oraliqqa, qo‘ltiq tagiga yaqinroq, V6 ham V4 qatorida va qo‘ltiq tagiga yaqinroq qo‘yilishi ham ko‘rsatilgan.

Ko‘p kanalli elektrokardiograflar elektrokardiograflarning I sinfiga taalluqli bo‘lib, III sinfdagilardan o‘z imkoniyatlarining kattaligi bilan farq qilishini oldin ko‘rgan edik. «Mikromed» firmasining «ER—32» markali kardiografi misolida ularning texnik imkoniyatlarini ko‘rib chiqamiz (103-rasm).



71-rasm. «ER—32» markali kardiografi

«ER-32» elektrokardiografi eni 130 mm bo‘lgan issiqlikka sezgir qog‘ozga 3 kanalli EKGni yozib bera oladi. Qog‘ozning harakat tezligi 25 va 50 mm/sek. Yozishning avtomatik va qo‘lda boshqarish imkoniyatlari bor. Xalaqit signallardan saqlovchi filtrlar bilan ta`minlangan. Elektron tabloda yurak urish pulslari sonini ko‘rish imkoniyati mavjud. Boshqarav elementlari old panelida joylashgan.

Keyingi vaqtarda zamonaviy mikroelektronika va kompyuter texnikasi yutuqlari bilan jihozlangan elektrokardiograflar va elektrokardiograf—defibrillyator texnikalari ishlab chiqarilmoqda. Ular bilan tez yordam mashinalari, xonalari ta’minlanmoqda. Elektrokardiogramma va boshqa diagnostik axborotlarni analiz qiladigan kardioanalizatorlar o‘rniga zamonaviy kompyuterli elektrokardiograflar yaratilmoqda. BRUGER firmasi bemorlar ahvolini nazorat qiladigan «Physisgard» seriyadagi monitorlarni ishlab chiqqagan (SM783, SM784, SM7850). SM 785 monitori ko‘p maqsadli, ikki kanalli monitor hisoblanadi. EKG, bosim, puls, nafas olish va haroratni o‘lchaydi, ekranida ko‘rsatadi, zarur holda yozib berish imkoniyatiga ham ega.

Bunda qo‘srimcha yozib berish qurilmasidan foydalaniladi. Ko‘p kanalli kardiograflarning kanallaridagi biopotensiallami kuchaytirish kaskadlarining tuzilishi bir xil bo‘ladi. EK-2T, EK-4T, EK-6T apparatlarida shu tartib saqlangan. Ularning manba bloki va lentani harakatlantiruvchi hamda «1mV» kalibrovka signalini beruvchi qismi umumiy hisoblanadi. Bu apparatdagi kirish bloki, dastlabki (kuchlanish bo‘yicha) kuchaytirish, tok (quvvat) bo‘yicha kuchaytirish kaskadlari va galvanometrlarning tuzilishi bir xil. EK-2T, EK-4T, EK-6T ko‘p kanalli kardiograflari EKGlardan tashqari boshqa diagnoz uchun zarur parametrlarni qayd etishi mumkin.

Shuningdek ularning chiqishlari orqali zarur axborotni ossiloskop ekranida yoki boshqa nazorat tekshiruv qurilmalarida ko‘rish mumkin. Ko‘p yillik izlanishlar natijasida ana shu EKIT-03m markali kardiograflarda EKGlar ulanishlar dastagini burash bilan sensorlar orqali olinadigan bo‘ldi.

Elektrokardiograf odam yuragi ishlab turganda paydo bo‘ladigan Biopotensiallarni displayga chiqarib, diagramma lentasiga yozib beradigan elektron qurilma bo‘lib, u yurakning ish faoliyatini aks ettiradigan asosiy diagnostik vositadir. Elektrokardiograflar bir va ko‘p kanalli bo‘ladi. Bir kanalli elektrokardiograflarda yurak biopotensiallari uchta standart, uchta kuchaytirilgan va ikkita ko‘krak ulanishlarni diagramma lentasiga ketma-ket yozib beradi. Ko‘p kanalli elektrokardiograflarda (misol uchun uch kanalli) bir vaqtida uchta standart, uchta kuchaytirilgan va ko‘krak ulanishlardagi kardiosignal uchtadan ikkiga bo‘linib diagramma lentasiga yozib olinadi.

Bir kanalli elektrokardiografning oyoq va qo‘llarga ulash uchun to‘rtta va bitta ko‘krak elektrodi bo‘ladi.

Quyida bir kanalli, issiqlik pero bilan diagramma lentasiga elektrokardiosignalni kuchaytirib yozadigan elektrokardiografda uchraydigan, ikkita asosiy buzilishlar va ularni aniqlash usullarini ko‘rib chiqamiz.

## 1. Elektrodlarni elektrokardiografga ulaydigan bemor kabelining uzilishlari.

Bu uzilishlar kabelning ko‘p egiladigan qismlarida bo‘ladi va asosan elektrodga ulangan shtekkerning kabelga ulangan joyi va kabelni elektrokardiografga ulaydigan razyom oldidagi qismida ko‘p uchraydi. Elektrodlarning qaysi biri uzilganligini aniqlash uchun barcha beshta elektrodlar qisqa tutashtirilib, ulanishlar kommutatori yordamida barcha ulanishlardagi signal diagramma lentasiga yozib olinadi. Elektrodlar uzilmagan bo‘lsa, pero diagramma lentasiga to‘g‘ri chiziq yozadi. Uzilishlar bo‘lgan hollarda pero xalaqit signallarini betartib yoza boshlaydi. Agar I va II standart ulanishlarda to‘g‘ri chiziq yozilmasa, o‘ng qo‘lning R-elektrodi uzilgan bo‘ladi. Uzilishlarni tekshirishning boshqa usuli har bir elektrodning qarshiligin o‘lchanadir. Buning uchun bemor kabelini elektrokardiografdan yechib olinadi va ommetr yordamida barcha elektrodlarning qarshiligi elektrod bilan raz’yom orasida o‘lchanadi. Ommetrni razyomga ulash uchun oddiy qarshilikning simidan foydalanish mumkin. Bu o‘lchashlarda elektrodlar uzilmagan bo‘lsa ommetr qisqa tutashuv (0,0 Om) yoki ba`zi kabellarda o‘rnatilgan 40—50 kOm qarshilikni, agar uzilgan bo‘lsa ommetr cheksiz qarshilikni ko‘rsatadi. Uzilgan elektrotni kabelga qayta ulashda kabelning ekranlovchi simlari ulanadigan markazdagi signal simiga tegmasligini ta’minlash kerak. Kabel ulangandan so‘ng elektrodlarning har biri orasidagi qarshilik o‘lchab chiqiladi. Bu qarshilik cheksiz bo‘lishi kerak. Kabel joyiga o‘rnatilib, elektrokardiograf ishga tushiriladi. Barcha elektrodlar qisqa tutashtirilib diagramma lentasiga barcha ulanishlar yoziladi. Elektrodlar butun bo‘lsa faqat to‘g‘ri chiziq yoziladi. Kalibrator yordamida sezgirlik 10mm/mV holida kalibrlovchi impulslar yoziladi. Impulslarning shakli to‘g‘ri bo‘lib, chiziqlari xalaqit signallar bilan buzilmagan bo‘lishi kerak.

- 2. Issiqlik perosi kuygan bo‘lsa diagramma lentasiga hech narsa yozilmaydi.** Peroning qarshiligi 40-60 Om bo‘lishi kerak. Agar peroning qarshiligi ommetr yordamida o‘lchanganda cheksiz qarshilik ko‘rsatsa, peroning ichidagi nixrom spiral kuygan bo‘ladi. Peroni saqlash uchun unga beriladigan kuchlanishni o‘lchab, kamaytirish mumkin. Bu kuchlanish rego sokin turgan holda kichik lenta harakatga kelganda katta bo‘ladi. Elektrokardiografning perosi almashtirilgandan so‘ng albatta kalibrlovchi signal diagramma lentasiga yozilib tekshiriladi. Yozilgan kalibrlovchi impulslarning shakli to‘g‘ri to‘rtburchak bo‘lishi kerak. Agar pero lentaga qattiq siqilgan bo‘lsa yozilgan impulslarning oldi fronti qiya bo‘lib, tepa burchak o‘q bo‘ladi. Shunda rego bo‘shatilib yana tekshirilishi kerak.
- 3. O‘zgarmas tok manbaida bo‘ladigan buzilishlar.** Elektrokardiografning o‘zgarmas tok manbasi ishdan chiqsa, saqlagich kuygan bo‘lishi mumkin. Saqlagichning kuyishiga katta kirish kuchlanishi yoki elektrokardiografning ba’zi elementlarining buzilishi natijasida manbadan olingan katta tok sabab bo‘lishi mumkin. o‘zgarmas tok manbasini tekshirish uchun uni elektrokardiografdan chiqarib, chiqish razyomida mavjud barcha kuchlanishlar o‘lchanadi. Kuchlanishlarning qiymatlari elektrokardiografning elektr sxemasida berilgan qiymatlarga teng bo‘lishi kegak. Agar kuchlanishlar boshqa

qiymatlarda bo'lsa sxemada birin-ketin stabilizator (chiqish tranzistori), to'g'rilagich, tekislovchi filtr va transformator tekshiriladi.

Elektrokardiograf buzilmagan bo'lsa ham bir yilda bir marotaba ochilib barcha plata va mexanizmjari ko'zdan kechirilib tozalanadi.

Elektrokardiograflar o'lhash vositasi bo'lganligi sababli har yili bir marotaba va har ta'mirlangandan so'ng (metrologik ko'rsatkichlarga ta'sir ko'rsatgan hollarda) qiyoslanishi shart.

Qiyoslash jarayonida elektrokardiografning metrologik ko'rsatkichlarni tashkil qiluvchi sezgirlingi, amplituda—chastota xarakteristikasi, diagramma lentasining harakat tezligi va elektr xavfsizligi tekshiriladi. Qiyoslashni medsim 300 B bemor immitatori va  $\mu$ — test 2000 elektr xavfsizlik analizatori bilan amalga oshirish mumkin.

### **Takrorlash uchun savollar:**

1. Ko'p kanalli elektrokardiograflar qanday imkoniyatlarga ega?
2. Ularda qaysi ulanishlar bo'yicha EKG olinadi?
3. ER-32 kardiografi qanday imkoniyatlarga ega?

## **20 - AMALIY MASHG'ULOT** **Elektroforez apparatining ishlash prinsipi**

Odam organizmi to'qimalari murakkab tuzilishga ega bo'lib, tokni yaxshi o'tkazmaydigan oqsil kolloidlari, tokni yaxshi o'tkazadigan kaliy, natriy, kaltsiy, magniyning anorganik tuzlaridan iborat.


Bu to'qimalar suyuqlik bilan mo'l ta'minlanganligi sababli, to'qima suyuqligi ham organik va anorganik tuz eritmalaridan iborat. Uning umumiy konsentratsiyasi 0,89-0,90% li osh tuzi eritmasiga to'g'ri keladi. Odam organizmi turli qismlarining  $37^{\circ}\text{C}$  haroratda o'zgarmas tokni o'tkazuvchanligi quyidagi jadvalda ko'rsatilgan (10-jadval).

10-jadval

### **Odam organizimining o'zgarmas tokning o'tkazuvchanligi**

<b>t/r</b>	<b>Organizm to'qimalari</b>	<b>Elektr o'tkazgichlar <math>\Omega^{-1} \text{cm}^{-1}</math></b>
1.	Orqa miya suyuqligi	0,018
2.	Qon zardobi	0,014
3.	Qon	0,006
4.	Muskul to'qimalari	0,013
5.	Ichki organlar	0,002-0,003
6.	Bosh miya va nerv	$0,7 \cdot 10^{-3}$
7.	Yog'li to'qimalar	$0,3 \cdot 10^{-3}$
8.	Quruq teri	$10^{-7}$
9.	Suyak usti qoplamlarisiz suyaklar	$10^{-9}$

Bu to‘qimalardan o‘zgarmas tok o‘tgan vaqtida uning qarshiligi o‘zgaravchan tok o‘tganidagidan ko‘ra kattaroq bo‘ladi. Galvanizatsiya usuli odam tanasining turli qismlariga zichligi uncha katta bo‘lmagan o‘zgarmas tok bilan ta’sir qilishga mo‘ljallangan bo‘lib, unda elektr toki maqsadga ko‘ra turli o‘lchamlarga ega bo‘lgan elektrodlar yordamida uzatiladi. Bu elektrodlar qo‘rg‘oshin plastina yoki 98% uglerodli to‘qimadan iborat bo‘lishi mumnkin. Bu elektrodlarning terida hosil qiladigan reaksiyalarining oldini olish maqsadida ular bilan teri orasiga maxsus matolardan ishlangan fiziologik eritmaga bo‘ktirilgan qavatli moslama («proklaadka») qo‘yiladi. Galvanizatsiya usuli bilan davolaganda elektrodlar orasida joylashgan to‘qimalarda qon aylanish tezlashadi, moddalar almashuvi jarayoni yaxshilanadi va og‘riq qoldiruvchi ta’sir namoyon bo‘ladi. Galvanizatsiya usuli bilan davolaganda tok zichligi 0,05-0,2 mA/ sm<sup>2</sup> qiymatlarda, suvli to‘qimalarda 0,02-0,03 mA/sm<sup>2</sup> qiymatlarda belgilanadi.




72-rasm. Galvanizatsiya usulida ionlar harakati


Ionlar yoki kattaroq bo‘lgan elektr zaryadlarining elektr maydoni kuchlari ta’sirida harakatlanishidan dori elektroforezida foydalaniladi. Bunda elektrodlar ostiga qo‘yilgan matolarga zarar dori vositalari shimdirliladi va o‘zgarmas tok yuborilishi natijasida bu dori vositalari odam tanasining turli qismlariga ta’sir ettiriladi. Ushbu dori vositalari qaysi qutbli elektrod orqali, qanday % li aralashma sifatida yuborilishi fizioterapiya xonalarida maxsus jadvalda ko‘rsatilgan bo‘ladi. Elektroforez vaqtida ionlarning harakat yo‘nalishlari 72-rasmda, ko‘rsatilgan.

Elektroforez vaqtida odam organizmiga dori vositalari o‘zgarmas tok ta’siri bilan birgalikda kirib, dorilarning ta’sir samarasini oshiradi.

Galvanizatsiya va dori elektroforezi maqsadida «Potok-1» apparatidan va uning oyoq-qo‘l orqali ta’sirini ta’minlaydigan GK-2 qurilmasidan, shuningdek og‘iz bo‘shlig‘i va milklarni davolashda qo‘llaniladigan GR-2 apparatlaridan foydalaniladi. «Potok-1» apparati (73-rasm) va GK-2 qurilmasi (74-rasm) quyidagi asosiy texnik parametrlarga ega.




73-rasm. «Potok—1» apparati



74-rasm. GK—2 qurilmasi

Apparat  $220 \pm 10\%$  V, 50 Gs chastotali kuchlanish manbaida ishlaydi. Maksimal tok 50 mA (iste'molchining aktiv qarshiligi 500 Om bo'lganda), pulsatsiya koeffitsiyenti 0,5% dan oshmaydi.

«Potok-1» apparati ikki modifikatsiyada chiqarilgan. Uning birinchi modifikatsiyasining tashqi ko'rinishi, ichki tuzilishi va elektr sxemasi A.R.Livensonning «Elektromeditsinskaya apparatura» kitobida keltirilgan. Ushbu apparatning elektr sxemasi (75-rasm) past kuchlanish manbaidan iborat bo'lib, kuchlanish va tok qiymati uzib ulagich, V3, V1 tumblerlar va o'zgaruvchi qarshilik R3 bilan boshqariladi hamda IP milliampermetri yordamida o'lchanadi va nazorat qilinadi.



75-rasm. «Potok-1» apparatining elektr sxemasi

Noto'g'ri ish rejimidan ajratgich mavjud (shtrix chizig'i), yangi modifikatsiyada esa tiristorli himoya ishlatilgan. GK-2 qurilmasi Potok-1 apparatining qo'shimcha qismi (2) (pristavka) qo'l uchun vannalar (3), stul (4), suvni to'kuvchi shlang (5), oyoq uchun vannalar (6) va qurilma asosidan (7)

iborat. Potok-1 pristavkasidagi kommutatorlar zarur ishorali elektrodlarni ulab beradi. GK-2 qurilmasining ishlashi Potok-1 apparatining ishlashi bilan bir xil.

Og'iz bo'shlig'ini galvanizatsiya usuli bilan davolovchi GR-2 apparati quyidagi texnik jihatlarga ega. Apparat  $220\pm10\%$ V, 50 Gs chastotali kuchlanishda ishlaydi. Maksimal tok 5mA (5 kOm yuk-lanish ulanganda), sarf qilish quvvati 15 VA. Bu apparat ham «Protok-1 singari past kuchlanish va tokli kuchlanish manbai hisoblanadi va chiqish toki o'zgaruvchan qarshilik yordamida tanlanadi. Chiqish va elektrodlarga beriladigan kuchlanish ishoralari knopkalar yordamida tanlanadi. GR-2 apparatining ham bir necha modifikatsiyalari ishlab chiqarilgan.

Davolash muassasalarida shunga o'xshash apparatlardan foydalanish mumkin. Ularning texnik imkoniyatlari va ishlatilish tartiblari Potok-1 va GR-2 apparatlarinikiga o'xshash bo'ladi. "Potok-1" qurilmasini tekshirishni ko'rib chiqamiz.

Potok-1 apparati odam organizmiga o'zgarmas tok berish yo'li bilan davolash, profilaktika qilish va dori elektroforezi uchun ishlatiladi.

Qurilmada tekshirish o'tkazilganda quyidagi ishlar bajarilishi kerak:  
tashqi ko'rik;  
ishlatib ko'rish;  
chiqish tokining maksimal qiymati va bu tokning o'rnatish xatoligini aniqlash.

Tekshirishda quyidagi o'lhash vositalaridan faydalanish kerak:  
o'lhash chegarasi (0-100) mA va aniqlik sinfi 0,5 bo'lgan o'zgarmas tok milliampermetri;  
R33 qarshiliklar magazini;  
belgilangan o'lhash vositalarining o'rtacha aniqlik darajasi ta'minlangan boshqa o'lhash vositalaridan foydalanish mumkin.

Tekshirish o'tkazilganda quyidagi sharoitlar ta'minlanishi kerak:  
atrof muhit harorati ( $20\pm10$ ) °C;  
havo namligi ( $65\pm10$ )%;  
havo bosimi ( $760\pm30$ ) mm sm. ustuni.

Tekshirish boshlanishidan avval qiyoclanadigan apparat va tekshirish vositalari o'zlarining ishlatish yo'riqnomalari accida ishga tayyorlanishi kerak.

Tashqi ko'rik o'tkazilganda qiyoclanadigan apparatning quyidagi talablarga javob berishi aniqlanadi:  
tekshirish belgilari mavjudligi;  
milliampermetr mexanik korrektor yordamida nol holatiga o'rnatish mumkinligi;  
apparatning tashqi ko'rinishi va boshqarish vositalari qoniqarli bo'lishi.

Apparatning ishga yaroqlilagini aniqlash uchun ishlatib ko'rilib:  
apparatning chiqish qisqichlariga R33 qarshilik magazini ulanib, uning qarshiligini ( $500\pm5$ ) W ga o'rnataladi;

apparatni manba tarmog‘iga ulab, tok potensiometrining chap chekkasiga o‘rnataladi va diapazon "5" yoki "50" tanlanadi. "set" tugmachasini bosib, apparatni ishga tushirilganda signal lampasi yonadi.


Tok potensiometrini asta o‘ng tomonga burab, milliampermetrning korsatkichi asta o‘ng tomonga to chekka ko‘rsatkichgacha borishini tekshirib ko‘riladi. Potensiometr orqaga buralganda milliampermetr ko‘rsatkichi nolga qaytishi kerak:

potensiometr bilan milliampermetr ko‘rsatkichini o‘rtaga keltirib, diapazon tugmachasini bosiladi. Shunda milliampermetr ko‘rsatkichi "0" ga kelishi kerak, bu blokirovka sxemasi to‘g‘ri ishlashidan dalolat beradi.

Shu yo‘l bilan boshqa diapazon tugmachasi ishlashini ham tekshirish mumkin.

Chiqish tokining maksimal qiymati va bu tokning o‘rnatish xatoligini aniqlash uchun 88-rasmda ko‘rsatilgan sxema yig‘iladi va "Potok-1" apparatining boshqarish vositalari quyidagi holatga keltiriladi.  
diapazon - "50"

tok potensiometri - chap chekkada;  
qarshiliklar magazini -  $(500 \pm 5\%)$ ;  
"Set" tugmachasini bosiladi.



76-rasm. O‘rnatish xatoligini aniqlash uchun ko‘rsatilgan sxema

Tok potensiometri bilan milliampermetr ko‘rsatkichini "50" raqamiga olib boriladi.

Bemor zanjiridagi maksimal tok  $(50 \pm 5\%)$  mA bo‘lishi kerak.

Asta potensiometr yordamida milliampermetr ko‘rsatkichini ketma-ket "40", "30", "20", "10" ga o‘rnatib bir vaqtda namunaviy milampermetrning ko‘rsatkichlari olinadi.

Shunda chiqish tokini o‘rnatishdagi asosiy keltirilgan xatolik quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$\Delta I = ((I_m - I_{o\cdot lch}) / I_{che}) * 100_{o\cdot lch}$$

Bunda:  $I_m$  - apparat milliampermetrining ko‘rsatishi, mA;

$I_{o\cdot lch}$  - namunaviy milliampermetrning ko‘rsatishi, mA;

$I_{che}$  – o‘rnatilgan diapazon ko‘rsatkichi, mA.

Chiqish tokining asosiy keltirilgan xatoligi 5% dan ortmasligi shart.

Potensiometrni chap chekkaga o‘rnatib "5" diapazoniga o‘tiladi.

Potensiometr yordamida milliampermetr ko‘rsatkichi "1", "2", "3", "4", "5" ga

ketma-ket o‘rnatilib, namunaviy milliampermetrning ko‘rsatkichlarini olinadi, (6.1) formula yordamida diapazonning asosiy keltirilgan xatoligini hisoblanadi, bunda chiqish tokining asosiy keltirilgan xatoligi 5% dan ortmasligi shart.

Tekshirish natijalarini rasmiylashtirish:

1. Tekshirishdan o‘tgan apparatlar ishga yaroqli deb topilganda ularga tekshirish guvohnomasi yozib beriladi va yuziga tekshirilgan belgisi qo‘yiladi.
2. Tekshirishdan o‘tgan apparatlar ishga yaroqsiz deb topilganda ularga yaroqsizlik guvohnomasi yozib beriladi. Bunda yaroqsizlik sababi yozilishi kerak.

#### **Takrorlash uchun savollar:**

1. O‘zgarmas tokning odam organizmiga ta’siri qanday?
2. Galvanizatsiya va dori elektroforezi usullarini aytib bering?
3. Potok-1 va GK-2 qurilmasi qanday texnik imkoniyatlarga ega?

### **21 - AMALIY MASHIG‘ULOT**

#### **Tibbiy radiologik terapiya majmualari. Uning endokrinologiya va onkologiyada qo‘llanilishi**

Emission kompyuter tomografiyasи va unda radioizotoplarning ishlatalishi haqida oldingi -amaliyat ishida ba’zi ma’lumotlar berilgan edi. Endigi -amaliyat ishiimizda radioizotop yoki radionuklid diagnostikasi haqida yana to‘xtalamiz va oldingi -amaliyat ishida yoritilmagan ba’zi yo‘nalishlar haqida bayon qilamiz. Radioizotop diagnostikasi apparatlari ikki guruhga bo‘linadi:


1. Radioaktiv indikatorlarning organizmda taqsimlanishiga mos tasvirni hosil qilishga mo‘ljallangan apparatlar. Bularga gamma-kameralar, skanerlar, gamma-tomograflar kiradi.

2. Radioaktiv indikatorlarning odam organizmining turli qismlariga to‘planishiga mos dinamik jarayonlarni kuzatuvchi apparatlar.

Bular maxsus radioizotop diagnostikasi apparatlari deyiladi. Bularga Gammatireoratimetr GTRM-01-S, radioizotop Xronoskopi R1X-3M va karpografi RIK-1 lar kiradi.

Gamma-kameralar asosiy radioizotop diagnostikasi asbobi hisoblanadi, uning yordamida bemorning turli a’zolaridagi o‘zgarishlar haqida ma’lumotlar olib, kasalini aniqlash mumkin. Shulardan biri GKS-2 markali ssintilatsion gamma-kamera quyidagi texnik imkoniyatlarga ega (75-rasm):

Detektorlash bloki bir kristall va 37 ta fotokuchaytirgichdan iborat.




77-rasm. GKS-2 markali ssintilatsion gamma-kamerasi

Bu fotokuchaytirgichlar FEU-110 tipli bo‘lib, ularning chiqishi S-simon xarakteristikaga ega bo‘lgan chiziqli bo‘lmagan dastlabki kuchaytirgichga ulanadi va bu kuchaytirgich gamma nurlanishi energiyasi  $50 \div 510\text{keV}$  gacha o‘zgartganda avtomatik ravishda moslana oladi. Tasvir sifatini yaxshilash maqsadida (kontrol) nazorat o‘lchash pulni tarkibiga tasvir xalaqitlarining mikroprotsessorli to‘g‘rilash sistemasi kiritilgan. GKS-2 tarkibiga kiritilgan mikroprotsessor sistemasi qo‘srimcha ish rejimlarini ham amalga oshirish imkonini berdi.

- Detektoring foydali yuzasi 250 mm.
- Sozlashlarsiz sezgirlikning notekisligi 0,5 oyda 6 % dan oshmaydi.
- So radioizotopli fantomda o‘zining yoyirma yechimi 3,5 mm.
- Energetik yechimi "So bilan 14 %.
- Energetik diapazoni  $50^{\circ}\text{-}510\text{ keV}$ .
- Qayd qilishda hisoblash maksimal tezligi  $160 \cdot 10^3$  marta/sek.

Yurak qontomir kasalliklarining ortishi ko‘chma gamma-kameralarning yaratilishiga olib keladi. Ular transport vositalariga o‘rnatilib, qiyin ahvoldagi bemorlarni tekshirish imkoniga ega. Ular o‘zining texnik imkoniyatlari bilan statsionar gamma-kameralarga yaqin turadi.

Rossiyada radioizotop diagnostikasi apparatlari bilan birlashtirilgan SAORI-01 markali hisoblash sistemasi ham ishlab chiqarilmoqda (78-rasm).



78-rasm. SAORI-01 markali hisoblash sistemasi

Bu sistema gamma-kameralar, ko‘p kanalli radiodiagnostik asboblardan olingan axborotlarni to‘plab, qayta ishlab tasvir ko‘rinishga keltirib beradi.

SAORI-01 tarkibiga «Gamma» hisoblash-o‘lchash kompleksi, rangli ekranga ega bo‘lgan displayli protsessor, display ekranidan suratga oluvchi polaroidli fotoqaydqilgich, axborotlarni qayta ishlovchi dastur bilan ta‘minlovchi tayanch komplektlar kiradi.

- SAORI-01 quyidagi texnik imkoniyatlarga ega:
- Axborot to‘plash usuli «Spisok», «Kadr».
- Tasvirni ko‘rsatuvchi matritsa elementlari soni - 128x128.
- Rangli yorqinlik darajalari - 64 ta.

Bir vaqtning o‘zida 8 ta tasvir ko‘rsatilishi mumkin.

Axborot yig‘ish tezligi gamma kamera bilan ishlaganda sekunddagи 100 •  $10^3$  ta.

Ko‘p kanalli radiodiagnostik asboblar bilan ishlaganda  $10 \cdot 10^3$  ta. Kanallar soni 20 ta.

SM-4 markali mini EHM bilan ta‘minlangan SAORI-01 hisoblash sistemasi GKS-301 T markali ssintilatsion gamma-tomograf bilan ham ishlashga mo‘ljallangan. GKS-301 T ssintilatsion gammatomografi GKS-2 apparatidagi kamchiliklarni qisman kamaytirishga erishdi va katta imkoniyatlari sababli turli klinikalarda ishlatib kelinmoqda.

Hozirgi vaqtda radioizotop diagnostikasida zamonaviy emission kompyuter tomograf (EKT)lari, gamma diagnostik texnikalari ishlatilmoqda.

Shulardan biri «Testoskan» markali EKT bosh miyani kichik energiyali radioizotoplar yordamida tekshirishga mo‘ljallangan bo‘lib, ilmiy tekshirish muassasalarida va katta klinikalarda ishlatib kelinmoqda. U quyidagi texnik imkoniyatlarga ega:

- Tekshirilayotgan obyekt diametri - 240 mm.
- Detektorlar soni - 8 ta.
- Proyeksiyalar soni - 120 ta.
- $90^\circ$  burchak ostida surilib-surilib harakatlanadi.
- Teskari proyeksiyali filtratsiya usuli bilan tasvirni qayta tiklaydi.
- Matritsasining o‘lchami - 64x64.
- Radioizotoplarning energiya diapazoni 100+200 kEV gacha, detektorlarning energetik yechimi Ts 99 m bo‘yicha 15 % dan kam emas.
- Tekislik va tomografik yechimi 25 mm dan kam emas.


«Testoskan» tarkibiga detektorlar va harakatlantiruvchi mexanizmlar va ularning ishini boshqaruvi bloki, ko‘p kanalli amplitudali selektor, EHM bilan bog‘lanish qurilmasi, manba bloki, bemorni joylashtirish qurilmasi va hisoblash kompleksi kiradi. Hisoblash kompleksi quyidagi imkoniyatlarga ega bo‘lgan dasturlar bilan ta‘minlanadi:

tekshirish xarakteri va bemor to‘g‘risida axborotni qabul qilish hamda saqlashni amalga oshiruvchi; pozitsiyalar haqida ma’lumotni qabul qilish, yig‘ish va qayta

ishlashni amalga oshiruvchi;

10 daqiqadan ko‘p bo‘lmanan vaqtida bir o‘lchamli proyeksiyalardan ikki o‘lchamli proyeksiyalarni qayta tiklashni amalga oshiruvchi; ularni ko‘rinuvchi qilish va uzoq vaqtga saqlash; operator bilan muloqot va kompleksning ishlashi nazoratini amalga oshiruvchi dasturlar bilan ta’milanadi.


Gollandiyaning «PHILIPS» firmasi turli maqsad va vazifalarga mo‘ljallangan «Emission» kompyuter tomograflarini, masalan, SL 25, SL 75-5 (79-rasm)larni ishlab chiqaradi.



79-rasm. Gollandiyaning «PHILIPS» firmasining CL 75-5 «Emission» kompyuter tomografi

Bu emission kompyuter tomograflarda chiziqli tezlatgich yordamida hosil qilingan nurlanish yordamida davolash o‘tkaziladi, ularning texnik imkoniyatlari talabga javob beradi. Masalan, SL 75-5 EKT 100 sm fokus masofasidan turib, turli burchak va proyeksiyalar ostida bemorlarni davolash imkoniyatiga ega.

«DIAGNOST C» markali gamma-kamerali tomograf (78-rasm) bosh miya, ko‘krak qafasi a’zolarini tekshirishga mo‘ljallangan bo‘lib, 400 kEv gacha energiyaga ega bo‘lgan gamma nurlanishlarni qayd etuvchi sistema bilan ta’milangan, shuningdek, 40 sm li diametrga ega bo‘lgan detektorida 61 ta fotoelektron kuchaytirgich ishlatilgan.



80-rasm. «DIAGNOST C» markali gamma-kamerali tomograf

Tadqiqotlarni olib borishda detektor sistemasi tekshirish uchun qulay proyeksiyalarga keltirilishi lozim. Boshqaruv pultida 2 ta displayi bo‘lib, ular zarur tasvir va axborotlarni ko‘rish imkonini beradi. «PHILIPS» firmasining gamma-kamerali tomograflari BASIC, FORTRAN, NFS MACROS dasturlarida ishlaydigan EHM sistemalari, shuningdek, maxsus PROTSESSOR 873 markali gamma-protsessorlar bilan ta’minlangan. Quyida eng zamonaviy gamma-tomografik kameralarning texnik imkoniyatlari bilan tanishhamiz. Bu jadvalda Rossiyaning «OFEKT-1», «Siemens» firmasining E.SAM, Vengriyaning «Medisor» firmasining «Nucline X- Ring/HR» va AQShning «Picker» firmasining PRISM/1000 XP gamma-kameralari imkoniyatlari keltirilgan.

«OFEKT-1» tomografi yadro tibbiyotida qo‘llaniladigan hamma tekshirish usullarini bajara oladi:

1. «Statika» rejimida bir va ko‘p kadrlar statik tekshirishlarni: Gensossintigrafiya, nefrossintigrafiya, tireossintigrafiya, mammoossinte-grafiya va boshqalar.
2. «Dinamika» rejimida dinamik rekossintirafiya, gapotobilissin-tigrafiya, ensefaloangiosintigrafiya va boshqa usullarni tekshirish.
3. «Sikliy dinamika» rejimida kardioossintigrafiya, tenglashtirilgan ventrikulografiya va boshqalarni.
4. «Butun tana» rejimida detektor turli holatlarda o‘rnatilishi mumkin, bunda osteossintigrafiya, yumshoq to‘qimalarni tekshirish mumkin.
5. «Tomografiya» rejimida bosh miya, jigar, buyrak va boshqa a’zolarni frontal, sigittal, koronol ko‘ndalang kesimlarda tekshirish mumkin.

«OFEKT-1» tomografi EHMning dasturiy ta'minoti zamonaviy talablarga javob beradi va Intel x 86 markali personal kompyuter bilan ishslashga mo'ljallangan. Bu personal kompyuter «Windows 9x» operatsion sistema bilan boshqariladi. Bu sistema ikkita dastur paketiga ega. Ular POANTICS nomli axborot yig'uvchi va POSPECTW nomli natijalarini tahlil qilib, shakllantirib ko'rsatishni amalga oshiruvchi paketlar.

### **Takrorlash uchun savollar:**

1. «Testoskan» markali EKT qanday texnik imkoniyatlarga ega?
2. «Testoskan»ning hisoblash kompleksi dasturi qanday imkoniyatlarga ega?
3. «OFEKT-1» tomografi yadro tibbiyotida qo'llaniladigan qanday tekshirish usullarini bajara oladi?
4. Radioizotop diagnostikasi apparatlari qanday guruhlarga bo'linadi?

## **22 - AMALIY MASHG'ULOT**

### **Interversion kardiologik majmular, ularning tuzilishi va ishslash prinsipi**

Kardiologik bo'limlarda o'tkazilgan ko'p yillik tajribalar natijasida aritmiyani nazorat qiluvchi monitor tizimlari uchun ideal tizimlarga talablar ishlab chiqilgan. Bu talablarga ko'ra MSlar ideal kattaliklarda aritmiyani ifodalay oladi. Kardiologiya bo'limlarning asosiy maqsadi hayot uchun xavfli bo'lган yurak aritmiyasini oldinroqdan aniqlash hisoblanadi. Shu sababli EKGga ko'ra yurak artimiyasini aniqlashning bir necha turi yaratilgan. Bular 1-jadvalda keltirilgan.

11-jadval

Halokatli (hayot uchun xavfli).	Oldinroq (halokatni keltirib chiqarish mumkin).	Eng zarur
Yurakning to'xtab qolishi (asistoliya).	Qorinchalar ekstra-sistolasi.	Yurak qisqaruvlari chastotasining o'zgarishi.
Qorinchalar fibrillyatsiyasi (to'xtab qolishi).	Yurak oldi fibrillyatsiyasi (mersatel aritmiyasi).	Vaqti kelmasdan yurak oldi qisqarishlari.
Chuqur taxikardiya va bradiaritmiya.	Qorincha ichidagi o'tkazuvchanlikdagi kamchiliklar.	Sinusli aritmiya kuchsiz taxikardiya va bradikardiya.

Jadvalda ko'rsatilgan diagnostik (tashxis) xarakteristikalaridan tashqari MS lar sinfi, ularni klinikalarda foydalanishga zarur bo'lган bir qator talablarga javob berishi lozim. MS bir necha bemordan olinadigan EKG signallarini real vaqt masshtabida nazorat qilish va kuzatish imkoniyatini berish, yuqori aniqlikda yurak ritmi buzilishini aniqlab, ularning dastlabki va tashqi aritmiyalarning intensivligiga miqdoriy bahoni bera olishi zarur. MS ustunligiga (prioritet) ko'ra bir necha trevoga signalini bera olishi zarur. Masalan, yurak qorinchalarining fibrillyatsiyasi haqidagi trevoga signalini

avvalgi qorincha ekstrasistolasiga ko‘ra ustunligiga ega bo‘lishi lozim. MS ga trevogaga sabab bo‘lgan EKG qismlarni avtomatik qayd qilish tizimiga mavjud bo‘lishi lozim, chunki bunga ko‘ra keyinchalik ashyoviy tahlil o‘tkazishadi. MS barcha bemorlarning holati haqidagi ma‘lumotga ega bo‘lishi, bu ma‘lumotlarni ko‘rsata olishi, keyingi shifokorlar, bemorlar haqida va ularga nisbatan qo‘yilgan davo choralarning effekti haqida ma‘lumotga ega bo‘lishlari kerak.

MS halaqitga ega bo‘lgan EKG signallarida ham ishlay olishi, xalaqitlar darajasi ortib ketganda EKG tahlilini to‘xtatib, tegishli indikatsiya signalini bera olishi hamda bir bemor uchun ekologik effektivlikni ta‘minlay olishi lozim. MS kun mobaynida uzlusiz va stabil ishlashi lozim. MS real kardiologiya bo‘limi sharoitida to‘liq tekshiruvdan o‘tgandan so‘nggina ishga yaroqli deb olinishi mumkin.

MS oddiy nazorat tizimlardan afzalligi yaqqol bilinishi lozim.

#### **Aritmiyani nazorat qilish uchun mikroprotsessor tizimlarida elektrokardiogrammalarga ishlov berish.**

Mikroprotsessor tizimida EKGga ishlov berish va aritmiyani aniqlash signaldagagi bir qancha o‘zgarishlarni ajratib olish hamda ularning yurak faoliyatiga bog‘liqligini aniqlashdan iborat. EKG ning avtomatik tahliliga vaqtning real masshtabida yurak faoliyatiga bog‘liq holdagi patologik o‘zgarishlarni yuqori aniqlikda uzlusiz kuzatish va ishlov berish kiradi. Har qanday tibbiy asbobda qayd qilinayotgan EKGdan aritmiyani ajratish quyidagi ketma-ketlikda bajariladi.

Dastlabki bosqichda signal kuchaytiriladi va 0,1 Gs dan  $20 \div 100$  Gs gacha bo‘lgan chastota kengligida filtrlanadi, keyin analog raqamli o‘zgartgich yordamida raqam ko‘rinishiga keltiriladi, signalni diskretlash chastotasi  $250 \div 500$  Gs bo‘ladi. Amplituda bo‘yicha kvantlash sathlari soni 128 QRS kompleksidan aniqlanib, uni bayon qilishning ifodali hisobotlari topiladi. Tashhis qo‘yish uchun kuzatish intensivligi yuqori bo‘lganda, yurak qorinchalarining elektr faolligining nazorati natijasida olingan signal ko‘proq foydalidir. Bular QRS va T kompleksi ko‘rinishida bo‘ladi. R tishcha o‘zining amplitudasining kichikligi bois ishlatilmaydi. QRS tishchalarining vaqt bo‘yicha holat tahlili asosini tashkil qiladi. QRS kompleksining shaklini etalon QRS kompleksi shakli bilan solishtirib farqlar aniqlanadi.


Yurak aritmiyasini aniqlash va tahlil qilish R-R ketma-ketlikning yurak qorinchasi kompleksiga ustma-ust tushishdan qilinadi. Bunda aritmiya qisqa vaqtli (ekstrasistola, QRS komplekslarining bo‘lmasligi va boshqalar) uzoq muddatli (praksimal taxikardiya, mersatel aritmiya) turlarga bo‘linadi. Bularda aritmiyaning bir necha ish sikli yoki 1 daqiqagacha muddatda aniqlanadi.

Trevoga signalining shakllanishi chiqayotgan diagnostik ma‘lumotga ko‘ra QRS komplekslarini olish va aritmiya tahlili natijasida yuz beradi.

Trevoganing differensiallangan signalini olish natijasida bahosi yuqori bo‘lgan axborotni olish imkoniyatini beradi. Bu esa qaysi bemorga shifokor dastlabki yordamni berishi lozimligini belgilaydi. Tibbiy diagnostik tizimlarda MS larining qo‘llanishi ularni imkoniyatlarini oshiradi, tezkorlikni ta‘minlaydi va ularning ko‘plab turlarini yaratish imkoniyatini beradi. Bunday MS bir yoki bir necha protsessor yordamida qurilishi va yuqorida keltirilgan talablarni bajarish uchun istiqbolli hisoblanadi.

## **Yurakni tekshiruvchi rentgen kompyuter tomografining vazifasi va asosiy texnik imkoniyatlari**

Rentgen kompyuter tomografi yordamida tekshirilganda odam organizmining asosiy qismi bo‘lgan yurakning tasviri yuqori sifatli bo‘lmaydi, chunki uning to‘qimalarining zichligi yurakdan oquvchi qonning zichligiga yaqin bo‘ladi. Shu sababli yurakning sifatli tasvirini ko‘rish uchun maxsus - yurakni tekshirishga mo‘ljallangan rentgen kompyuter tomograflari yaratiladi. Yurakni tekshiruvchi rentgen kompyuter tomograflarida bir necha usuldan foydalanilgan. Bunda yurak tasvir ining ajratilishi (kontrasti) yaxshi bo‘lishi uchun vena qon tomirlariga 25 ml hajmda yod birikmali kontrakt moddalar kiritiladi. Yurakni tekshiruvchi rentgen kompyuter tomografida ctrobockopik kompyuter tomografiyasi usulidan foydalaniladi. Bunda yurak devorlarining davriy ravishda kengayib, torayib turishidan foydalaniladi. Bunda kontrast moddalar tomchilab yuboriladi, bir vaqtning o‘zida bemorning elektrokardiogrammasi ham olinadi va bu EKG bilan tasvirning vaqt bo‘yicha o‘zgarishlari solishtirilib, yurak harakatlari fazasiga mos keluvchi tasvir qayta tiklanib, tekshirish uchun olinadi (79-rasm).



81-rasm. EKG bilan tasvirning vaqt bo‘yicha o‘zgarishlari

Ushbu usul oddiy rentgen kompyuter tomograflarida ham qo‘llanilishi mumkin, ba’zi texnik o‘zgarishlar qilish yetarli. Bu ucul bilan tekshirganda nafas olish a’zolari o‘zgarishi yurak harakatiga ta’sir etmaydi deb olinadi.


Kontrast moddalar konsentratsiyasining qon oqishiga mos o‘zgarishiga ko‘ra, rentgen nuri kuchsizlanishining koeffitsiyenti o‘zgarishiga bog‘liq tekshirish usuli bo‘lgan ketma-ket skanirlovchi dinamik kompyuter tomografiyasi usulida transplantatsiya qilingan koronar shundagi qon o‘tishini, aortaning ko‘krak qismidagi bo‘laklarini va minut hajmdagi qon oqishini o‘lchash mumkin. Ammo bu usul bilan ham yurakning sifatli tasvirini olish qiyin, shu sababli yuqori sifatli uch o‘lchamli tasvir olish uchun keyingi vaqlarda mexanik usulda skanirlaydigan tez harakatlanuvchi tomograflar hamda elektron skanirlovchi tomograflar yaratildi. Mexanik usulda skanirlaydigan bunday tomograflardan biri 1981- yilda AQShning Mayo klinikasida qo‘llanildi, uning tarkibidagi 3 ta rentgen nurlatgichi va 3 ta detektor

veyer yo‘nalishi bo‘yicha tez harakatlanib, zarur tekshirishlar o‘tkazish imkonini beradi. Bu dinamik yoyilma rekonstruktur (DYoR) bir vaqtning o‘zida 240 tagacha bir-biriga yaqin ko‘ndalang qirqimli qatlamlarni 1 mm «qadam»da 1 sekundda 60 tagacha qirqimlarini olib berish imkoniyatiga ega.

Bu (DYoR) tarkibiga 28 ta rentgen trubkasi, 28 ta tasvir yorqinligini kuchaytirish sistemasi, shuncha televizion kameralar kiradi (82-rasm, a). Bu RKTda 30x30 sm o‘lchamda tasvir hosil bo‘ladi, skanirlash chastotasi 60 Gs, 4-5 sekund skanirlash vaqtida bemor oladigan doza 5+10 R dan oshmaydi.

75b-rasm elektron skanirlovchi tomograf qismlarining tuzilishi ko‘rsatilgan. Bunday tomograf 1982-yilda Kaliforniya universitetining klinikasida foydalanilgan. Uning rentgen trubkasi elektron to‘pidan iborat bo‘lib, 120 kV kuchlanish va 1000 mA tokida zarur elektron dastasini hosil qilib, magnit maydoni ta’sirida  $33^\circ + 37^\circ$  gacha fokuslanib og‘dirib beradi. Bunda elektron dastasi 4 ta halqadan biridan  $210^\circ$  gacha burilishi mumkin. Bu tomografda detektor sifatida sintilator - fotodiod juftligidan foydalanilgan.

Bu tomografdagagi skanirlash vaqtining 35+50 ms gacha bo‘lishi, qatlam qalinligi 1 sm va qatlamlar soni yurakni tekshirish uchun kerakli hajmda bo‘lishi hamda boshqa imkoniyatlar yaxshi natija berdi.



82- rasm. Yurakni tekshiruvchi rentgen kompyuter tomografi

a- dinamik yoyilma rekonstruktur: P - bemor; E - fluoressent skran; R - rentgen trubkasi; T - telekameralar. b - elektron skanirlash tomografi: 1 - bemor; 2 - elektron to‘p; 3 - elektron dastasi; 4- fokuslovchi magnit; 5 - og‘diruvchi magnit; 7 - yarim halqa shaklidagi detektorlar matrissasi; 8 - rentgen nurlanishi dastasi.

### Takrorlash uchun savollar:

1. Yurakni tekshiruvchi rentgen kompyuter tomograflarining imkoniyatlari qanday?
2. Mexanik usulda skanirlovchi Rentgen kompyuter tomografi haqida nima bilasiz?
3. Elektron usulda skanirlovchi kompyuter tomograflari haqida nima bilasiz?

## MUNDARIJA

Kirish.....	3
1. Zamonaviy tibbiyat yutuqlarida yuqori texnologiyali tibbiyat texnika larining o‘rnini va roli.....	4
2. Tibbiyat asbob-uskunalarida qo‘llaniladigan asosiy muhandislik ishlari.....	7
3. Biotibbiyat o‘lchashlardagi amaliy elektrodlarning qo‘llanilishi.....	9
4. Qonni tozalovchi va filtrlovchi qurilmalar .....	13
5. Stomatologiyada qo‘llaniladigan qurilma va asboblar.....	21
6. Dezinfeksiya va sterilizatsiya qurilma hamda uskunaları.....	26
7. Biologik tadqiqot va tashxis mikroskoplari.....	33
8. Quloq, tomoq va burun kasalliklarini tashhis qilishda foydalilaniladigan qurilma va uskunalar.....	36
9. Endoskopning tuzilishi va ishlash prinsipi.....	39
10. Ultratovush tasvir olish mexanizmlari.....	44
11. Rentgen nurlanishi. Rentgen qurilmalarining ishlash prinsipi .....	48
12. Kompyuter tomografining tuzilishi va ishlash prinsipi.....	56
13. Magnit rezonans tasvir olish mexanizmlari.....	61
14. Fizioterapiya qurilma, asbob va majmualari.....	64
15. Ko‘rish o‘tkirligini aniqlash uchun mo‘ljallangan qurilmalar	67
16. Jarrohlik amaliyoti uchun majmular.....	75
17. Bemor tibbiy holati va biologik parametrlarini ko‘rsatish uchun ko‘chma va yotoq monitorlari va uning tarkibiy qismlari.....	84
18. Elektroensefalogrammani qayd qiluvchi asboblari, ularni vazifasi va ishlash tamoyili.....	87
19. Elektrokardiograf apparatining ishlash prinsipi.....	90
20. Elektroforez apparatining ishlash prinsipi.....	94
21. Tibbiy radiologik terapiya majmualari.....	99
22. Interversion kardiologik majmular, ularning tuzilishi va ishlash prinsipi..	104

Muharrirlar: Adilxodjayeva Sh.M.,  
Miryusupova Z.M.